

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

IRODA GANIYEVA

SHARQ XALQLARI MUSIQA TARIXI

*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi barcha bakalavriat
ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun*
DARSLIK

Toshkent 2021

Iroda Ganiyeva Sharq xalqlari musiqa tarixi Darslik .- Toshkent:
« Navro`z » 2021-y.164 bet

Ushbu darslik O'zbekiston davlat konservatoriyasi barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan. Talabalar Sharq xalqlari musiqa tarixi sirlarini egallaydilar.

Darslik Sharq xalqlari musiqa tarixi va madaniyati masalalari bilan qiziquvchilar keng doirasi uchun ham foydalidir.

Taqrizchilar:

R.S.ABDULLAYEV – San'atshunoslik fanlari doktori, professor

S.M.BEGMATOV – San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

© Iroda Ganiyeva, 2021.

SO‘Z BOSHI

“Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy maqom san’ati o‘zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an’analari bilan ma’naviy hayotimizda alohida muhim o‘rin egallaydi.

Asrlar davomida ulug‘ shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoiyligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san’at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e’tibor qozongan”¹.

Darhaqiqat, o‘zbek milliy maqom san’atini tadqiq etish va shu orqali shaq xalqlari musiqasini, madaniyatini o‘rganish, unga bo‘lgan qiziqish doimo jahon musiqashunoslik ilmi namoyandalarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. So‘nggi yarim asr davomida musiqashunoslik ilmida ushbu masalani mazmun jihatidan o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj to‘la shakllandi. Sharq xalqlarining mumtoz musiqasi madaniyati, mqaomot dunyosi, atroflicha o‘rganilib xalqaro forumlarda ilmiy tadqiqotlarga oid materiallarda tahlil etilib olam shumul masala sifatida e’tirof etilmoqda. Qolaversa, ushbu soha jahonning aksariyat musiqiy oliy ta’lim muassasalarida maxsus fan sifatida o‘quv dasturlariga kiritilgan. Jumladan, Respublikamizning musiqiy ta’lim yo‘nalishi tizimidagi oliy ta’lim muassasalarida ham maxsus fan sifatida o‘z ifodasini topgan.

Fan dasturida belgilanganidek, ushbu darslik Yaqin va O‘rta sharq – Hisdiston, Pokiston, Turkiya, Afg‘oniston, Eron va Arab mamlakatlari xalqlariga tegishli bo‘lgan tarixiy va musiqiy ma’lumotlarini qamrab oladi. Sharq mamlakatlarining aksariyati uzoq tarixga ega ekanligi fanda ma’lum. Ulardan xar biri asrlar davomida o‘z madaniy an’alarining shakllanishi va taraqqiyoti bilan bog‘liq

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3391-sonli Qaroridan.

rivojlanish bosqichlariga egadir. Bizgacha yetib kelgan shakllarida esa har bir xalqning o'ziga xos musiqiy folklor janrlari, betakror mumtoz musiqiy namunalar yuzaga kelganligining guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, kasbiy musiqaning mukammal va murakkab shaklda tarkib topganligi maqomlar tizimining o'zida namoyon bo'lib turibdi.

Binobarin, o'zbek musiqasining xorijiy sharq xalqlari musiqa ijodiyoti bilan mushtarakligi, umumiy ildizlari, buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlar va ma'rifatparvar allomalar tomonidan chuqur e'tirof etilgan. Bu haqda jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Abdurauf Fitrat o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asarida quyidagilarni yozadi: "Bizning adabiyotimiz sharq-islom adabiyotiga qanday bog'langan, qanday munosabatli esa, musiqamiz ham sharq-islom musiqasi bilan shunday bog'langan, shunday munosabatdadir"²

O'rta va Yaqin sharq xalqlarining tarixiy madaniy aloqalari jozibador sharq ohanglarining tarovati va ta'sir kuchi hamda, o'zbek musiqasining xorijiy sharq xalqlari musiqa an'analari bilan mushtarakligini nazarda tutgan holda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov quyidagilarni ta'kidlaganlar: "Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining "Zafarnoma" kitobida Amir Temur davrida o'tkazilgan musiqiy anjumanlar haqida to'xtalib, "Yaxshi ovozli xonandalar kuylashni boshlab, g'azal-u naqsh aytur edilar va Turk-u mo'g'ul, Xitoy-u arab va ajamdir. Har kim o'z rasmi bilan nag'ma aytur erdi", degan ma'umotlarni keltiradi. Mustaqillik yillarida ulug' bobolarimizning ana shunday an'alarini davom ettirgan holda, mamlakatimizda musiqa san'atini keng rivojlantirishga qaratilgan dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mumtoz musiqiy

² A.Fitrat. "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi". T.: «Fan», 1993, 3-bet.

merosimizni asrab-avaylash va o'rganish, uni yosh avlodlarga bezavol yetkazish maqsadida ko'plab ko'rik-tanlovlar, nufuzli xalqaro anjumanlar muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda.³

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da belgilangan ustuvor ma'naviy-madaniy vazifalarga muvofiq “Jahon xalqlari musiqa” majmuasidagi “Sharq xalqlari musiqasi” fanining asosiy maqsadi – talabalarda Yaqin va Uzoq xorijiy Sharq xalqlari musiqa an'analari haqida ilmiy asoslangan tizimli bilimlar doirasini hosil qilish, bo'lajak san'atkorlarning badiiy tafakkurini umumjahon madaniy qadriyatlari jumlasidan hisoblanmish - qo'shni xalqlar musiqa merosiga doir ma'lumotlar bilan kengaytirish va o'zbek musiqasining sharq xalqlari va yanada kengroq jahon musiqa madaniyatiga ko'rsatgan tarixiy ta'sirini o'rganish hamda o'zaro ta'sirlanish jarayonlarining ahamiyatini bugungi voqe'likda yanada dolzarb ahamiyat kasb etayotgan “Sharq va G'arb madaniyatlari” kesimida idrok etishdir.

“Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi”, - deb ta'kidlagan Prezidentimiz SH. M. Mirziyoev.⁴

Sharq mamlakatlarining musiqa san'ati, madaniyatini o'rganish, albatta, bu xalqlarning o'g'zaki va yozma manbalari, musiqa dunyosini anglash bilan bog'liqdir. Musiqa dunyosi esa musiqachilar (xonanda va sozandalar), musiqiy cholg'ular, musiqiy janr va namunalar hamda ijrochilik an'analari bilan iboratdir. Bu mezonlarni talabalar e'tiboriga xavola etish, jahon musiqashunoslik sohasida yaratilgan manbalar bilan tanishtirish eng muhim masalalardan ekanligini aytish joizdir. Shu bois, mazkur darslik har bir mamlakatning geografik o'rni, hududi, aholisi, milliy an'analari,

³ I.Karimov – “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kush”.T.: 2008, 140 bet

⁴ Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, NMIU, 2017. – 488 b.

e'tiqodi, madaniyati va albatta, musiqa san'ati xususida to'xtalib o'tiladi.

Qayd etish joizki, sharq mamlakatlari musiqa madaniyatini anglash, idrok etish, albatta, talabalardan ma'lum darajada tayyorgarlikni talab etadi. Talabalar o'z milliy musiqa merosini kerakli darajada o'rganib, muayyan bilimga ega bo'lishlari lozim. Xorijiy tillarni bilishi ham ayni muddaodir. Zero, bunday hol talabalarga turli tillarda yozilgan manbalar bilan tanishishlari uchun imkon yaratadi. Shu bois darslikning adabiyotlar ro'yxatida xorijiy tillarda yozilgan asarlar va tegishli ma'lumotlar keltiriladi. Unda jahon musiqa dunyosida mashhurlikka erishgan namoyandalarning eng saralari bilan tanishtiriladi. Darslikda, shuningdek, xalqlarning kasbiy musiqasi, ya'ni mumtoz kuy va ashulalariga alohida e'tibor qaratilgan, ularning madaniyatini musiqa orqali anglash va tasavvurni mustahkamlashga qaratilgan harakat o'z ifodasini topgan.

Darslikni yaratishda uni mukammal bayoni uchun lug'atlar, milliy va musiqa ensiklopediyalari, internet ma'umotlaridan, O'zDKning A.Nazarov, M.Nosirov, Z.Oripov, Z.Nasullayev, R.Yunusov, S.Begmatov, kabi professor-o'qituvchilarning ilmiy maqola va maruzalaridan keng foydalanildi. Buning uchun barcha mualliflarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

I-DARS: KIRISH. SHARQ XALQLARI MUSIQA TARIXI

O‘zbekiston o‘z milliy mustaqilligiga erishgandan so‘nggi qisqa davrda ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida bo‘lgani kabi milliy-ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash, ajdodlarimizdan qolgan ulkan madaniy merosni chuqur o‘rganish mustaqil o‘zbek davlatchiligi qurilishining bosh mezonini etib belgilandi. Ushbu vazifani amalga oshirishda yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro tenglik asosida madaniy aloqalarni tiklash va rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan qator tadbirlar, ayniqsa, “Sharq taronalari” - Xalqaro musiqa festivali muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sobiq Sho‘rolar davrida turli mafkuraviy iskanjalar bilan jilovlab qo‘yilgan o‘zbek musiqasining Xorijiy Sharq xalqlari bilan tutgan tarixiy aloqalari milliy istiqlol tufayli yangi ijodiy izlarga solindi va tarixiy-madaniy hamkorliklar yangi kuch-qudrat bilan jo‘sh ura boshladi.

O‘rta va Yaqin Sharq xalqlarining tarixiy madaniy aloqalari, jozibador sharq ohanglarining tarovati va ta’sir kuchi hamda o‘zbek musiqasining xorijiy sharq xalqlari musiqa an’analari bilan mushtarkaligiga guvohmiz. Binobarin, o‘zbek musiqasining xorijiy sharq xalqlari musiqa ijodiyoti bilan uzviyligi, umumiy ildizlari, buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur kabi mutafakkir va ma’rifatparvar allomalar tomonidan chuqur e’tirof etilgan. Bu haqda jadidchilik harakatining yirik namoyondasi A.Fitrat quyidagilarni yozadi: “Bizning adabiyotimiz sharq islom adabiyotiga qanday bog‘langan, qanday munosabatli bo‘lsa, musiqamiz ham sharq islom musiqasi bilan bog‘langan, shunday munosabatdadir. Bizning eski kuylarimiz orasida Rok, Qator Sorang degan kuylar bor. Rok– hindcha maqom demakdir, Sorang esa hind cholg‘ularidan biri. Bular musiqamizning ko‘p eskidan yolg‘iz arab-eron emas, xatto hind musiqasidan ta’sirlanganligini ko‘rsatadi. Sharq musiqasi asos nazariya e’tibori

bilan birdir. Hammasi o‘n ikki maqom asosi uzra boradir. Hammasining bir ko‘p istilohlari, bir ko‘p usul doiralari bir xildir...”.

Ushbu bosh maqsaddan kelib chiqqan holda fanning asosiy vazifalari quyidagi nuqtalarda belgilanadi:

A) Xorijiy sharq xalqlari musiqiy an‘analari, turli milliy uslub va ijodiy ijrochilik maktablari bilan ilmiy-tizimli asosda va umummadaniy-tarixiy ma‘lumotlar negizida izchil tanishish,

B) Sharq musiqiy an‘analarining ilmiy-nazariy va badiiy-amaliy (ijodiy) o‘zlashtirishning uslubiy ko‘nikmalarini hosil qilish.

Musiqiy sharqshunoslik fani musiqashunoslik va sharqshunoslik sohalarining tutash tarmog‘i sifatida ilmiy-uslubiy jihatdan XIX asrning birinchi yarmida shakllana boshladi. Uning vujudga kelishida quyidagi omillar asosiy ahamiyat kasb etadi:

1. Yevropa davlatlarining mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishda boshqa xalqlar madaniyati, adabiyoti va san‘ati bilan tanishish, ularni o‘rganish va o‘zlashtirishga bo‘lgan intilish;
2. Ijodiy imkoniyatlarni kengaytirish, yangi badiiy-estetik va falsafiy ufqlarni kashf etish va umuman yangi ma‘naviy ehtiyojlarni qondirish maqsadida milliy ijodiy maktablarning (fransuz, nemis, Vena maktabi, ingliz va hokazo) sharq an‘analariga bo‘lgan qiziqishlarining tobora ortishi;
3. Musiqaning universali badiiy estetik va ilmiy-nazariy (garmoniya, polifoniya, shakl muammosi, rimt, cholg‘ushunoslik) qonun-qoidalarini umumbashariy musiqa madaniyati matnida o‘rganishga intilish.

G‘arbiy Yevropada Sharq xalqlari umumiy madaniyatini o‘rganish, avvalambor, musiqa merosini tadqiq etishdan boshlangan. Olmon tadqiqotchisi I.G.Kosegartenning Ali Isfahoniyni “Katta qo‘shiqalar kitobi” asari nafaqat musiqa sharqshunosligi balki, umuman, ilmiy sharqshunoslik fanining debochasi hisoblanadi. O‘rta va Yaqin Sharq xalqlari musiqasiga bag‘ishlangan ushbu kitobda Abul Faraj al-Isfahoni, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Imom Abu Hamid

Gʻazzoliy, Xoja Abdulqodir Marogʻiy kabi mutafakkirlarning musiqiy risolalari haqida ilk maʼlumotlar va lavhalar keltiriladi. Asar 1840-yilda nashr etilgan. I.G.Kosegartenning shuningdek, Bonnda 1844-yilda chop etilgan musulmon olimlari musiqa nazariyasi haqida asari ham nazariy musiqiy sharqshunoslikning mumtoz namunasi sifatida eʼtirof qilingan.

Sharq musiqa ijodiyotini nazariy va ilmiy-tarixiy jihatdan oʻrganishga asos solgan olim olmon musiqashunosi R.G.Kizevetter oʻzining shoh asari (“Arab musiqasini manbalar asosida oʻrganish”) bilan Leyptsig 1842-yil musiqiy sharqshunoslikning ilmiy-uslubiy koʻnikmalarini, sohaviy yoʻnalishlarini (matnshunoslik, manbashunoslik, cholgʻushunoslik, maqom nazariyasi, musiqa tarixi va boshqalar) koʻp jihatlardan belgilab beradi. R.G.Kizevetter musiqaga oid 50 dan ortiq qadimiy qoʻlyozmalar, shu jumladan Al-Forobiy, Ibn Sino, Qutbiddin ash-Sheroziy, Omuliy, Nosiriddin at-Tusiy, “Ixxon us-safo”, Abdulqodir Marogʻiy kabi allomalarning asarlarini ilk bor ilmiy muomalaga tadbiq etgan olim, shuningdek, Sharq xalqlari, xususan, oʻzbek madaniyatiga tegishli 225 ta cholgʻularning tavsifi va tasnifini keltirgan boʻlib, ushbu jihatdan uning tadqiqoti bugunga qadar oʻzining ilmiy mohiyatini saqlab kelmoqda.

R.G.Kizevetter asarining muqaddimasida shu narsa alohida taʼkidlanadiki, “Arab musiqasi – shartli tushuncha boʻlib, unda arab, fors va turkiy xalqlar musiqiy tuzilmalari nazarda tutiladi”.

Kizevetter 12 arab maqam tizimi, eron dastgohlari 6 ovozet va 24 shoʻba turkumlarini qiyosiy oʻrganish natijasida quyidagi xulosaga kelgan: “Arab, fors va turkiy xalqlar musiqasining ohang tizimi oʻz negizida diatonik tovushqatorga tayangan boʻlib, ulardagi ayrim cheklanishlar lad tizimga tubdan taʼsir eta olmaydi.” R.Kizevetterning Sharq xalqlari musiqa ijodiyoti namunalarini Yevropa gomofon-garmonik uslub vositalari yordamida qayta ishlagan tajribalari keyinchalik Sharq va Gʻarb musiqasi madaniyatlarining oʻzaro

ta'sirlanishi muammolari kesimida muhim badiiy-ijodiy va ilmiy-uslubiy ahamiyat kasb etadi.

Fransuz musiqiy sharqshunosligi ilmiy an'alarining shakllanishi Salvador Daniel, Karra de Vo, Kossen de Perseval kabi musiqashunos olimlarnig Sharq mamlakatlari, ayniqsa, Jazoir, Liviya, Tunis, Marokash, Mavritaniya, Misr kabi arab mamlakatlari musiqa madaniyatiga bag'ishlangan tadqiqotlari bilan bog'liqdir. J.P.Land o'zining "Arab gammasining tarixi" kitobi Al-Forobiyning "Musika haqida katta kitob" asarida keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda shuni alohida uqtirib o'tadi: "Arab musiqasi fors-turkiy xalqlar va Vizantiya an'alarini ko'r-ko'rona emas balki, tanlov asosida o'zlashtirib olgan".

Mashhur fransuz olimi baron Rudolf de Erlanje ilmiy musiqa Sharqshunosligi rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan zabardast fan arbobidir. Uning Abu Nasr al-Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin al-Urmaviy va boshqa Sharq allomalarining musiqiy merosiga bag'ishlangan tadqiqotlari jahon musiqashunosligining shoh asarlari hisoblanadi. Nashr qilingan tadqiqotlari orqali O'rta va Yaqin Sharq, xususan, O'rta Osiyo xalqlari musiqiy nazariy merosi bilan yaqindan tanisha boshladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Al-Forobiy, Ibn Sino va Umaviylar risolalarining de Erlanje tomonidan bajarilgan tarjimalari manbashunoslikning akademik uslubi mumtoz namunasi hisoblanadi. Ular hozirgacha Yevropa tillariga o'girilgan manbalar sifatida hamon ilmiy ahamiyatini to'la saqlab turibdi.

Buyuk ingliz Sharqshunosi X.J.Farmer (1882-1961) zamonaviy musiqa sharqshunosligining rivojlanishida yangi davrga asos solgan olimdir. Uning qalamiga mansub 10 dan ortiq monografiya, 150 dan ortiq maqola hamda qator tarjimalarda Imom Abu Homid G'azzoliyning "Ixyoi ulum ad-din", Kalobodiy-Buxoriyning "Kitob ut - ta'arruf", Ibn Abdu Rabbixning "Iqd al-farid" asarlari O'rta va Yaqin Sharq xalqlari musiqa ijodiyoti, madaniyati tarixi va nazariyasiga doir mavzular yetakchi o'rin egallaydi.

X.J.Farmer O'rta Osiyo ayniqsa, Turkiston xalqlari musiqa madaniyatiga katta qiziqish bilan yondashgan. "Turkiston musiqasi" maqolasida o'zbek folklori, dostonlar va maqom ijodiyoti haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Farmer ushbu tadqiqotida qadim qo'lyozma manbalar ham A.Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asariga murojaat qilgan.

O'zbek musiqashunoslik maktabi va uning muhim sohasi bo'lmish musiqa sharqshunosligining yaratilishida A.Fitrat, Muhammad Yusuf Devonzoda, Matyusuf Xarratov va G'ulom Zafariylarning tadqiqotlari tarixiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Fitratning milliy musiqa merosimiz etnogenezi turkiy xalq va elatlar ijodiy an'analari va ijtimoiy-madaniy (ko'chmanchi va o'troq qishloq, shahar an'analari) kesimlarda yondashuvlari bugungi kunga qadar o'zining muhim uslubiy ahamiyatini saqlab turibdi. A.Fitrat shuningdek, o'zbek musiqa manbashunosligiga ham ulkan asos solgan qomusiy olimdir.

Musiqa sharqshunosligining shakllanishidan buyon o'tgan davr mobaynida atamalar va asosiy tushunchalar tizimi, musiqiy-madaniy mintaqa va hududlarni aniqlash va mezonlarni asosiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu masala dastavval, "Sharq musiqasi" tushunchasiga bevosita taaluqlidir. Ma'lumki, "Sharq madaniyati" tushunchasining o'zi, avvalambor, G'arbiy Yevropa madaniyati nuqtai nazarini ifodalaydi. Ushbu mavqe sof ilmiy ma'noda universal bir mazmun doirasiga da'vogarlik qila olmasa-da, zamonaviy ijtimoiy fanlarda shartli ma'noda umuman qabul qilingan ta'rifdir.

Zamonaviy musiqashunoslikda madaniy mintaqa va hududlar chegaralarini belgilashda qator omillar va mezonlar qo'llaniladi:

1. Geografik omillar. Bunda Sharq xalqlari va elatlarning mamlakat va davlatlarininng geografik vaziyati ushbu xalqlar madaniy hududlarini belgilashda asosiy mezon sifatida qabul qilingan. Masalan, "O'rta va Yaqin Sharq", "Uzoq Sharq", "Shimoliy Afrika"

madaniyatlari kabi atamalar bugungi fanda keng qo'llaniladi. Biroq, mazkur geografik ta'rif nisbiy ma'noga ega bo'lib, uning mazmunida yanada kengroq tushunchalar doirasi qamrab olinadi. Masalan, "O'rta (yoki Markaziy) Osiyo madaniyati" ta'rifida odatda Eron, Sharqiy Turkiston va bugungi Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniyati tushuniladi. Biroq, sof geografik nuqtai nazardan yondashilsa, Osiyo qit'asining markazi Rossiyaning Sibir o'lkasida joylashgan bo'lib, unda istiqomat qiluvchi aholi madaniyatini Sharqqa mansub deyish juda mushkul.

2. Diniy-ma'naviy omillar (konfessional yondashuv). Diniy estetik ta'limotlarni madaniy-ma'naviy, jumladan, musiqiy an'analarning poydevori sifatida talqin etuvchi mazkur konfessional yondashuvga muvofiq zamonaviy fanda "musulmon yoki Islom", buddizm, xristianlik yoki nasroniylik, yahudiylik madaniyatlari kabi tushunchalar keng qo'llaniladi. Bunda tushunchaning mazmuni va ta'rifi orasidagi ziddiyat yaqqol sezilib turadi. Masalan, "Musulmon xalqlari musiqasi" tushunchasi, odatda, arab, eron va turkiy xalqlar an'analari va madaniyat nazarda tutiladi. Biroq, tarixiy mavqe'lardan yondashilsa, bu ta'rifga ma'lum bir davr ya'ni, islom davri (8-20 asrlar) e'tiborga olinib, boshqa davrlar to islomiy davrlar madaniyati chetda qoladi. Qator hollarda esa islom davri madaniyatiga singdirib yuboriladi. Qolaversa, boshqa jihatdan diniy marosim va an'analari, estetik tasavvur va ta'limotlar muhim bo'lsa-da, ma'naviy merosning bir qismidir. Binobarin, diniy ta'limotlar ayniqsa, islom huquqshunosligining san'at sohalariga, avvalambor, musiqaga, xonandalik va sozandalik kasbiyotiga bo'lgan munosabati tarixan o'ta murakkab va ziddiyatli kechgan. "Islom va san'at" mavzusi 7-asrdan to zamonamizgacha diniy va ilmiy doiralarda juda qizg'in, qutbiy mavqe'larning to'qnashuviga sabab bo'luvchi markaziy muammolardan biri sifatida turibdi.

3. Lug'aviy omillar. Keyingi yillarda Sharq xalqlari musiqasini ularning lug'aviy va sheva xususiyatlariga tayangan holda o'rganish

keng tus oldi. Jumladan, “Turkiy xalqlar musiqasi”, “Eronzabon” yoki “Arablison” xalqlar musiqa ijodiyoti kabi ta’riflar xalqaro miqyosda o’tkazilayotgan qator ilmiy anjumanlarning umumiy mavzusi sifatida belgilangan. Albatta, Sharq musiqa ijodiyotida aytim (vokal) yo’llari cholg’u musiqasiga nisbatan ustuvor ahamiyat kasb etishi universal va umumiy xususiyatdir. Bu jarayonda muayyan immanent ritmik tizimi (kvantitativ, kvalitativ, sillabik) va she’riy vaznlar tizimlari (aruz, barmoq) qonun-qoidalar musiqa turkum asarlarida aytim qismlarining shakli va ritmik xususiyalariga ta’sir qiladi. Biroq mazkur lug’aviy omillarni mutloqlashtirish, ularga universal ahamiyat bag’ishlagan ushbu xalqlar musiqa ijodiyoti to’g’risida noto’g’ri va nomukammal taxminlarga olib kelishi mumkin. Oxirgi yillarda olib borilgan musiqashunoslik tadqiqotlaridan shu narsa aniq bo’layotirki, badiiy amaliyotda lug’aviy xususiyatlar, she’riy qonun-qoidalar va ritmik shakllanishi jarayonlarida ikkilamchi ahamiyat kasb etib, musiqaning semantik vositalaridan biriga aylandi. Masalan, deyarli yagona davlat tili, adabiy merosga ega bo’lgan turk va ozarbayjon xalqlarining musiqiy ijod an’analari shakllanishi, parda-lad tizimlari, ritmika va umuman semantik jarayonlanish jihatlaridan bir-biridan ancha farqlanadi. Ozarbayjon an’anaviy musiqasi ko’proq eronzabon, aniqrog’i, eron xalq musiqa shakllari bilan mushtaraklik chizgilarga moyil. Boshqa bir misol, yagona adabiy til va adabiy merosga ega bo’lgan eron va tojik milliy musiqa ijodiyoti yaqqol tafovutli bo’lib, tojik milliy musiqasi o’zbek musiqiy folklori va maqom ijodiyoti bilan mushtarak bo’lgan umumiy negizlarga va an’analarga egadir.

4. Milliy-madaniy mezonlar. Zamonaviy sharqshunoslikda Sharq madaniyatlarida “Millat va milliy madaniyat” masalasi o’ta munozarali murakkab muammo bo’lib, haligacha o’zining uzil-kesil yechimini topmagan. Milliy-madaniy omillar mezon sifatida O’rta Osiyo xalqlari – o’zbek, tojik, turkman, qirg’iz, qozoq milliy musiqa an’analari va merosi matnida bugun deyarli shubha uyg’otmagan holda xorijiy Sharq mamlakatlari, ayniqsa, arab mamlakatlari

madaniyatlari qizg'in munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, madaniy, diniy an'analar, etnik va lug'aviy jihatlardan yagona tarixga ega bo'lgan arab millati bugun 30 dan ko'proq mamlakatlarda joylashgan. Arab musiqa merosi har bir alohida mamlakatda turli mahalliy va mintaqaviy xususiyatlarga ega bo'lib, milliy nuqtai nazardan ularni umumiy bir qolipga joylashtirish muammoli masaladir. Jumladan, Shimoliy Afrika mamlakatlarida (Mag'ribda) keng tarqalgan no'ba (san'a, tubu') turkumi lad-parda tizimi, semantik-intonatsion va ritmik jihatlardan Iroq va Suriya maqam turkumlaridan ancha farqlanadi. Ayni paytda, Misr maqam tizimi Iroq yoki Jazoir parda-tizimlaridan o'zgacha bo'lgan xususiyatlarga ega. Shu bois, "Arab milliy musiqasi" tushunchasi juda umumiy va mavhum ma'noga ega bo'lib, muayyan mamlakatlar madaniyati bo'ylab taqsimlanadi.

Oxirgi yillarda ijtimoiy fanlarning boshqa sohalarida bo'lgani kabi musiqa Sharqshunosligida ham "Ko'chmanchi xalqlar madaniyati", "O'troq xalqlar madaniyati" kabi tushunchalar taomilga kirib bormoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy mezonlarga asoslangan mazkur yondashuv faqat tarixiy ahamiyatga molik bo'lib, zamonaviy badiiy amaliyotda o'z isbotini topolmayotir. Masalan, tarixan ko'chmanchi madaniyatga mansub deya baholanmish o'zbek, arab yoki turk musiqa an'analarini mazkur ijtimoiy omillarga binoan qaysi madaniyatga – "ko'chmanchimi yoki o'troqqa" mansub deb belgilash mumkin.

Xorijiy Sharq xalqlari musiqiy-madaniy hududlarini aniqlashda asosan yuqorida keltirilgan mezon va omillar qo'llanilib, ular tadqiqotchilarning tutgan uslubiy va mafkuraviy mavqe'laridan ham dalolat beradi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Sharq mamlakatlari madaniyatini o'rganish qay darajada dolzarb ekanligini aytib bering?

2. Xorijiy olimlarning O'rta va yaqin Sharq mamlakatlari musiqiy ijodiyotini o'rganishdagi roli qanday?
3. O'zbek musiqa madaniyatining va O'rta va yaqin Sharq mamlakatlarining musiqiy madaniyati bilan mushtarakligi xususida ma'lumotlar keltiring.
4. Sharq mamlakatlarida ijro etilgan qaysi qadimiy cholg'ularni bilasiz?
5. Sharq mamlakatlarida islomgacha bo'lgan davr qanday nomlangan va u to'g'risida nimalar bilasiz?

Mavzu bo'yicha topshiriqlar:

1. Musiqiy ensiklopediyadan (M. 1973-yil 1-tom) arab musiqasiga doir materiallarni topish va tarjima qilib konspekt tayyorlash.
2. Internetdan Sharq musiqiy cholg'ularining tasvirini topish va ta'rifini keltirib yozish (konspekt).
3. Internetdan sharq musiqasi namunalarini topish.
4. O'tilgan mavzu bo'yicha krossvord tuzish.

II-DARS. ARAB MUSIQA MADANIYATI

Arab xalqlari musiqiy madaniyati juda qadimiy va boy an'analarga egadir. U hududiy tomondan Mag'ribdan Mashriqqacha bo'lgan masofani o'z ichiga oladi⁵. Amaliyotda ham uning ikki mintaqaviy jihati nazarda tutilgan holda, Arab sharqini – Mashriq, Arab g'arbini – Mag'rib, deb yuritish rusm bo'lgan.

Ilmiy tadqiqotlarga tayanib, shuni aytish joizki, arab xalqlarining serqirra musiqa madaniyati 2000-yildan ortiq tarixga ega. Arab xalqlari badiiy ijodiyoti: she'riyati va musiqa san'atini shu kungacha yetib kelgan arab manbalaridan bilish mumkin. Lekin arab musiqiy merosi bir necha asrlar davomida og'zaki an'ana asosida shakllanib, rivojlanib kelgan.

Arab xalqlarining turmush tarzi va hayoti bilan bog'liq folklor musiqiy namunalari ham o'ziga xosdir. Janrlar rang-barangligi, kuy va aytimlarning arab xalqlari milliy an'analarga mosligini aytib o'tish lozimdir. Shu bilan birga, xalq orasida professional, ya'ni mumtoz musiqaning shakllanishi arab xalqining boy ma'naviyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Musiqa arab qo'shiqlarini yangi jilolar bilan boyitib bordi. Tobora qo'shiqlarda ritmlar asos bo'lib, so'zlarning she'riy uslubga tushishiga olib keladi. Keyinchalik ritmlar arab musiqasida yangi janrlarga asos soldi. Islom dini (VIII asr) paydo bo'lguncha arablarning "Johiliya davri"da she'riyat va musiqa go'zal bir uyg'unlikda bo'lgan. M. Gettatning⁶ aytishicha, "She'riyat nafaqat musiqiy ritmni boshqargan, balki qo'shiq bilan ifodalangan". Shunda cholg'u musiqasi unga jo'rnavoz sifatida ikkinchi darajali vazifani bajargan. Johiliya davrining kechki davrida san'at yuqori cho'qqiga ko'tarilib, musiqa she'riyat sohasi hamda diniy marosim (sehr-jodu)larda keng qo'llanildi. Ushbu davrda Tuvays, Azza al-Mayla

⁵ Конрад Н. Запад и Восток. М., 1972. с.24.

⁶ Gettat M. Mag'rib klassik musiqasi. Parij (fransuz tilida). 1980. b. 27.

(“Xonandalar malikasi”), kanizak Shirin, shoir va musiqachi Xassan ibn Tabut, qo‘shiqchi Bilal Ribax al-Xabasha singari namoyandalar faoliyat ko‘rsatgan⁷.

Arab klassik adabiyotining shakllanishida Islom dinining muqaddas kitobi Qur‘on juda katta ahamiyat kasb etadi.

Arab madaniyatining rivojlanishi 3 ta asosiy davrda shakllanadi:

- 1.Umaviylar (VII-VIII) sulolasi – Suriya-Damashq;
- 2.Abbosiylar (VIII-XII asrlar) davrida Iroq-Bag‘dod;
- 3.Mamluklar (XII-XIII) davrida Misr-Qohira markazlar bilan bog‘liqdir.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, Umaviylar davrida arab professional mumtoz musiqasi (shahar va saroylarda) yuksak darajaga ko‘tariladi. Shu zamonning taniqli allomalaridan Yunus al-Kotibning (765) “Kitab ul-ag‘ani” (“Qo‘shiqlar kitobi”) – arab musiqa nazariyasiga bag‘ishlangan ilk risolasi, Ibn Surayjning (726) “Etti qo‘shiq” kitoblari bizgacha yetib keldi⁸. Arab xalifaligining keyingi madaniy-ma‘rifiy yuksalish davri Abbosiylar hukmronligiga (VIII-X asrlar) to‘g‘ri keladi. Bu davr arab madaniyatining “Oltin davri” hisoblanadi. Mansur (754-776), Xorun ar-Rashid (786-809) va Ma‘mun (813-833) xalifaliklari paytida ilm-fanga e‘tibor kuchayadi. Musiqa ilmining gullab-yashnashiga IX asr o‘rtalarida Bag‘dodda tashkil etilgan “Dor ul-Hikma” (Donishmandlar uyi) sabab bo‘ladi. Bu yerda Yunon mualliflari, xususan, Pifagor (Pisoguris), Ptolomey (Batlomus), Yevklid (Iqlidus), Sokrat (Suqrot), Platon (Aflotun), Aristotel (Arastu)larning turli xil asarlari tarjima qilindi va ko‘pgina risolalar yaratildi.

Arablarining professional musiqasi og‘zaki tarzda rivojlangan. Bu musiqa tabiatan badihaviy tusga egadir. Hozirgi davrgacha juda ko‘p qadimiy janrlar, xalq qo‘shiqchiligi, vokal, she‘riy, cholg‘u va raqs san‘ati shakllari yetib kelgan. Qadimgi arablarning og‘zaki

⁷ Еолян И. «Очерки арабской музыки» М.; 1977. С. 11.

⁸ Osha manba. 22-bet.

an'anaviy janrlari ravi va mutriblar ijodida saqlanib, asrma – asr o'tib kelgan⁹.

Arab xalqlarining boy badiiy merosi avloddan avlodga o'tib, "An'anaviy musiqa" degan nomni olishga muyassar bo'lgan. Qayd etish joizki, ushbu an'ana doimo xalq musiqa madaniyatining jonli jarayonini aks ettirish bilan birga doimo harakatda bo'lib, yangilanib turgan.

Arablarning qadimgi ritmlari "cho'l ritmlari" (tuya yurishi, otning sakrashi) ta'siri ostida shakllangan.

Arab professional musiqiy janrlarini ikki guruhga bo'lish mumkin: muayyan metro-ritmik tuzumlariga asoslangan namunalar va erkin badihaviy shakldagi kompozitsiyalar.

Birinchi guruhga **samoi**, **bashraf**, **taxmila**, **longa** kabi shakllar va badihaviy turdagi **takasim** deb nomlanuvchi cholg'u janrlari kiradi.

Vokal (vokal-cholg'u) janrlariga esa, qat'iy metro-ritmga ega bo'lgan va keng tarqalgan **muvashshah**, **qasida** va **dor**; erkin badihaviylik shaklidagi vokal prelyudiya-noktyurnlar – **layali** va lirik poemalar – **mavval** kiradi. Bu janrlarning barchasi qadimiy, lekin hozirgi kunda ham ular o'z salohiyatini yo'qotmagan. Ular asosida ijrochilik maktablari rivojlandi.



Rebab cholg'usi

⁹ Еолян И. «Очерки арабской музыки» М.; 1977, с.18-бет.

Qasida. Arablarning vokal musiqa janrlari qatoriga metro-ritm asosli qo‘shiqlar guruhiga, yuqorida ta’kidlaganimizdek, **qasida**, **muvasshshah**, **dor** hamda yakka ijro etiluvchi badihaviy an’anaviy shakllar bo‘lmish **layali** va **mavval** janrlarini kiritish mumkin. Ular ichida eng qadimiysi **qasida** bo‘lib, u badaviylarning musiqiy-she’riy ijod shakli sifatida mashhur hisoblanadi. Qasidalarining taniqli ijrochilari haqida Abulfaraj Isfahoniy (897-967) ning “Katta qo‘shiqlar kitobi” (arab musiqasi, unga oid qo‘shiqlar va she’riyatga bag‘ishlangan bo‘lib, unda O‘rta Osiyo, Eron xalqlarining qadim musiqasidan darak beruvchi, Sharq musiqa atamalarining shakllanishiga xizmat qilgan manba)da ma’lumotlar keltirilgan. Bulardan Ibn Shaddod, Zuxeyra, Imru al-Qayslarning nomlari alohida ta’kidlangan¹⁰.

O‘rta asrlarga kelib, qasida arablarning mumtoz she’riy va musiqiy ijodining eng oliy namunalariga aylangan. Boshqa janrlar singari qasida ham kompozitsion tuzilishi jihatidan ko‘p tarixiy o‘zgarishlarga duch kelgan. XIX-XX asrlarga kelib mashhur kompozitor va qo‘shiqchilar Abdul Vahob, Umm Kulsum, Muhammad Kasabjilar ijodi orqali qasida diniy janrdan biroz uzoqlashib, kontsert janriga aylandi. Ma’lumki, qadimgi badaviy qasida mustaqil vokal shaklga emas, balki she’rlarning musiqiy so‘zlashuviga asoslangan. She’riy baytlar bitta qofiyaga tayangan va uzviy monografik shaklni hosil qilgan. O‘rta asrlarga kelib, mumtoz qasidaning paydo bo‘lishi undagi ichki tuzilmaning boyishiga olib keldi. Har bir epizodda turli xildagi murakkab metro-ritmik tuzilmalar, turli qofiyalarni kuzatish mumkin.

Qasidalar uchun mahoratli shoirlar yuksak badiiy mumtoz uslubda maxsus she’rlar yozganlar. Qasida ijrosining jo‘rnavozlik mezonlari turli musiqiy cholg‘ular bilan birgalikda talqin etiladi. Shunday bo‘lsa-da, asosiy mezon badihaviylikni tashkil etadi.

¹⁰ И.Фельшетинский «История арабский литературы V–X века. – М.; 1985. С. 104–106.

Qasidaning qadimgi turlari faqat urma cholg'ular jo'rligida ijro etilgan. Keyinchalik, rivojlanish jarayonida unga musiqiy cholg'ulardan ud va rebablar qo'shila boshladi. Qo'shiq bir maromdagi usulga asoslanadi. XIX asrda qasida ijrosida faqatgina vokal ijro mahorati emas, balki milliy ansambllarning ahamiyati ham yuqori darajaga yetdi. Qasida arab xalqlarining shahar va qishloq aholisining maishiy hayotlariga chuqur o'rnashgan va unga bo'lgan qiziqish doimo rivojlanib borgan.

Muvashshah. Muvashshahlar butun tarixiy jarayonni o'tagan arablarning mustahkam janri hisoblanadi. Muvashshahlarning kelib chiqishini tarixchilar O'rta asrlarda arab madaniyatining gullagan davri, ya'ni X-XI asrlar va Abad al-Qazoza nomi bilan bog'laydilar. Ushbu janr, asosan, arab she'riyati va arab sharq san'ati asosida shakllana borgan. Shuning uchun muvashshah bilan bir qatorda boshqa janrlar – zajjal, diniy qo'shiqlar turkumi Andalus badiiy an'analari asosida vujudga kelgan. Shu bois, zajjallarning she'riy matnlari Andalus lahjasiga, aniqrog'i lotinlashgan arab tiliga xosdir. Uning shakllanishida darvesh, shoir va musiqachi Ibn Kuzmanning ijodi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu janr mumtoz arab she'riyati va erkin tizim asosida shakllangan. Muvashshahning paydo bo'lishi arab musiqasining boyishi va yangi murakkab usuli, yoddan chiqqan qadimiy janrlarning jonlanishiga sabab bo'ladi.

Mag'ribda ham, Mashriqda ham muvashshah birdek, katta erkinlikka ega bo'lgan ohangi, musiqiy-kompozitsion tuzilishi, lirik she'rlari, yuqori badiiy estetik ta'siri bilan arablarning sevimli janri hisoblangan. Muashshah ilgari qat'iy mumtoz she'r va qat'iy ostinatoli ritm bilan bog'liq bo'lgan.

Muvashshahning asosida arab klassik she'riyatining band shaklidagi she'rlari turgan bo'lsada, boshqa qo'shiq, cholg'u musiqa shakllaridan farqli ravishda, musiqa adabiy matnga butunlay bog'lanib qolmagan edi. Ushbu shaklning rivojlanishida arab musiqasida paydo

bo'lgan yangi murakkab usullar, qadimiy kuylar alohida ahamiyatga egadir.

Muvashshahlarning shakllanishida Andalusiya professional qo'shiqchilarining faoliyati alohida o'rin tutadi. Ular asosan bandga (ya'ni kupletli qo'shiqqa) asoslangan va Andalus xalq qo'shiq–raqs ritmlaridan foydalanishgan. Amaliyotda kuzatilishicha, muashshahlar ispan arablari she'riyati bilan mustahkam qo'shib ketgan bo'lsa-da, ularning so'nggi qatorlarini xalq, odatda, Andalus shevasida kuylangan. Keyinchalik ijrochilik amaliyoti o'ziga xos qonun va uslublarga tayanib, turli hududlarga tarqalib ketgan. Buning natijasida, muvashshahning “Misrcha muvashshah”, “Xalabcha” (Suriya), “Andaluscha” (Mag'rib) kabi ko'rinishlari yuzaga kelgan. Shinavandalar mazkur uslublarni hech bir qiyinchiliklarsiz ajrata olganlar.

Muvashshahning tarkibiy tuzilishi turkumni tashkil etadi. U 4 qismdan iborat bo'lib, cholg'u bo'limi ham mavjud. Yakunlovchi qism so'zlashuv uslubi va she'r ritmikasiga asoslanadi. Hattoki, butunlay boshqa ritmda tugallanishi ham mumkin. Bu jarayon esa muvashshahga oid ko'plab namunalarning yaratilishiga asos bo'lgan.

Musiqiy tuzilishga tegishli uslublarda kuy yetakchilik qilib, lirik she'rlar musiqiy ifoda vositalariga xizmat qilgan holda, Arab g'arbi (Mag'rib) da ushbu janr san'atning yuqori cho'qqisi bo'lishi uchun xizmat qilgan. Uning ichki tuzilishi zarbli ostinato ritmida rivojlanadi, bu haqda Al-Malikning (IX asr) “Dar al-tiraz” risolasida uning metro-ritmik xususiyatlari bayon etilgan. Olim ushbu risolasida juda ko'p she'riy-ritmik muvashshah formulalarni keltirgan. Vaqt o'tgan sayin bu qoida va chegaralardan chetga chiqish kuzatiladi. Hozirgi kunda bunday an'anaviy ritmlarning bir nechtasigina saqlanib qolgan.

Qadimdan muvashshahlar erkaklar xori tomonidan ijro etib kelingan. Lekin, eng yorqin namunasi albatta raqs bilan birga ijro etilgan va ular **samax** deb yuritilgan. Dastlab, samaxlarni faqat erkaklar ijro etgan bo'lsa, keyinchalik ayollarning ham qo'shib

aytishlari an'anaga aylanadi. Samax Suriya (Xalab) shahrida XVII asrda diniy omma raqsi bo'lib, sehr-jodu qo'shiqlari qatoriga kirib, yomg'ir chaqirish marosimida ijro etilgan. Samaxlarning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri maqom va boshqa ritmik usullar vositasida ijro etilgan pantomim uslubidagi raqsdur. Unda dinamika va metro-ritmning tinimsiz kuchayib borishini kuzatish mumkin. Samaxlarda ommalashgan an'anaviy usullar quyidagicha:

Masmudi – 4/4

Libo – 8/4

Murabba – 13 /4

Madaur shami – 10/4

Madaur masri – 12/4

Xindi dor – 7/8

Maer - 2/8

O'zining ko'p asrlik tarixida muvashshah janr sifatida bir qator o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, arab qo'shiq ijrochiligida o'zining estetik ahamiyati va mavqeini saqlab, zamonaviy jarayonda beqiyos xazina sifatida xalqning ardog'ida bo'lib kelmoqda.

Qo'shiqlar

Zajjal – muvashshah bilan bir qatorda rivojlangan qo'shiq. Zajjalning she'riy tuzilmasi muashshahga juda yaqin. Bu janrda xalq lahjasi asosiy ahamiyatga ega. Masalan, Suriyada bu janr she'riy jihatdan keng rivojlangan bo'lib, kuylari esa oddiy. Livanda esa juda yengil va sho'x uslubda ijro etiladi.

Taktuki – arablarning zamonaviy maishiy qo'shiqlaridan biri. U XIX asrda Misrda paydo bo'lib, biroz oddiylashtirilgan qo'shiqlar

turiga kiradi. Ba'zi olimlar fikriga ko'ra, bu janr yuqori darajada professional shakl va sof uslubga ega emas¹¹.

Arablarda, bundan tashqari, ***mujana*** va ***ataba*** deb nomlanuvchi qo'shiqlar ham mavjud. Bu qo'shiqlar she'riy jihatdan o'ziga xosdir. Unda xalq hajviy she'r o'yinlari, so'z va iboralarining obraz va ritmik jihatdan solishtirilishi yana bir e'tiborli tomonidir.

Suriya va Livan mamlakatlarida bu qo'shiq janrlari xalq tomonidan uyushtirilgan turli kechalarda, musiqiy-she'riy yig'ilishlarda keng tarqalgan.

Barcha arab xalqlari musiqa ijrochilik amaliyotida mashhur bo'lib, keng ommalashgan muvashshah va zajjal qo'shiq janrlari kuy tuzilishining rang-barangligi, fakturasining boyligi, tuzilish jihatidan xilma-xilligini kuzatish mumkin. Chunki, bu har ikki qo'shiq shakllari boshqa yangi shakllarning paydo bo'lishiga ham sabab bo'lgan.

Dor – yakkaxon va cholg'u orkestrlari jo'rligida ijro etiluvchi ko'p qismli janr hisoblanadi. Uning tarkibiga uchinchi qism sifatida mustaqil vazifani bajaruvchi vokal naqorat ham kiradi. Dor milliy qahramonlikni, inson qadr-qimmatini, go'zalligi va shu xildagi ulug'vor syujetlarga ega bo'lgan lirik janrlar qatoriga kiradi. U qat'iy metrik o'lchov va ritmga ega. Unda ayniqsa, cholg'u-asboblarning ahamiyati katta. Dor – uzviy rivojlanuvchi yaxlit musiqa shaklidir.

XIX-XX asrlarga kelib, mashhur musiqachilar Muhammad al-Masuba, Abd al-Xamuli, Muhammad Osmanlar tomonidan bu janrga bir qator yangicha uslublar kiritildi. Unda cholg'u va vokal qismlar bir xil bo'lib, o'zaro vazifasi tenglashdi. Shunga qaramay, dor arablarning zamonaviy an'anaviy qo'shiq janriga kirmaydi.

Dorning har bir qismi murakkab uch qismli va rondosimon shaklda tuzilgan. Har bir qism maxsus koda bo'laklari bilan yakunlanadi. Dorning turkumiy printsiipi, dramaturgiyasi juda ko'p qismli vokal-cholg'u shakllarga ham ega.

¹¹ Музыкальная энциклопедия. Арабская музыка. 1 т. – М.; 1973. С. 187.

Layali – lirik xarakterdagi, ko‘pincha cholg‘u jo‘rligida yakkaxon xonanda tomonidan ijro etiladigan qo‘shiqdir. Bu janr Sharqiy Arabistondan to Andalusiyagacha keng tarqalgan. Ko‘pincha, bu janr “**layali – mavval**” deb ham nomlanadi. Qo‘shiqni asosiy ijro etish printsipli – alohida so‘zlarning rivojlantirilishidadir. Bu uning semantik tarkibini tashkil etadi.

Layali badihaviyligi ijrochidan juda katta mahorat talab qiladi.



Maqom ladlarini mukammal bilish, erkin ijodiy improvizatsiya qilish, turli xil ladlarda mantiqiy modulyatsiya va og‘ishmalarni bajarib, so‘ng asosiy tonallikka qaytish kabi ijodiy vazifalarni ijro eta olishni talab etadi. Layali badihasi ijrochidan tabiatan ta’sirchan bo‘lishni, lirik kayfiyatni aniq ifoda etib berishni talab qiladi. Layalining birmuncha oddiy, yengilroq turlari, boshqa vokal janrlari singari xalq ijodida ham uchraydi.

Mavval – tarixiy manbalarda ta’kidlanishicha, Xorun ar-Rashid (786–906 yillar) davrida yaratilib, juda qayg‘uli, dramatik voqealar oqibatida paydo bo‘lgan janr. Ya’ni, dramatik elementlar bilan boyitilgan liro-epik xarakterdagi qo‘shiqdir. Uning asosiy obrazli-hissiy (emotsional) jihatlari hozirgi davrgacha yetib kelgan¹². Mavval minor ladida epik-badihaviy tarzda ravon (shoshmasdan) ijro etiladi. Har bir she’riy qator yakunida “**va mavvalya!**” so‘zlari takrorlaniladi.

¹² История стран Западного Востока в средние века – М.; 1957. С. 106.

Mavval she'rlari 5-6 qatordan iboratdir. Professional ijrochilar tomonidan kamdan-kam jo'rsiz ijro etiladi. Zamonaviy ijrochilik mezonida qo'shiq ko'proq milliy orkestr jo'rligida aytiladi. Mavvalning bir necha ijro uslubi mavjud. Unga ko'ra, mavval ansambl bilan ketma-ketlikda yoki cholg'u jo'rligida dialog, ya'ni, savol-javob tarzida talqin etilishi ham mumkin. Ushbu janrning xalq ijodiyoti bilan chambarchas bog'liqligi, milliy ohang bo'yoqlarining keng qo'llanilgani sababli mavval barcha arab xalqlari tomonidan sevib ijro etiladi va tinglanadi.

Qadimdan arab tilining ifodali yangrashi, shirinsuxanligi va obrazlilik e'tirof etilgan. Qo'shiqchi shoirlar esa o'zining ohangrabosi bilan ajralib turgan. Ular kuylagan qo'shiqlarni, hattoki, avliyolik darajasi bilan tenglashtirishgan. Xalq orasida ular juda katta obro'-e'tiborga hamda jamiyatda yuqori darajaga ega bo'lganlar.

Ma'lumki, badaviylarga oid qo'shiqchilik san'atida tuya boquvchilarning qo'shiq namunalari juda ommalashgan va asosiy janrlaridan bo'lgan. Bundan tashqari, **marsiya** – yig'i qo'shig'i, **madh** – maqto'v, **sar** – qasos, **xida** – tuya podachilari, **xabab** – otchilar qo'shig'i, **xija** – satirik qo'shiqlar kabi boshqa shakllar arablar hayotidan o'rin olgan.

ARAB MUSIQASI. MAG'RIB MUSIQA MADANIYATI (Andalusiya musiqa madaniyati)



Mag'rib (Shimoliy Afrika) musiqa madaniyatiga Jazoir, Marokash, Tunis, Liviya, Mavritaniya davlatlari kiradi. 661-680-yillarda arablar tarixida davlat tepasiga Ummaviylar sulolasi keladi. 750-yillarda hokimiyat Abbosiylar qo'liga o'tadi. Ummaviylar xalifalik poytaxtlari – Damashq va Bog'dod shaharlarini tark etib, Shimoliy Afrika yerlariga chekinadilar va Andalusiya (Arablar Ispaniyasi, poytaxti Kurtoba – Kordova) mustaqil Hoshimiylar davlatini barpo etishadi.

Arab musiqiy-she'riy madaniyati Ispan xalq an'analari madaniyatiga chuqur singib boradi. Ammo Ispan xristian diniy kengashi qarshiliklari oqibatida XI-XII asrlar arablar pireney yarim orolidan Shimoliy Afrika yerlariga ko'chishga majbur bo'lishadi. Ular ushbu hududga o'zlarining noyob Andalusiya musiqa an'analari olib kelishadi. Shu bois, Jazoir, Tunis va Liviya nubalari (tubu va sana turkumlari), muashshah aytim cholg'u turkumi (Mag'rib)

madaniyatida hamon «Andalus uslubi» deb yuritiladi.

Magʻrib musiqa madaniyati rivoji ikkita yoʻnalishga boʻlinadi:

1. Barbarlar (qadimiy davrni oʻz ichiga olgan) davri;
2. Arablar davri.

Barbarlar madaniyatida musiqa, sheʼriyat va raqs sanʼati tegishli janrlar rivojlangan. Bu janrlar xalq orasida turli shakldagi namunalar bilan ijro etilib kelingan. Jumladan: **afardi** – topishmoq aytish; **tasheraft** – qoʻshiq (yakka holda ijro etilgan); uning **atemshi** yoki **izli** shakllari. Har bir shakl oʻziga xos milliy jarayonni aks ettirgan boʻlishi ehtimoldan xoli emas. Tasheraft shakli Magʻribda oddiy qoʻshiqni ifoda etsa, atemshi yoki izli shakli Marokashning kichik qoʻshiq, yaʼni poemalari hisoblangan. Janrlar kesimida Jazoirda oʻziga xos shakllar mavjud. Masalan **ahalil** va **tagarro**. Bu shakllar asosan bayramona qoʻshiq-raqslarni tashkil etadi.

Barbarlar musiqasi asosan yetti bosqichli diatonik tovushqatordan tuzilgan. Marokash va Tunis musiqasida baʼzan pentatonika ham uchrab turadi. Bu mintaqada cholgʻu ansambli joʻrligida kuylashga eʼtibor katta boʻlgan.



Bendir

Cholgʻu ansambllarida asosan **zurna** va **tabla** (zarbli), **qasab** (naylar) va **bendir** kabi asboblari ishtirok etgan. Ayrim hollarda arab, andalus kabi bir necha oqimlardan iboratdir. Uning asosiy janri **nubadir**. **Qasida**, **muashshah**, **zajjal**, **mavval**, **taqsimlar** arab mumtoz musiqasining yorqin janrlaridan hisoblanadi¹³.

¹³ Паласин А. де Ларреа. Зирьяб из Кордовы и арабо-андалузская музыка. Традиции музыкальных культур народов Ближнего Среднего Востока и современность. – М.; Сов.композитор, 1987

Marokash va Tunis ahli **guinbri** (2-3 torli ud) cholgʻusini qoʻllaganlar. Jazoirda esa **andoz**, yaʼni bir torli kamonli cholgʻu va **ganga** – nogʻoralardan foydalanganlar.

VII asrga kelib, Shimoliy Afrikaga arablar kelgandan soʻng, bu yerda islom dini keng tarqaladi. Natijada, arab musiqiy anʼanalari, madaniyat va sanʼati keng ommalasha boshlaydi. Xalq orasida arab musiqiy janrlariga, musulmon diniga, Qurʼon oʻqish talqinlariga katta eʼtibor qaratiladi. XII-XIII asrga kelib, Magʻribda arab milliy cholgʻulari hisoblanmish **rebab, ud, qonun, nay, darabuka, rikka, tabla** kabi cholgʻular keng tarqaladi.

750-yillarda xokimiyat Umaviylardan Abbosiylar sulolasi qoʻliga oʻtadi. Umaviylar xalifalik poytaxtlari – **Makka, Madina, Damashq** va **Bagʻdod** shaharlarini tashlab, Shimoliy Afrika hududiga chekinadilar va Andalusiya (Arab Ispaniyasi, poytaxti Kurtoba-Kordova) mustaqil Xoshimiylar amirligini barpo etishadi¹⁴.

Andalusiya, va umuman, Magʻrib musiqasining asoschisi buyuk sanʼatkor, shoir va bastakor **Ziryob** (789-857, asl ismi Abul Xasan Ali bin an-Nafiy) ijodida Umaviylar davri sanʼatining uslubiy va estetik xususiyatlari oʻz ifodasini topadi. Ziryob dastlab Bogʻdodda mashhur bastakor **Ibrohim al-Mavsiliy** qoʻlida tarbiyalanadi va xonanda ud ijrochisi sifatida shuhrat qozonadi. U 822-yilda vatanini tark etib, Abdurahmon bin Hishom saroyi (Umaviylar davlati Kordova)ga keladi. Ziryob Andalusiya yetuk olim ijodkor, mohir sozanda va xonanda serqirra bilimga ega qomusiy olim sifatida shuhrat topadi. Shuningdek, Ziryob Andalusiya **nuba** shaklini ham takomillashtirib, **muashshah** turkumining asoschisi sifatida ham mashhur boʻladi¹⁵.

Ziryob Mashriq arab musiqiy anʼanalarini Magʻribda ommalashtiradi, u arab dunyosida mashhurlikka erishgan va muayyan janrlardan boʻlgan nuba, muashshahni ushbu mintaqada keng ommalashtiradi. Andalus maktabi musiqiy anʼanalari mumtoz, sharqiy

¹⁴ История стран Западного Востока Средние века. – М.; 1957. С. 152.

¹⁵ Музыкальная энциклопедия. Арабская музыка 1 т. – М.; 1973. С. 188.

O'rta asrlarga kelib, Mag'rib musiqasida o'ziga xos rivojlanish davri boshlanadi. Musiqa nazariyasiga asos solinadi va ta'lim tizimida arab musiqa nazariyasiga bo'lgan e'tibor ortadi. Maqomotning o'zlashtirilish omili bo'yicha Mag'ribda ham o'ziga xos maqom tizimi tuzib chiqiladi. Bu maqom tarkibidan butun g'arbiy arab davlatlarini o'ziga qamrab olgan Mag'rib ladlari o'rin oladi. Bular: **Mayya, Rost al-dil, Ram al-mayya, G'aribot al-Husayn** va hokazo.

Mag'rib mumtoz musiqasining yana bir xususiyatlaridan biri maqomlar tizimiga kiruvchi mumtoz musiqaning metro-ritmik asoslaridir. Mag'rib musiqasining asosini ya'ni usul (ritm) shakllari tashkil etadi. Jumladan: Marokashda – **bassit, qayn, nus**; Jazoirda – **insirof, xlos**; Tunisda – **baruelg', xafif, musaddar**larni keltirish mumkin.



Mag'ribda mumtoz musiqa bilan bir qatorda xalq musiqasi bilan bog'liq an'analar ham o'ziga xos rivojini topadi. Janrlar rang-barangligi, turli shakllar yoki musiqiy ijrochilik negizida yuzaga kelgan yangi namunalar xalq musiqasi rivojining asosini tashkil etadi.

Jumladan: Jazoirda keng ommalashgan **darbuka – tabla** jo'rligida ijro etiladigan qo'shiqlar; **Igliu** – Mavritaniyalik mavrlar, griotlar tomonidan ijro etiladigan milliy qo'shiq. Bu qo'shiq **Taar cholg'usi** ud va arfa cholg'u sozlari jo'rligida ijro etiladi. Shu bilan birga u xristian kalendar qo'shig'i ham deb yuritiladi. Marokash milliy musiqiy an'alarida esa, diniy musiqaga katta e'tibor qaratilgan.

Bundan tashqari mehnat qo'shiqlari, marosim bilan bog'liq raqslar, to'y marosim qo'shiqlari, alla kuylari kabi janrlar keng ommalashgan¹⁶.

¹⁶ Музыкальная энциклопедия. Марокканская музыка. III т. – М.; 1976. С. 451.

XIII asrdan boshlab, Magʻrib musiqasi anʻanalari ham chuqur inqiroz davrini oʻz boshidan kechiradi. Magʻrib halqlari anʻanaviy musiqasi XVIII asrdan boshlab turkiy halqlar, aniqrogʻi Turkiya musiqasi taʻsirida rivojlandi. XX asrning birinchi yarmidan Magʻrib musiqa ijodiyotida Yevropa madaniyatining taʻsiri anʻanaviy ansambl ijrochiligida skripka, violonchel, alt, klarnet, fleyta kabi sozlarning keng qoʻllanilishida oʻz ifodasini topgan.

Mavzu boʻyicha savollar:

1. Arab musiqa madaniyatining umumiy xususiyatlariga nimalar kiradi?.
2. Magʻrib (Shimoliy Afrika) musiqa madaniyati haqida tarixiy maʼlumotlar.
3. Magʻrib davlatlari ijrochilik amaliyotida qaysi cholgʻular ustivorlik qiladi?
4. Andalusiya (Arab Ispaniyasi)da arab - musulmon madaniyati va sanʼati.


Mavzu boʻyicha topshiriqlar:

1. Mavzu xususida entsiklopediyalardan materiallarni topish va tarjima qilib konspekt tayyorlash.
2. Internetdan Magʻrib mamlakatlari musikiy cholgʻularini tasvirini, musiqa namunalarini topish va taʼrifini keltirib yozish.
3. Oʻtilgan mavzu boʻyicha krossvord tuzish.

III-IV DARSLAR: JAZOIR, TUNIS VA MAROKASH MUSIQA MADANIYATI

Jazoir – Shimoliy Afrikada joylashgan Mag‘rib davlatlaridan biri. G‘arbdan Marokash va Sahroi Kabir, janubi g‘arbdan Mavritaniya, janubiy sharqdan Nigeriya, sharqdan Liviya va Tunis davlatlari bilan chegaradosh. poytaxti Jazoir shahri. Aholisi 32 mln. (2007) 1962 yilda mustaqil davlat sifatida tan olingan. Quyidagi arabcha nomlar bilan atalib kelingan: Al-Jazoir, Al-Jumhuriyatul-Jazoiriya, Al-Jumhuriyatul-Jazoiriyatul-demokratiyatul-shabiya¹⁷.

Jazoir musiqa san‘ati qadimiy hisoblanadi va hozirgi davrgacha avlodlardan avlodga an‘ana tarzida o‘tib kelmoqda. Boy musiqa san‘ati ikki yo‘nalish, ya‘ni xalq va mumtoz yo‘nalishda shakllanib rivojlanib kelgan. Folklor vokal musiqasi bir ovozlidir. Tovushqator tizimi 7 bosqichga asoslangan. O‘zining betakror metro-ritmik xususiyatlari va ko‘p obrazlilik bilan ajralib turadi. Miloddan avvalgi II asrdan boshlab, bu san‘at turi Qadimgi yunon yo‘nalishida, so‘ngra Rim va o‘rta asr xristian yo‘nalishlaridagi musiqani o‘zida sinab ko‘rgan.



Erkaklar ijrosidagi milliy raqs

¹⁷ P.Qodirov. Jahon mamlakatlari. – T.; «Yangi asr avlodi». 2009. 78-bet.

VII asrda arablar Shimoliy Afrikani ishg'ol qilgandan so'ng, ularning ta'siri beqiyos bo'ladi. X asr o'rtalarida Jazoir davlati o'zining musiqiy namunalarini milliy an'analar asosida shakllantiradi. Ular orasida o'zining mumtozligi va mukammalligi bilan ajralib turadigan janr **nubadir**¹⁸. Ushbu janr tarkibida muayyan qo'shiqlar, cholg'u kuylari, yakka, xor va cholg'u ijrosi uchun namunalar jamlangan syuitasimon turkumni ko'rish mumkin. Nubalar ladlar bo'yicha ajratiladi. Jazoirning qadimdan mashhur nubalaridan – **sika**, **mazmum**, **mual**, **ramellar** yakka va xor-jamoa bo'lib ijro etilib kelingan. Nubalarning aksariyati mukammal va murakkab ko'rinishga ega bo'lib, ijrochidan katta mahorat va bilim talab etadi. Jazoirning o'ziga xos milliy cholg'ulari mavjud. Ularda ko'proq ansambl yoki orkestr bo'lib ijro etish rasm bo'lgan. Milliy cholg'u asboblari - **rebab** (kamonli), **ud** (torli chertma), **qonun** (torli tirnama), **gosba** (nay), **tabell** (nog'ora), **deff** (doira).

XX asrga kelib, an'anaviy mumtoz va milliy janrlarning bir-biriga yaqinlashuvi, uyg'unlashuvi natijasida yangi ko'rinishdagi "Al-Jod" (engil musiqa) janri yuzaga keladi. Bu janrning asoschisi mohir musiqachi Muhammad al-Ankadir.

Jazoir nubalari – Mag'rib arab xalqlari og'zaki an'anadagi musiqasining markaziy va "Oliy uslub"dagi janri (arab lahjasida) "navba" deb ataladi. Tarixiy kelib chiqishi jihatidan nuba (o'zbekcha "navbat")¹⁹¹, IX-X asrlar Abbosiylar shahar madaniyati bilan bog'liq bo'lib, saroy mashshoqlari o'zaro almashinuvi hamda ijro etilayotgan aytim-cholg'u turkumlarini anglatadi²⁰.



Tuzilishi jihatidan bugungi Jazoir nubalari ko'p qismli syuita ko'rinishidagi turkum asardir. Odatda, Jazoir nubalari

1.; 1973. С. 103.

мом. ЎзДК. Кутубхонаси. – Т.; 1976 (диплом иши).

башир Ладж Али. Алжирская музыка сегодня. музыка народов Азии и Африки, Вып. 2 – М.;1973. С. 408.

katta (makro) va kichik (mikro) turkumlarga bo‘linadi. Zamonaviy Mag‘rib nuba amaliyotida mavjud uchta mahalliy yo‘nalish – poytaxt **Jazoir**, **Konstantin**, va **Tlemsen** uslublari turkumlash jihatidan ancha farqlanadi. Shunga qaramasdan, Jazoir milliy musiqasida mavjud 12 nuba nomlarini (makroturkumni) keltirish lozim:

- | | |
|---------------------|-----------------------|
| 1. Dil. | 2. Mjanba (Mujannab). |
| 3. Xsin (Xusayniy). | 4. Ramal. |
| 5 Ramal-mayya. | 6. G‘rib (G‘arib). |
| 7. Zidan. | 8. Sika. (Segoh) |
| 9. Rasd. (Rost) | 10. Mazmum |
| 11. Rasd-dil | 12. Mayya |

Tlemsen mahalliy uslubida ko‘proq 16 ta nubalar mavjud:

- | | |
|---------------------|-----------------------|
| 1. Dil. | 2. Mjanba (Mujannab). |
| 3. Xsin (Xusayniy). | 4. Ramal. |
| 5 Ramal-mayya | 6. G‘rib (G‘arib). |
| 7. Zidan. | 8. Sika. (Segoh) |
| 9. Rasd. (Rost) | 10. Mazmum |
| 11. Rasd-dil | 12. Mayya |
| 13. Iraq (Iroq) | 14. Charka (CHorgoh) |
| 15. Mavval | 16. Gribat al-Xsin |

Har bir nuba o‘z navbatida 12 qismdan iborat kichik turkum (mikroturkum)ni tashkil etadi:


1. Davri. 2. Mchaliya. 3. Mastaxbar (Taushiya). 4. Msaddar. 5. Btayxi. 6. Darj.
 7. Taushiya (Insirafat). 8. Insiraf. 9. Xlas. 10. Taushiya al-kamal.
 11. Naklab. 12. Barval.

Mazkur nubalarning 12 qismli kichik turkumi umumiy tizim bo‘lib, muayyan ijroda, mahalliy uslubda ushbu tarkib o‘zgarib turadi. Odatda, 7-8 qismli turkum ijro etiladi.

Msaddar – aytim, cholg‘u qismi. Rondo shaklidagi ikki bo‘lim – cholg‘u va aytim yo‘lining o‘zaro almashuviga asoslanadi. Cholg‘u yo‘lining kuy jumalari badiha, ya’ni im’rovizatsion ravishda

rivojlanadi. Uzluksiz ravishda markaziy avj qismiga ulanib ketadi. Rajva deb ataluvchi furovard bo‘limi msaddar yo‘lining mantiqiy yakunidir. Shunday qilib, msaddar 5 qismdan iborat bo‘lib, naqorat va rondo ko‘rinishiga ega bo‘ladi.

Nubalarning ikkinchi qismi – **btayxi** deb nomlanadi. Bunda aytim va cholg‘u yo‘li yangi, yengil va nafis kuylarga asoslangan bo‘lib, birinchi qismdagi (msaddar) shakllanish uslublari (rondo – naqarot) saqlanib qoladi. 4/4 o‘lchovda bo‘ladi.



Darj – msaddar va btayxi kuylariga asoslangan aytim, cholg‘u bo‘limi bo‘lib, o‘zining raqs xarakteridagi yangi 3/4 yoki 3/8 o‘lchamdagi usullar asosida ijro etiladi.

Insirof – cholg‘u aytim qismi taushiya cholg‘u muqaddimasidan

boshlanadi. Raqs xarakteridagi ushbu qismning aytim, yakkaxonlik va cholgʻu boʻlimlari murakkab oʻlchamdagi 3/8, 5/8, 10/8 oʻlchovdagi usullarga asoslanadi.

Xlas – butun turkumga mazmuniy tugallik bagʻishlaydi va tez surʼatdagi, yengil xarakterdagi xalq bayramlarini eslatuvchi ohanglarga asoslanib, 6/8 oʻlchamidagi raqs usuliga tayanadi. Xlas – nuba turkumining mavzuiy, dinamik va hissiy-emotsional choʻqqisidir. Bunda yakkaxon va cholgʻu ansambli oʻzaro almashinib kelsa-da, yetakchi xonandalar guruhi asosiy vazifani bajaradi.

Bundan tashqari, nuba turkumi yordamchi boʻlimlarga ham ega. Davra deb nomlanuvchi muqaddima qismi ikki katta boʻlimdan tashkil topgan: **mchaliya** – badiha uslubidagi cholgʻu va **istixbor** – aytim-cholgʻu boʻlimlari va ularni bogʻlab turuvchi oraliq cholgʻu boʻlimi – **taushiyadan** iborat.

Jazoir nubalarining lad-tuzuk asoslari XX-asrning 30-yillari mashhur nazariyotchi va sanʼatkori Salohiddin Muhammad al-Mahdiy tomonidan isloh etilib, bugun barcha Magʻrib mamlakatlarida qabul qilingan umumiy maqom (lad) tizimi sifatida eʼtirof qilinadi.

TUNIS MUSIQA MADANIYATI

Afrika Shimoli – Magʻrib musiqasi davlatlari orasida Tunis musiqa sanʼati oʻziga xos oʻrinni egallab turadi. Rasmiy nomi – Tunis Respublikasi. poytaxti Tunis. Aholisi – 9700000 kishi. Davlat tili – arab. Dini – islom²¹.

Tunisga arablarning kirib kelishi va Umaviylar xalifaligiga qoʻshilishi uni musulmonlar tsivilizatsiyasining markazi bilan bogʻladi. Bu davr *“badaviy davri”* deb atalib, diniy xarakterdagi qoʻshiqlar bilan bogʻliq boʻlgan.

Bu davrda musiqa va sheʼriyat ajralmas tarzda shakllanib,

²¹ П.Қодиров. Жаҳон мамлакатлари. – Т.; «Янги аср авлоди». 2009. 78-б.

qo‘shiq san‘atida o‘z ifodasini to‘di. Qo‘shiqlar mehnat jarayoni, diniy marosimlar va turli urf-odatlarida hamisha aytilgan. Arab davlatlarida VII asr (647 yil)da islomning tarqalishi, musiqa san‘ati rivojlanishiga to‘sqinlik qilardi. Musiqachilar turli cheklashlarni yengib o‘tishlariga to‘g‘ri kelgan. Andalus musiqa maktabining an‘analari Mag‘rib musiqa madaniyati davlatlari uchun alohida o‘rin tutgan. VII asrning oxirida ‘ereneya yarim oroli janubida Andalus an‘analari rivojlanib, Andalusiya odamlar butun Mag‘rib (Afrika shimoli)ga tarqala boshladi. Shoir, qo‘shiqchi, bastakor va musiqa nazariyotchisi Abul Xasan Ali ibn Nafi (789-857, Ziryob taxallusi ostida ko‘proq taniqli bo‘lgan), Andalusiya maktabining shakllanishiga o‘z hissasini qo‘shdi²².



Tunis musiqa san‘ati greklar, finikiyaliklar, turklar va boshqa xalqlar madaniyati ta‘sirida shakllangan. Uning ta‘siri geografik joylashuv va tarixiy rivojlanish jarayoni bilan bog‘liq. Tunis musiqasida ishlatiladigan tovushqatorlarning kelib chiqishi ham turli

²² Музыкальная энциклопедия. Тунисская музыка. V т. – М.; 1981. С. 634.

xil. Shunday qilib, finikiyaliklardan **xusayni**, forslardan **siqa**, arab **rost**ining varianti tarzida **rostdil**, Yevropa major va minoriga o'xshash **mazmum** va **mxayr sikalar** qaror to'di. Bular mazkur xalqlar madaniyatidan kelib chiqan.

Tunis mumtoz musiqasi, Mag'ribning boshqa davlatlari turkum kom'ozitsiya (nuba)lari bilan birgalikda ijro etilib, vokal va cholg'u qismlarini o'zida mujassam etgan (ularning ba'zilar raqslar bilan ijro etilgan). Vokal qismlarida klassik arab she'riyati ishlatilib, u yakka ijrochi va bir ovozlik xor bilan kuylangan. Turli Mag'rib davlatlarida bir lad ishlatiladigan nubalarning tuzilishi turli xilda rivojlangan va ularning butun turkumi bir necha bo'limdan tashkil topgan. Kirish qismi yakkaxon ijrochi yoki cholg'u ansambli tomonidan ijro etilgan. U o'zida maqomning xarakterli tomonlarini mujassam etgan.

So'ngra, **msaddar** – cholg'u qismi va bir nechta vokal bo'limlar – **ab'yat, btaayxi, baruelg', taushiyya, darj, insiraflar** yangraydi. Ular katta bo'lmagan cholg'u (interlyud) **dxoulg'**lar bilan o'rin almashadi. Klassik Tunis musiqasida 24 nubalar bo'lib, hozirda 13 nuba saqlanib qolgan.

Mag'rib musiqasi erkin tarzda shakllanib rivojlangan. Ko'pgina namunalari Ziryob qo'shiqlari singari qabul qilinardi. Amaliyotda **qasidalar** bilan birgalikda yangi she'riy va musiqiy shakllar rivojlana boshladi. Odatda, qasidada musiqa doimo qaytarilsa, muashshahda u ko'pgina variatsiyalar bilan rivojlangan. Muashshah saroy shoirlari orasida taniqli bo'lgan. Arab va ispan tili qo'shilmasidan iborat bo'lgan yana bir namuna, ya'ni **zajjal** diniy kuylari shoir, maddohlar tomonidan kuylangan, uning yaratilishi va tarqalishiga Ibn Kuzman (XII asr) sababchi bo'lgan. Zajjal SHarqqa va hatto Eron musiqa madaniyatiga kirib, juda mashhur bo'lib ketgan. Ispaniya Marg'ib musiqasiga katta qiziqish bilan qarab, unga Marokash, Jazoir, Tunisdan musiqachilar taklif qilingan. SHu davrda Mag'ribda **lyutnya** (ud) ning 4 torli, ladli va ladsiz turi; **rebab** (rebek – kamonchali cholg'u); **qonun** (72 torli arfa guslisimon chertma cholg'u);

damlilardan ***kasba*** (uzun nay), ***zorna yoki zukra*** (surnay-goboy); urmalardan ***tar*** (dumaloq buben), ***bendir, daf*** (buben), ***darbuk barabani, qo'shma tabla barabanlari*** va hokazo cholg'ular amaliyotda qo'llanilgan²³.

Jazoir va Marokashga qaraganda Tunis musiqasi ko'proq arab sharqining davlatlari bilan bog'liq bo'lgan. Asosiy shakllari: Qur'onning (Muhammad 'ayg'ambar(s.a.v.)ning hayoti bilan bog'liq) suralarini ijro etish, azon aytish (Shimoliy Afrikada azon kuyi aniq bir ladga tayanmagan holda) bo'lgan. San'at va madaniy aloqalarning rivojlanishi X asrning boshlarida birinchi musiqa maktabining ochilishiga sabab bo'ldi. Maktabning ochilishiga aloqador inson ***Maq'una*** ustoz ***Munis al-Bag'dodiy*** bo'lgan. Bir asrdan kamroq vaqt o'tgach, qo'shiqchi, musiqachi va yirik olim ***Abu Salt Oteyya*** avval Mahdiya, so'ngra 'alermoda yashab, o'zi bilan ko'pgina bastakorlarning yangi yozilgan asarlarini boshqa yurtlardan olib keladi.

Eng ko'p tarqalgan usul shakllaridan ***ab'et, btayxi, baruelg', taushiya, zardon, xafifi va xatm*** bo'lgan. Nubalarni aytish an'analari shunday bo'lgan: musiqachi gilamda cholg'u bilan o'tirib kuylagan, raqqoslar bir tekisda tizilib, Alloh nomini aytib, asta raqsga tushgan. Qo'shiq sur'ati (***hamari*** usulida) tezlashganda raqqoslar raqsining ko'rinishi o'zgargan.

XV asrda diniy musiqada "Arussiya" deb nomlangan yo'nalishlardan biri Sidiy ben Aruss tomonidan yaratildi. Bunda Aruss o'zining ijrochilik uslubini shakllantirdi. Bundan tashqari, "Isaiiya"(XIV asrda Siddiy Muhammad Iso tomonidan yaratilgan yo'nalishda esa marosimlar ikkiga bo'linadi:

- 1) Qo'shiq va raqs;
- 2) Musiqa jo'rligidagi o'yinlar.

1574 yilda Tunis Usmonlilar imperiyasining bir qismiga aylandi.

²³ Музыкальная энциклопедия. Тунисская музыка. V т. – М.; 1981. С. 635.

Shu davrdan boshlab turk (harbiy) musiqasi Tunis musiqasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

1591-1881 yillar oralig'ida Murodiylar va Xusayniylar sulolasining boy-zodagonlari Tunisni boshqargan. 1881 yilga kelib, mazkur davlat Fransiya mustamlakasiga aylandi. 1956 yilda Tunisning mustaqillikka erishishi bilan "Rashidiya" tashkiloti orkestri Milliy radio jamoasining birlashmasiga kirdi. Tunis musiqasiga musiqachi **Xmais Ternan** (1894-1964) o'z ta'sirini ko'rsatdi. U Bizut shahrida mumtoz musiqa ansamblini tuzdi.

Tunis milliy guruhi taniqli musiqa jamoalaridan biri bo'lib, uning tarkibida taniqli ijrochilardan: **Ali Sriti** (ud), **Husayn Korbi** (qonun), **Xatoun** (zurna), **Muhammad Abdulloh** (mezded); qo'shiqchilardan: **Shri Adjej**, **Xmayes**, **Je'au**, **Budin**, **Solih**, **Zoxra Fayz**, **Munir Chikauti**, **Fathiya Kuoiri**, **Muniya Hujanj** va b.

Milliy musiqashunoslik maktablarining rivojlanishiga **Saloh al-Mahdi**, **Sodiq al-Baruniy**, **Xamodi Ben Osmaka**, **Muhammad al-Habib** va **Fotix Zundiylar** o'z hissasini qo'shdi. Bu borada Madaniyat va xabarlar bo'yicha kotibiyatning ishi katta ahamiyatga egadir. Uning ishi bir nechta kongresslar uyushtirib, unga Tunisning eng mahoratli musiqachilarini taklif qilishdan iborat bo'lgan. Musiqachilarning ko'plari nubalarning yozilishida ishtirok etishdi va ularning ayrimlari nashrdan chiqdi. Keyinroq, muashshah, zajjal uslubida ko'pgina asarlar yozilib, ularning lad va usulga bag'ishlangan anjumanlar bo'lib o'tdi.

Mamlakatning teatr hayotiga Suriyalik aktyor **Ahmad Abu Xalil al-Kabboniy** va Misrlik aktyor **Salom Xigaziylarning** ta'siri kuchli bo'lgan. (1919 yilda) Tunisga kelgan qo'shiqchi **Muhammad Azeddin** esa o'zining teatr repertuarini tuzadi. Teatr repertuari musiqa bilan 'g'esalardan iborat bo'lgan). 1920 yilda Tunisda arab operettasi paydo bo'ladi. Xonanda **Xiari** va boshqalar taniqli bo'ladi. Ko'plab guruhlar shakllanadi.



XX asr 60-yillarining boshida Tunisda konservatoriya quriladi va mazkur dargohda musiqa va raqs san'ati o'rgatiladi. Arab musiqasi madaniyatining ko'zga ko'rinadigan mutaxassisi (kompozitor), xalq cholg'ulari ijrochisi, (keyinchalik milliy musiqa komitetining prezidenti) **Salloh al- Mahdi** konservatoriyada an'anaviy musiqa ilmidan saboq beradi. Bu yerda, milliy musiqa bilan uzviy ravishda Yevropa san'ati an'analari ham o'rgatiladi.

Deyarli har bir maktab va kolleжда milliy musiqa tashkilotlari

mavjud edi. 1962-1965 yillarda kompozitor va dirijyor **Enis Fuleyxon** rahbarligida simfonik orkestr tuziladi. Ushbu jamoa hozirda ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

MAROKASH MUSIQA MADANIYATI

Marokash – Afrika shimoliy-g'arbida joylashgan davlat. Marokash podshohligi avvallari al-Mamlakat al-Mag'ribiya, Mag'rib Qirolligi yoki al-Mag'rib al-Aksa (ma'nosi – uzoq G'arb) kabi nomlar bilan atalib kelgan. poytaxti Rabot shahri. Aholisi 30 mln. (2007) Uning asosiy qismini marokashlik arablar va barbarlar tashkil qiladi. Bundan tashqari, frantsuz, ispan, portugal, va yahudiylar ham yashaydi. Rasmiy tili – arab tili²⁴.

²⁴ Қодиров П. Жаҳон мамлакатлари. – Т.; 2009. 51-6.



Marokash musiqasi barbar va arab madaniyatlarining o‘zaro ta’sirida rivojlangan. Asl barbar musiqa san’ati namunalari Marokash qishloqlaridagina saqlanib qolgan. Musiqa she’riyat va raqs bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, sinkretik janrlarni yuzaga keltiradi. Qo‘shiq bilan ijro etiladigan ommaviy raqslar keng tarqalgan²⁵. Marokash musiqa san’ati yo‘nalishlari ikkiga

bo‘lingan. Ya’ni: shimoliy-sharqida yashaydigan barbarlarda **axidu** va janubiy-g‘arbda yashaydigan barbarlarda **axuax** musiqiy uslublari shakllangan. Axidu kuylari ixcham diapazonli, xromatizmga boy bo‘lib, besh hissali usullar ko‘p qo‘llaniladi. Axuax kuylari esa yevropacha an’analarga yaqin. Diapazon jihatidan unchalik keng bo‘lmagan, 1 yoki 1,5 oktavaga ega. Asosan ikki hissali o‘lchovlar ko‘proq qo‘llaniladi.

Barbarlarning musiqiy asboblari: **kasba va uning turlari** (**kasba ustiya**, **kasba xamasiya** – **diatonik**; **kasba ashariya** – **xromatik**) **arxanim va zamr** (svirelg‘-sibizg‘a), **bendir** (tamburin), **tarija** (loydan yasalgan qadimiy buben), **uch torli gunbri** (mandolina), **rebab** (skripkasimon cholg‘u) va boshqalardan iborat. Torli cholg‘u-asboblardan **ud**, **lira**, **rubob**, **mizmor** va boshqalar ham keng **Rebab cholg‘usi** tarqalgan.

²⁵ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Том 5. – Т.: 2003. 484-488-б.



Gunbri cholg'usi

Professional (4 kishilik) musiqachilar ansambli (imdyazn) shoir-baxshi boshchiligida turli badihaviy dostonlarni rebab va urma-zarbli cholg'ular, hamda qo'sh (ikki) nay jo'rligida ijro etishgan. Arab musiqa san'ati ikki turli bo'lib, arab mumtoz (***alo' va samo'***) va xalq (***grix***) kuylarini o'z ichiga oladi. Alo' va samo' kuylari ba'zan bir-biriga yaqin bo'lsa ham, matnda ular keskin farq qiladi.

Alo' – zodagonlar madaniyatiga xos bo'lib, klassik arab she'riyati uning asosini tashkil qiladi. **Samo'** – diniy mazmundagi madhiya, mavlud, qasidalar bo'lib, u sof vokal, san'atdir. Marokash musiqasiga asosiy beshta uul mansubdir. Bular, bayt, qaym-u-nuss, btayhi, koddam, derdj.

Marokash xalq musiqa ijodiyotida diniy musiqalardan – dikr (zikr) alohida keng tarqalgan. Har bir diniy jamoa o'zining maxsus zikr ijrochilik an'analariga egadir.

VIII asrda Marokashni bosib olgan arablar bu yerga islom dini va madaniyatlarini olib kirdilar. Shundan so'ng ispan arablari va marokash milliy madaniyati o'zaro uyg'unlashdi. Marokashda arab musiqasi asosan cholg'u janrlari orqali rivojlandi.

Cholg'u jo'rligisiz ijro etiladigan, erkin badihaviy uslubga asoslangan qo'shiqlar ***tamovayt*** yoki ***tasheraft***dir (asosan to'y

marosimlarida ijro etiladi)²⁶.

1956 yilda Marokash mustaqillikka erishgandan so'ng uning poytaxti Rabotda Milliy teatr va uning ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Bu yerda tahsil ko'rgan yoshlar faqat milliy (arab) teatr, rejissyorlik, aktyorlik va sahna san'atlarini o'rganibgina qolmay, Yevropa (Parij) klassik va zamonaviy teatr asarlarini qayta ishlab, yangicha talqinda arab va frantsuz tillarida sahnalashtiradilar. Bundan tashqari, Meknes, Tanjer va Kasablanka shaharlarida konservatoriyalar, milliy musiqa va raqs maktablari (Tatuanda) ham ochilgan. 1960 yildan boshlab Marokashda musiqiy folklor festivallari muntazam o'tkazilib kelinmoqda²⁷.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Jazoir, Marokash va Tunis musiqa madaniyati xususida aytib bering.
2. Mag'rib musiqa folklori: oilaviy marosim qo'shiqlari, diniy musiqa janrlari, badaviy arab musiqa folklori, kasbiy – aytim janrlari xaqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
3. Tunis ma'lufi va uning turkumlari, Nuba va ma'luf turkumi haqida qanday tarixiy ma'lumotlarni bilasiz?
4. Mag'rib an'anaviy musiqalarining tarkibiy qismlari va ijroi an'analarini aytib bering.

Mavzu bo'yicha topshiriqlar:

1. Jazoir, Marokash va Tunis musiqa madaniyati xususida materiallar tayyorlash.
2. Mag'rib musiqa folg'klori va ularning janrlari.

²⁶ Музыкальная энциклопедия. Марокканская музыка III т. – М.; 1976. 451б.

²⁷ Шу манба, 453-б.

3. Tunis ma'lufi va uning turkumlari, Nuba va ma'luf turkumlarini tarkibiy qismlari.
4. Mag'rib an'anaviy musiqalarining tarkibiy qismlari va ijroi an'analari.
5. Mavzu xususida entsiklopediyalardan materiallarni topish, konspekt tayyorlash.
6. Mavzu xususida Internetdan materiallar to'ish va ta'rifini keltirib yozish.
7. O'tilgan mavzu bo'yicha krossvord tuzish.

V-VI DARSLAR: ARAB MUSIQASI MASHRIQ. MISR (UMMU KULSUM) SUDAN MUSIQASI

MASHRIQ MUSIQA MADANIYATI



Arab Mashriq mamlakatlariga Arabiston yarim oroli (20 dan ortiq arab davlatlarini o'z ichiga oladi: Bahrayn qirolligi, Birlashgan Arab amirligi, Iordaniya Xoshimiylar qirolligi, Iroq, Livan, Misr, Suriya va Yaman Arab Respubliklari; Qatar, Quvayt, Falastin davlatlari; Saudiya Arabistoni qirolligi va boshqalar) va unga yaqin mintaqalarda joylashgan tili, madaniyati, xususan musiqa madaniyati bilan o'zaro yaqin bo'lgan mamlakatlar tushuniladi. Mazkur mamlakatlar musiqasida O'rta Osiyo va Eron xalqlari musiqasining ta'siri sezilarli bo'lgan. Abul-Faraj al-Isfahoniyni (897-967) "Qo'shiqlar kitobi" atalmish mahobatli asarida islomdan oldingi arab

musiqasiga qadimgi O'rta Osiyo va Eron xalqlari musiqasining ta'siri haqida dalillangan ma'lumotlar mavjud²⁸.

Shu munosabat bilan arab hofizi va shoiri Abdu-r-Rahmon Atradning Valid ibn Yazidga (vafoti 748 yil) aytgan quyidagi gaplari e'tiborlidir: "Butun musiqa bizga Ajamdan kelgan, biz arablar esa unga arab she'rlarini qo'yganmiz xolos."

Hozirgi kun Arab Mashriq mamlakatlari musiqasida mushtaraklik anchaginadir. Masalan, cholg'ular, ularning sozlanishi, atalishi, ritm, ohang, an'anaviy musiqaga munosabat, musiqiy shakl va boshqalar. Ta'kidlash lozimki, Islomning Shi'a mazhabi va Sunnaning Xanbaliya oqimi hukmronlik qilgan mamlakatlarda musiqaning rivoji sust bo'lgan. Misr, Suriya, Livan kabi davlatlarda musiqa ildamlab ketgan. Lekin, o'zga Mashriq mamlakatlarida ham musiqaga e'tibor kuchaymoqda. Jumladan, Quvaytda 1972 yildan Musiqa o'quv yurti (bitiruvchilar o'rta musiqiy ma'lumot haqida diplom oladi) va Musiqa san'ati instituti (bitiruvchilar musiqada bakalavr diplomini oladi) tashkil etildi.

Arab Mashriq mamlakatlari hozirgi kunda shunday nomlanadi: Bahrayn Qirolligi, Birlashgan Arab Amirliklari Davlati, Iordaniya Hoshimiylar Qirolligi, Iroq Respublikasi, Qatar Davlati, Quvayt Davlati, Livan Respublikasi, Misr Arab Respublikasi, Oman Sultonligi, Saudiya Arabistoni Qirolligi, Suriya Arab Respublikasi, Falastin (Muxtoriyati) davlati, Yaman Respublikasi.

MISR MUSIQA MADANIYATI

Misr Arab Respublikasi – Afrikaning shimoliy-sharqiy va qisman Osiyo qismi (Sinay yarim oroli)da joylashgan davlat, poytaxti Qohira shahri. Maydoni 1001 mln kv.km. Aholisi 75 mln kishidan ortiq, yevro'oid irqiga mansub. Ma'muriy jihatdan 27

²⁸ Орипов З. Шарқ муסיкий манбашунослиги (X-XI асрлар). – Т.; 2008. 18-б.

muhofaza(viloyat)ga bo‘linadi. Arablar, nubiylar, barbarlar Misrning tub aholisi bo‘lib, qadimiy misrliklarning avlodlaridir. Shuningdek, greklar, armanlar, italg‘yanlar, inglizlar va frantsuzlar ham istiqomat qiladilar. Rasmiy tili – arab tili. Deyarli butun aholi shu tilda so‘zlashadi²⁹.

Eng yirik shaharlari: Qohira, Iskandariya, port-Said, Ismoilniya, Tanta, Suvaysh, Al-Mansuriya, Damanhur, Al-mahallat-ul-Kubro. Qo‘shni davlatlar Falastin, Iordaniya, Qizil dengiz orqali Saudiya Arabistoni, Sudan, Liviya, Qizil dengiz, O‘rta Yer dengizlari bilan o‘ralgan.




Misr davlati Afrika qit‘asida joylashgan bo‘lsa-da, uning madaniyati, musiqa san‘ati ko‘proq Arab davlatlari san‘ati bilan uzviy bog‘langan.

Butun arab mamlakatlari orasida faqat O‘rta Yer dengizi davlatlarining ko‘hna tarixi izchil o‘rganib chiqilgan. Eng qadimgi ma‘lumotlar ko‘hna Misr davlatining tuzilishi haqidadir. Shu zaminda to‘pilgan arxeologik ashyolar: haykaltaroshlik namunalari, devoriy sur‘atlar, qolaversa, uy-ro‘zg‘or, sopol buyumlar, musiqiy cholg‘ular va ularga oid bir qator tasvirlar bu

yerda juda qadimdan tsivilizatsiyaning qaror topganligi, musiqa madaniyatining yuksak darajada taraqqiy etganligidan dalolat beradi³⁰.

²⁹ Кодиров П. Жаҳон мамлакатлари. – Т.; 2009. 53-б.

³⁰ Музыкальная энциклопедия. Египетская музыка II т. – М.; 1974. С. 365.



Qadimgi Misr ayol sozandalari

Koʻhna Misr musiqasi ikki koʻrinishda boʻlgan: biri zodagonlarning sanʼati, ikkinchisi esa oddiy xalqning musiqiy sanʼati. Garchi koʻhna Misrda notalar hali qogʻozga tushirilmagan boʻlsa-da, shunga qaramay, oddiy xalq oʻrtasida musiqa keng tarqalganini ishonch bilan aytish mumkin. Soʻzimizga dalil sifatida esa qullarning bizgacha yetib kelgan kuy va qoʻshiqlarini aytib oʻtish joizdir. Bu kuy-qoʻshiqlarda qullarning ogʻir va mashaqqatli mehnati, oʻymol etilgan erki va ozodlikka intilishi kabi ohanglar oʻz aksini topgan. Albatta, bir koʻrinishda sodda va oddiy boʻlgan qoʻshiqlar zahirida achchiq kinoya va alam bor. Musiqa bilan yoʻgʻrilgan lirik sheʼriyat koʻhna Misrning xalq milliy sanʼatiga xos narsadir. Bunda ishq-muhabbat, xalq donishmandligi, husnkor tabiatning goʻzal manzaralari kabi mavzular oʻz aksini topgan.

Saroy va diniy musiqa sanʼati. Xalq musiqa sanʼati bilan barobar saroy hamda diniy musiqa ham rivojlanib boradi. Tantanavor va nufuzli saroy hamda diniy musiqaga saroy va ibodatxonalarning serviqor va mahobatli koʻrinishi, unda hukmron boʻlgan ruh, oʻziga xos kibor, ulugʻvor meʼmorchilik sanʼati ham goʻyo oʻz aksini topgandek edi.

Hozirgi davrgacha yetib kelgan musiqa madaniyatining eng

qadimiy yodgorliklari 3 mingyillikka mansubdir. Bular turli musiqa asboblari – **shiqildoq, tartarak**, hamda chig‘anoqlardan yasalgan xushtaklardir. Maqbaralar devorlariga ishlangan rasmlar maishiy turmushda musiqa keng tarqalganiga guvohlik beradi. Ommaviy bayramlar, diniy marosimlar, mehnat jarayonlari ham musiqasiz o‘tmagan. Misrda bir ovozli musiqa rivoj topgan. Yangi podsholik davrida ko‘p ovozli musiqaning sodda shakllari ham paydo bo‘lgan.

Raqslar, sahna tomoshalari badiiy adabiyot musiqa asboblari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. **Arfa, nay, yog‘och va jez karnay, organ**, urma musiqa asboblari keng tarqalgan. Qadimgi Misrda professional musiqa ijrochilari – shoirlar mo‘tabar zot sanalib, fir‘avnlarga qarindosh deb hisoblangan. Hatto Rim davrida ham Misrda musiqa o‘ziga xosligini saqlab qolgan. Rim hukmronligi barham topgach, turk, arab va boshqa xalqlar musiqa madaniyati taraqqiyoti yangi bosqichiga ko‘tarilgan.

Saroy raqslari vazmin va tantanovor ruhda ijro etilib, ijtimoiy o‘zgarishlar ta’sirida esa raqslarda allaqanday yengillik va jo‘shqinlik paydo bo‘la boshladi. Bir paytlar ma’lum qonun-qoidalariga bo‘ysunib, siquvda, tor doirada bo‘lgan musiqa madaniyatida endi erkinlik paydo bo‘lib, his-tuyg‘ular jo‘sh ura boshladi. Tabiatan kiborlarga vazminlik xos, oddiy xalq esa o‘z xis-tuyg‘ularini yashirmay, ochiq-oydin oshkor etadi. Xuddi shu narsa ham musiqada o‘z aksini to‘a boshladi. Va aynan shu davrga kelib, **ud, qo‘shnay, fleyta, klarnet, nay, argul zarbli** cholg‘ular paydo bo‘ldi.

Quldorlik tuzumini qo‘llab-quvvatlagan ko‘hna Misr dinining ijtimoiy tengsizlik va zulm, shuningdek, fir‘avnlarning mutlaq hokimligini targ‘ib qilishi monumental san’atining paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan. Fir‘avnlarning sharafiga bunyod etilgan ehromlarni esa monumental san’atining eng yorqin namunasi deb aytish mumkin³¹.

Xalq musiqasi. Oddiy xalq hamda zodagonlar musiqa

³¹ Мирхайдарова З.М. Жахон халқлари музыка санъатининг ривожланиш жараёни. – Т.; 2009. 42-б.

madaniyati bir-biri bilan uyg'un rivojlangan degan fikrda oz bo'lsa-da mushohada mavjud. Zero, oddiy xalq madaniyatida sinfiy kurash g'oyasi yetakchilik qilardi. Ijtimoiy hayotdagi keskin burilishlar ko'hna Misr musiqiy hayotida va madaniyatida ham o'z aksini to'di. Avvallari faqat hukumron sinflarga xizmat qilgan xonanda va musiqiy asboblari endilikda oddiy xalqning mulkiga aylandi. Hatto bir faylasuf bu haqda shunday degan edi: "Kecha lira nimaligi bilmagan omi (savodsiz) odam bugun Mert ma'budasini sharaflab, qo'shiq kuylamoqda".

Xalq musiqasining asosiy xususiyatlari professional musiqiy an'analariga ham xos. An'anaviy musiqa turli xil vokal va cholg'u shakllarga bo'linib, ular yordamida murakkab, boy bezakli badihalar va tugallangan pyesalar quriladi. Cholg'u shakllardan: **takasim**, **dulab**, **bashraf**, **texmila** va boshqalar juda keng tarqalgan. Muashshah, dor, bayyati, sebo va qasidalar ham shular jumlasidandir.

Bir paytlar ommaviy musiqiy asbob sifatida faqat liradan foydalanilgan. Arfaning go'zal kuyini faqat zodagonlar eshitishi mumkin bo'lgan. Shuningdek, saroy va ibodatxonalarda malakali sozandayu xonandalar xizmat qilgan³².

Ko'hna Sharqning barcha tsivilizatsiyalari kabi Qadimgi Misrda ham she'riyat, musiqa va raqs bir-biri bilan chambarchas edi. Ko'hna Misr dramalarining kelib chiqishi O'rta davr hukumronligi 'ayitiga borib taqaladi. Ular quyosh ma'budi Osiris sharafiga o'tkazilgan udumlar asnosida paydo bo'lib, ushbu marosimning ildizlarini ibtidoiy jamoa tuzumidan qidirish kerak³³.

O'sha davrning o'ziga xos jihatlaridan biri shu bo'ldiki, avvallari xalq mulki deb hisoblangan misteriyalar endi faqat hukumron sinfi uchun xizmat qila boshladi. Shu bois musiqa rivojlanishida ham ma'lum o'zgarishlar yuz bergani ta'biy bir holdir. O'rta davr hukmronlik paytida saroylarga kirib kelgan ayrim cholg'u asboblari

³² Музыкальная энциклопедия. Египетская музыка II т. – М.; 1974. С. 368.

³³ Еолян И. Традиционная музыка арабского Востока. – М.; 1990.

bu yerlardan badarg'a qilindi. Oxir-oqibat ilgari urf bo'lgan vazniy va tantanovor musiqa yana o'z mavqeini tikladi. Buning natijasida musiqani ikkiga: ya'ni "yaxshi" va "bemaza" musiqaga ajratish holati vujudga keldi. Qizig'i shundaki, "bemaza" musiqa deganda aynan eng yaxshi, mavzundor qo'shiqlar nazarda tutilgandir.

Yangi davrda hukmronlik qilgan o'gitlarda musiqa va raqsdan saboq olish eng tuban illatlarga teng deb hisoblanib, qoralanadi.

Vaqt o'tgan sayin yangi davr musiqasi xalqona kuy-qo'shiqlarga xos bo'lgan-samimiylik, jo'shqinlik, tabiiylik va ta'sirchanlikdan yiroqlashib, faqat zodagonlar manfaati uchun xizmat qiladigan hissiz va nursiz buyumga aylangandek edi go'yo... Shu tariqa musiqa garchi mavjud bo'lsada, lekin shakli boru mazmuni yo'q, so'zlar boru mohiyati yo'q, yurak boru his-tuyg'usi yo'q jonsiz narsaga aylandi...

Cheksiz davom etgan harbiy yurishlar tufayli harbiy musiqa ravnaq to'di. Faqat musiqaning shu janrigina yangi davr hukmronligi paytida u rivojlanish va keng ommaga yoyilish imkoniga ega bo'ldi. Uzluksiz harbiy yurishlar hamda savdo-sotiqning yo'lga qo'yilishi natijasida Uzoq va Yaqin davlatlar – Suriya, Finikiya, Yaqin Sharq davlatlari va hatto Hindiston bilan o'rnatilgan aloqalar bejiz ketmay, **Vavilon, Suriya, Yunon** madaniyatlarini ravnaq topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

XVIII asrning oxiri XIX asr boshlarida Misrda Yevropa musiqasining ta'siri kuchayib, milliy san'atning asta-sekin tiklanishi boshlandi.

Misr kompozitorlaridan Abu Bakr Hayrat, Yusuf Grias, Abu al-Vahhab, Farid al-Atrash, Ahmed Saad ad-din va boshqalarni keltirish mumkin.

Misrda qadimgi dramatik diniy janrlardan tarkib topgan maqamlar mashhur. Arab maqamlari boshqa Sharq xalqlari orasida ham keng yoyilgan. Mustamlakachilik asorati Misr madaniyati taraqqiyotiga g'ov bo'ldi. **Said Darvish** (1822-1923) yangi Misr musiqasining qaldirg'ochidir. Uning yorqin vatan'arvarlik ruhidagi

qo'shiqlari ko'pgina arab mamlakatlariga yoyilgan. "Al-Barux", "Shahrizoda" kabi musiqali sahna asarlari Misr zamonaviy musiqasiga asos bo'ldi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Misr musiqasida kontsertlar katta o'rin oldi. 1920-1920 yillarda arab o'retta janri yuzaga keldi. Kompozitor Said Darvish bu janrning eng atoqli namoyondalaridan edi. 1914 yilda Qohirada asos solingan musiqa klubi keyinchalik Sharq musiqasi maktabiga (1929 yildan Arab musiqa institutiga) aylantirildi. 1927 yilda esa, Misr musiqa jamiyati tashkil etildi. Aytish joizki, 1925 yil inqilobidan so'ng Misr musiqiy hayoti jonlandi. Bir qator o'rta va oliy o'quv yurtlarida musiqachilar tayyorlana boshladi va ayniqsa, 80 yillarda shaharlarda ommaviy musiqa keng yoyildi. Qohira konservatoriyasi poytaxt opera teatrining milliy kadrlar o'chog'idir. 1962 yilda Qohirada Operetta teatri ochilgan. Misr musiqasida yangi g'oyaviy-badiiy zamin kuchaydi, mahalliy mavzularga e'tibor ko'paydi.

Misr san'tkorlari orasida **Umm Kulsum, Muhammad Abdul Vahob, Shams, Najot Sag'ira, Shodiya, Fayz, Ahdam**, singari yakkaxonlar butun dunyo bo'ylab mashhurlikka erishdilar.

Umm Kulsum



Arab dunyosida o'zining yorqin ovozi, betakror ijodi bilan juda katta obro'-e'tibor va ahamiyatga ega bo'lgan qo'shiqchi san'atkor Umm Kulsumdir. U yakkaxon xonanda bo'lib komillik darajasida faoliyat olib borgan va butun arab xalqlari

tomonidan e'tirof etilgan san'atkordir. Shu bois uning ijodi ko'p asrlik arab musiqasi tarixida ham alohida o'ringa egadir³⁴. Uning ijodi Misrdagi yetti mo'jizalardan biri – ehromlar bilan ham tenglashtirib, barhayot qo'shiqlari bilan mangu qolishi e'tirof etiladi. Mashhur arab publitsisti, shoir va dramaturg **Anis Mansur** Umm Kulsumni qadim yunon qo'shiqchisi Orfey bilan tenglashtirgan edi. U san'at sohasida arab dunyosida mavjud barcha faxriy unvonlarga ega bo'lgan. 1972 yili “Xalq san'ati arbobi” eng yuqori unvonga sazovor bo'lgan.



Umm Kulsum Misrning Sanbalaviya markazidagi Tamai Zaxariya qishlog'ida XX asr boshlarida (1903-1905) tavallud topgan. Otasi – Shayx Ibrohim Said, hofizi Qur'on va diniy qo'shiqlar ijrochisi bo'lgan. Umm Kulsumning asl ismi **Fotima Ibrohim**. Oilada uch farzand, o'asi Ruqiya va ukasi Xolid bo'lib, Fotima juda ajoyib ovoz sohibi edi.

Ma'lumki, azaldan arab mamlakatlari, an'anaviy musulmon maktablarida til, adabiyot, tarix va odob darslari bilan bir qatorda Qur'on va uni qiroat bilan o'qish ham o'rgatilib kelingan. Qur'on qiroat qilishni o'zlashtirgandan so'ng musiqiy cholg'ulardan biri ud yoki qonunda asosiy maqomlar amaliy, ya'ni ustoz-shogird tarzida o'rgatilgan³⁵.

Umm Kulsum 1920 yili Qohirada birinchi marta kuylaganda, u shu shaharda qolishni niyat qiladi. Shu bilan birga, u mashhur arab bastakorlaridan biri Misrning yangi musiqa yo'nalishi asoschisi **Said**

³⁴ Еолян И. «Очерки арабской музыки». – М., 1977 С. 127.

³⁵ Elsner J Die Musikkultur Agupytens . – “Musik und Gessel schatf” , 1968, №6, 292–293-бетлар.

Darvesh (1892-1923) bilan uchrashishni orzu qiladi. Shu davrda, arab musiqa san'atida Umm Kulsum bilan bir qatorda, **Munira al-Maxdiya**, **Naima Misriya**, **Hayot Sabriy** va **Fotima Saari** kabi qo'shiqchilar mashhur edilar. Umm Kulsum ilk marotaba Misr radiosi orqali 1934 yili o'z qo'shiqlarini ijro etadi va xalq og'ziga tushadi. Umm Kulsumga mashhurlik keltirgan faoliyat turlaridan yana biri kino ("Umid madhiyasi" (1937), "Dinara" (1940), "Salama") san'atidir. 1945-50-yillarga kelib, Umm Kulsum professional xonandalik re'pertuarini yaratib, ijrochilik amaliyotida chuqur iz qoldiradi.

1960-yillarda Umm Kulsum tashabbusi bilan Misrlik ayollar xalq fronti tashkil etiladi. Shundan so'ng, u nafaqat arab dunyosi, balki butun jahonga tanila boshlaydi. U o'zining inqilobiy qo'shiqlari bilan shuhrat qozonib, milliy ozodlik inqilobi jangchilari tomonidan moddiy qo'llab-quvvatlangan. So'ngra, jahon bo'ylab bir qator konsert gastrollarida ishtirok etib, o'zining betakror ovozi bilan keng tanilib, arab musiqasining sehrli jozibasini barcha xalqlarga namoyish etadi va arab musiqasining yorqin namoyandasiga aylanadi. Umm Kulsum barcha arab xalqlari tomonidan milliy qo'shiqchi sifatida tan olingan.

1970-yillarda uning sog'ligi keskin yomonlashib, 1975 yili vafot etadi.

Umm Kulsum Arab dunyosida shakllanib kelayotgan yangi avlod qo'shiqchilariga ibrat edi. Uning ijrosidagi musiqiy asarlar talqini sahnadagi go'zal harakatlar bilan uyg'unlashib nafis joziba baxsh etardi. Chunki uning ovozi betakror, ajoyib ifodali, dardli va ehtirosli edi. Umm Kulsum ijodi arab she'riyatining chuqur ma'nosi timsolidir. Xonanda shoirlarning qo'shiq uchun yozgan matnlari ustida juda talabchanlik bilan ishlar edi. Uning re'ertuaridan shoirlar sardori **Ahmad Shavqiy** va Nil shoiri **Hofiz Ibrohim** va boshqalarning betakror va eng sara qasida, she'rlari o'rin olgan. Mazkur qo'shiqlar yo'nalishini uch yo'nalishga bo'lish mumkin:

sevgi-muhabbatni madh etuvchi qo‘shiqlar; vatan‘arvarlik tuyg‘ularini aks ettiruvchi namunalar; diniy-falsafiy mavzudagi qo‘shiqlar³⁶.

Umm Kumsum o‘zining serqirra ijodi, betakror ovozi va jozibali ijrosi bilan nafaqat arab dunyosida, balki jahonda obro‘ topdi.

SUDAN MUSIQA MADANIYATI

Sudan Demokratik Respublikasi Afrika mintaqasida xududi bo‘yicha eng yirik mamlakatdir. Maydoni 2,5 million km², aholisi 38 mln kishidan iborat. 600 dan ortiq qabilalardan tashkil topgan. Ma‘muriy jihatidan 26 shtatga bo‘linadi. Ularda aholi 110 dan ortiq tillarda suhbatlashadilar. Sudan Afrikaning eng yosh davlati hisoblanadi, poytaxti **Xartum** shahridir. 1956 yilda o‘z mustaqilligiga erishdi³⁷. Madaniy o‘choqlaridan biri bo‘lib, mamlakatning shimoliy qismidagi Nil vodiysida paydo bo‘lib, aynan shu yerda mil. avv. 3 ming yillik (Nubiya tamadduni)da Kush, ya‘ni qadimgi Sudan davlati vujudga kelgan³⁸.



Qadimgi Misr tsivilizatsiyasi Kush podsholigi taraqqiyotiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Kush podsholigining markazi **Na‘pate** va **Meroe** shaharlari bo‘lgan. Kush aholisi turli xil tillarda suhbatlashgan. Bulardan: qadimiy misr, kush hamda nubiy va meroet tillari bo‘lgan. IV-VI asrlar Sudan tarixida Kush madaniyati qulashi va asta-sekin xristian dinining tarqalishi bilan belgilangan.

³⁶ Аманмурадова С. Умм Кульсум – великая певица Арабского Востока. 24-32 бетлар.

³⁷ Qodirov P. Jahon mamlakatlari. – T.; 2009, 73-bet.

³⁸ Минковская Э.Е. Египетская религия в Куше. В книге Религии древнего Египета. – М.; 1976. С. 35.

Xristian dinining Kushit an'alariga mos kelmaganligi sababli Sudan qabilalari ongiga singa olmadi.

Shimoliy Sudan xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalari Afrika qit'asidagi musulmon davlatlari bilan bog'liqdir. Eng qadimiy va yirik qabilalardan biri **ash-Shaygiya** hisoblangan³⁹.



Ash-Shaygiya qabila merosi Sudan musiqa madaniyatida alohida o'rin tutadi. ash-Shaygiya musiqa madaniyati og'zaki tarzda avloddan avlodga o'tib kelgan. ash-Shaygiya musiqasida cholg'u musiqa alohida janr sifatida saqlanmagan. Bu musiqa asosan vokal va vokal-cholg'u janrlarda qaror topgan. Bu yerda musiqa **Kissar** san'atini folklor va professional ijroda ko'rish mumkin. Sudan musiqa san'ati bir qator xalqlarning musiqiy an'alarini o'z ichiga oladi. Ularning cholg'u asboblari ham xilma-xil: lirasimon torli **tanbur** va uning turlari **kissar** (Nubiylarda) **bene-bene** (G'arbiy Sudanda), **bangiya**

³⁹ Ритмика песен Суданского племени Аш-шагия. Проблема музыкальных культур народов Востока. Т.;1985.

(Sharqiy Sudanda), **tom** (Janubiy Sudanda); torli kamonli **um-kiki**, **tor** (to‘rtburchak doira), turli barabanlar – **dolyuka** (loy baraban), **taba va dinka**, **shilluk** va boshqa baraban turlari mavjud. puflab chalinadigan musiqiy asboblari qatorida: **zumbara** (metall nay), **penak** (qovoq ‘o‘sti), **garin** (shox), **qamish naylar** mavjud.



G‘arbiy Sudanda qo‘shiqlar odatda raqs bilan birga ijro etiladi. Ular muayyan nomlar bilan ataladi. Masalan, **xasis**, **jarrari**, **mardum** va boshqa raqs qo‘shiqlaridir. Bu qo‘shiqlar asosan ko‘chmanchi xalq, chorvadorlar turmushi va mehnati bilan bog‘liqdir. Xalq orasida keng ommalashgan musiqiy an‘analardan **qiroat**, **azon**, **madhiya**, **zikk** kabi janrlar ham mavjud.

Sudanda milliy folklor janrlarini ijro etadigan ansambllar faoliyati keng ommalashgan. Ular oddiy ko‘rinishda bo‘lsa-da, o‘z xalqi va milliy an‘analari asosida faoliyat olib boradilar. Mamlakatda, bir qator milliy folklor ansambllari, musiqa va teatr institutlari tashkil topgan. Musiqa arboblari kompozitor va xonandalar **Muhammad al-Amin, Muhammad al-Koshif, V.Vardi, A.Shurakbil**, kompozitor va dirijyor **A.Marjonni** kabi namoyandalarni ko‘rish mumkin.

Sudan musiqa madaniyati, musiqa san‘atining o‘ziga xos jihati, xalq hayoti va madaniyati bilan uyg‘unlashgan tomonlari Ash-Shaygiya qabilasining musiqiy madaniyatida o‘z ifodasini topgan.

Ash-Shaygiya qabilasining folklor namunalari ijro etishiga xususiyatiga ko‘ra 2 guruhga bo‘linadi:

1. Ma‘lum bir vaqtda ijro etiladigan qo‘shiqlar;
2. Har doim ya‘ni turli vaqtlarda ijro etiladigan qo‘shiqlar.

Ash-Shaygiya musiqa folklori sinkretik janrlar (xor va yakkaxon)ni o‘z ichiga olgan bo‘lib, unda sehr-jodu marosimlariga tegishli bo‘lgan harakatlari o‘z aksini topadi.

1-guruhga – mehnat, bolalar, alla va to‘y marosim qo‘shiqlari;

2-guruhga – faqat tinglash uchun mo‘ljallangan qo‘shiqlar kiradi. Bunday qo‘shiqlar lirik qo‘shiqlar deb yuritiladi.

Ag‘ani-al-amal – mehnat qo‘shig‘i. Bu qo‘shiq yer cho‘ish, sug‘orish, hosil yig‘im-terimi bilan bog‘liq.

Al-muzari – dehqon qo‘shiqlari. Ular yer chopilayotganda ijro etiladi.

Dag‘-al-ayt – qo‘shiqlari (Sudan shevasida bug‘doy yanchish ma‘nosini bildiradi), asosan bug‘doy yanchishda ijro etiladi.

Ash-Shaygiya qabilasining qadimgi yer egalari azaldan tabiiylikdan ko‘ra, ilohiyotga ko‘proq ishonishgan. Shu narsa ularning qo‘shiqlarida ko‘rinib turadi. Ash-Shaygiya qabilasining mehnat qo‘shiqlari ko‘ngil ochish yoki ish jarayonida kayfiyatini ko‘tarish

uchun emas, balki Xudodan hosil unumli chiqishini iltijo qilish uchun ijro etiladi. Ash-Shaygiya qabilasining mehnat qo'shiqlariga yana ayollar qo'shiqlari ham kiradi. Masalan, uy yumushlarida, taom tayyorlashda, sigir sog'ishda, sut mahsulotlarini tayyorlashda jo'r bo'lib kuylanadi.

Bundan tashqari, boshqa mehnat qo'shiqlari ham mavjud. Bulardan, "*Ag'ani al- banashin*", "*Ag'ani ar rua*", "*Ag'ani al- marakbiya*", "*Sayd as saman*". Bu qo'shiqlar musiqiy cholg'ularsiz ijro etiladi.

Ash-Shaygiya qabilasining to'y marosimlari milliy udum va an'analarini o'z ichiga qamrab olgan. Ular asosan teatrlashtirilgan ko'rinishga ega bo'lib, juda xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ash-Shaygiya qabilasida to'y marosimi 2 qismga bo'linadi:

1. To'yga tayyorgarlik ko'rish;
2. To'y o'tkazish qismi;

To'y marosimi muayyan nom bilan ataladi va uni "*Yaum al xafl al - am* " deb yuritilish an'anaga aylangan. Ash-Shaygiya qabilasida raqsona usullar keng tarqalgan. Bulardan, *ar-artodi*, *ar- tabudi*, *ad-daleb* deb nomlangan raqslar alohida ajaralib turadi. Ular orasida *ad-daleb* keng qo'llaniladigan usullardan hisoblanadi. "*Al xafif*", "*balalak*" (raqslari), "*al karim - tarik*" (kelin uyida ijro etiladigan) raqs va ashulalarda shu usulni uchratish mumkin⁴⁰.

"*Ag'ani al-atfal*" – (bolalar o'yin qo'shig'i) teatrlashtirilgan, musobaqalar bilan bog'liq bo'lgan qo'shiq. Ko'p qo'shiqlar tarbiyaviy ahamiyatga ega.

"*Ag'ani al- madh*" alla qo'shig'i. Alla bolani uxlatish uchun aytib kelingan.

"*Fat-fat*" – bu ashulani bolalar al-fat-ufat o'yinini o'ynayotganda ijro etishadi. O'yinni 10-15 yoshgacha bo'lgan bolalar va qizlar aylana shaklda o'tirib o'ynashadi.

⁴⁰ Салахиддин Хасанин. Песенная культура Аш-шагия. Автореферат. – Т.; 1987.

“Ag‘ani al-manaxat” – motam qo‘shig‘i.

“Ag‘ani ad-diniya” – diniy qo‘shiq bo‘lib, unda Alloh va payg‘ambarlar nomlari zikr etib ijro etiladi.

“Zikr” – sufiylar tariqatining eng muhim belgilaridan biri bo‘lib, zikr tushuvchilar jazava raqsida Qur‘on suralarini ommaviy ijro etishadi. Ular musulmonlarning 3 ta bayramida: Mavlud an-Nabiy (‘ayg‘ambarning tug‘ilishi), al-karama (qurbonlik marosimi), zikr layliya (tun yarmida ‘ayshanba kunlari) aytiladi. Zikr paytida asosan urma-zarbli cholg‘ulardan foydalaniladi: at-tar, ar-rig, an-nug‘ora, an-nuba. Torli va puflama cholg‘ular esa umuman ishlatilmaydi. Sudan zikrlarining eng farqli tomonlaridan biri shundaki, unda (musulmon an‘analari bilan bir qatorda) qadim Afrika diniy marosimlarining uzviy aloqadorligi ko‘zga tashlanadi.

“Ag‘ani az-zar” – bemorni tuzatish marosimida ijro etiladi.

Ash-shagiyaning lirik qo‘shiqlari asosan tinglash uchun mo‘ljallangan. Sudanda mumtoz musiqa sifatida yuritiladigan musiqiy namunalar ham o‘ziga xos bo‘lib, professional musiqa deb yuritiladi⁴¹. Odatda, Ash-Shaygiya xalq professional musiqasi 2 guruhga bo‘linadi.

1. Vokal;
2. Vokal-cholg‘u.

Ash-Shaygiya vokal janrlarining o‘ziga xos asoslari:

- cholg‘u asbobi jo‘rligisiz kuylash; (juda kamdan-kam hollarda naqoratda **at** – **tanbur** asbobida ijro etiladi);
- rechitativ – so‘zlashuv talqiniga yaqin, asosan badihaviy tarkibga asoslaniladi;
- naqoratli ijro uslubi – variantli shakl, ko‘proq jamoaviy ijroda keng qo‘llaniladi.

⁴¹ Салахиддин Хасанин. Песенная культура аш-Шайгия. Автореферат. – Т.; 1987.

Sudan vokal cholgʻu asarlarida boshqa Sharq mamlakatlariga xos musiqiy anʼanalarning taʼsiri juda muhim ahamiyat kasb etadi. Aytimlarning qanday boshlanishi aniq koʻrsatilmagan. Ularning vokal yoki cholgʻu asar bilan kelishi mumkin. Muqaddimada koʻproq zarbli asboblarda umumiy usulni berib, boshlash keng ommalashgan. Sudan musiqasi boshqa arab xalqlari musiqasidan farq qiladi. Chunki bu xalq musiqasida ikki anʼana, yaʼni Afrika xalqlariga mos milliy anʼanalar va eʼtiqod bilan bogʻliq diniy marosim aytim anʼanalari mujassam boʻlgan.

Mavzu boʻyicha savollar:

1. Arab musiqasi. Misr, Sudan, Suriya musiqa madaniyati haqida qanday tarixiy maʼlumotlar bilasiz?
2. Misr, Sudan, Suriya musiqiy folklori: toʻy-marosim qoʻshiqlari xususida nimalarni bilasiz?
3. Maʼlum sharoit bilan bogʻlanmagan qoʻshiq turlari, musiqiy cholgʻulari, cholgʻu janrlari haqida gapirib bering?
4. Afrika va arab – musulmon madaniyatlarini oʻzaro taʼsiri, marosim aytim turlari toʻgʻrisida maʼlumotlar bering.
5. Xalq kasbiy musiqa turlari – ash – Shaygiya qoʻshiqchilik anʼanalari xususida nimalar bilasiz.
6. Musiqiy cholgʻular dunyosi, zikr va samo, darveshlar ijrochiligi xususida sizning tasavvuringiz.
7. Suriya maqomlari turkumi xususida maʼlumotlar bering.

Mavzu boʻyicha topshiriqlar:

1. Arab musiqasi. Misr, Sudan, Suriya musiqa madaniyati haqida tarixiy maʼlumotlar tayyorlash.

2. Misr, Sudan, Suriya musiqiy folg'klari: to'y-marosim qo'shiqlari xususida, ma'lum sharoit bilan bog'lanmagan qo'shiq turlari, musiqiy cholg'ulari, cholg'u janrlari haqida kons'ekt qilish;
3. Afrika va arab – musulmon madaniyatlarini o'zaro ta'siri, marosim ayti turlari tug'risida ma'lumotlar yig'ish.
4. Xalq kasbiy musiqa turlari – ash – Shaygiya qo'shiqchilik an'analari xususida mavjud manbalarni qarab chiqish.
5. Musiqiy cholg'ular dunyosi, Zikr va samo, darveshlar ijodini bilish.
6. Suriya maqomlari turkumi xususida ma'lumotlar.
7. Mavzu xususida Internetdan materiallar topish va ta'rifini keltirib yozish.
8. O'tilgan mavzu bo'yicha krossvord tuzish.

VII-DARS: IROQ MUSIQA MADANIYATI.



Iroq – Yaqin Sharq mamlakatlari orasida uzoq o‘tmishga ega bo‘lgan va qadimiy madaniyati bilan dunyoga tanilgan mamlakatlardan biridir. Unga qo‘shni bo‘lgan davlatlar – Turkiya, Suriya, Iordaniya, Eron, Quvayt, Saudiya Arabistoni. Iroq mamlakatida asosan **arab, kurd, aysariy, turkman** kabi millatlar yashaydilar. Mamlakatda **arab va kurd** – davlat tillari hisoblanadi. Aholisi 24 mln. (2007). Dini – islom. poytaxti – Bag‘dod shahridir⁴². Yirik shaharlari – Basra, Mosul, Karkuk.

Bag‘dod tarixdan xalifalar poytaxti, arab madaniyati va fani markazi hisoblangan. Shu bois o‘ziga xos adabiyot, musiqa va boshqa san’atlar milliy an’analar zaminida rivoj topgan. Ayniqsa, musiqa san’ati turli shakllarda va ijro uslublarda shakllanib rivojlangan. Ilk musiqiy jarayon arab she’riyatida o‘zini namoyon etgan. Jumladan,

⁴² Қодиров П. Жаҳон мамлакатлари. – Т.; 2009. 34-б.

arab she'riyatida qadimiy marosim qo'shiqlar **mehnat, alla, ovchilik, karvon** qo'shiqlari tasvirlanadi.


Xija – Iroq xalqining ilk qo'shiq janrlaridan

Fakr – maqtoov qo'shig'i,

Sar – qasos qo'shig'i,

Riso – yig'i qo'shig'i.

Arab klassik adabiyotining shakllanishida Muhammad (s.a.v) payg'ambarning o'gitlarini qamrab olgan muqaddas Qur'on kitobi ham muhim rol o'ynaydi. **Al-Axtas, Al-Jarir, Al-Farazdax** she'riyatida Qur'on ta'siri seziladi.



XI asrda **Badi al-Zamon al-Hamadoni**iy “**maqom janri**”ni adabiyotda yaratadi va bu arab nasrida yetuk janr sifatida shakllanadi. Hamadoniyy maqomlari 50 ta turkum-novella janridan tuzilgan.

Iroq mumtoz musiqasining eng gullab yashnagan davri X-XI asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrga kelib musiqiy nazariy ilm va amaliyot rivojlandi. Muayyan tizimli va tarkibli tovushlar munosabatidagi tovushqatorlarga tayanish rasm bo'la boshlaydi.

Xususan, mumtoz musiqa namunalari 7 pogʻonali ladga asoslanib, asosiy tovushlar orasida oraliq intervallar ishlatila boshlanadi.

Mashhur musiqachilar – Ibrohim al Mavsiliy, Ishoq al-Mavsiliy, Mansur Zalzallarning ijodlariga eʼtibor ortadi. Shu davrning eng koʻzga koʻringan musiqashunos va tadqiqotchilaridan biri Abul Faraj Isfahoniy boʻlgan. Xalifa Xorun ar-Rashid talabiga koʻra Ibrohim al-Mavsiliy ashulalaridan 100 tasini tanlab, koʻchirib yozish talabini olgan. Mazkur ulugʻ olim 50 yil davomida “Kitab ul-agʻani” (Qoʻshiqlar kitobi) buyuk asarini yaratadi. Bu asarda arab musiqachiligining noyob sifatlari keltirilgan va har bir ashulaning ijrochisi, sheʼr muallifi va uning bastakori toʻgʻrisida toʻliq maʼlumotlar berilgan. Bu kitob keyinchalik “Katta qoʻshiqlar kitobi” deb atala boshladi. Bu asarda Ajam xalqlari musiqa madaniyatiga oid turli maʼlumotlar ham mavjud.

Bu davrda grek olimlarining asarlari arab tiliga tarjima qilindi va musiqiy nazariy ilmlarni yanada rivojlanishiga turtki boʻladi (“Kitob al-agani”, “Kitob an-nagʻm”).

Mashhur musiqashunos olim, musiqa nazariyalarini tadqiqotchilari – **Al-Kindiy, Al-Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy** kabilar ijodida musiqaning turli jihatlari ilmiy tadqiq etiladi. Forobiy oʻz kitobida musiqaning kelib chiqishi, uning estetik tarbiyasi, cholgʻu-sozlar tizimi, tovushqator nazariyasi masalalariga eʼtibor berilgan.

VIII-IX asrlar arablar tsivilizatsiyasining “Oltin asri” hisoblanadi. Bu davr asosan Abbosiylar hukumronligi bilan bogʻliq. Arab xalifaligining markazi Bagʻdod hisoblanadi. XVI asrda arab davlati Usmoniylar (Turkiya) davlatiga oʻtadi. Bu davrda harbiy musiqa asosiy oʻrin tutadi.

IROQ MAQAMLARI

Ba'zi manbalarga ko'ra mazkur maqamlar 300 – 400 yil oldin paydo bo'lgan. Al-Mavsiliy risolalarida ham maqomlar to'g'risida fikrlar yuritilgan. Shunga qaramasdan, Iroq maqamlari yaratilishining aniq sanalari ma'lum emas. Iroq maqamlarining ijrosi lad asosidagi badihaviy talqinga asoslangan. Ba'zan bu improvizatsiya Xind ragalariga o'xshaydi.

Iroq maqamlari ikki omilda rivojlanadi: birinchisi fazoviy, ya'ni tonal omil; ikkinchisi vaqt me'yori asosida metro-ritmik omil. Barcha maqomot tizimiga xos musiqiy namunalari kabi Iroq maqamlari ham bu ikki omil – lad va ritmga asoslanadi

Maqamlarda takt, o'lchovlar bo'lmaydi. Eng yuqoridagi parda – avj nuqtasi xisoblanadi va asar tugallanadi. Ton balandligi bitta tovush atrofida bo'ladi. Ba'zan bir necha tayanch tovushlari bo'lishi mumkin. Iroq maqamlarining o'ziga xos jihati, ularning davomiyligi erkinligidadir. Qolaversa, bu mezon asarning yaxlit holda shakllanishi va bu albatta ijrochining mahoratidan kelib chiqadi. Iroq maqamlarining doimiy ijro etiladigan tarkibiy qismlari: **tahrir, avsal, kararat, miyonat, taslim**.

Taxrir – yoki **ibtida'** (boshlanma) deyiladi va boshlang'ich (o'zbek maqomlaridagi daromad kabi) bo'limidir. Taxrir maqamning asosiy mag'zi va tonini belgilaydi. Taxrirda ijrochining yuksak mahorati, ijrochilik texnikasi ko'rsatiladi. Taxrirni 2 qismga bo'lish mumkin: **nadjavob** – yuqori registrda, **karar** – past registrda ijro etiladi. Kuyi deklamatsion rivojlanadi.

Avsal – ikkinchi qism bo'lib, bunda ijrochining badihaviy mahorati ko'rsatiladi.

Kararat – taxrirning tarkibli qismi hisoblanadi. past registrda ijro etilib, asta-sekinlik bilan yuqoriga miyonatga ko'tariladi.

Miyonat – maqamning yuqori cho‘qqisi, avji (kulminatsiyasi) hisoblanib, yuqori registrda ijro etiladi. Eng yuqori miyonat “*javob al xavob*”.

Taslim – Iroq maqamlarining yakunlovchi qismlaridir. Bu yerda ijrochi moduliyaatsiyalardan so‘ng yana asosiy tonallikka qaytib keladi. Barcha sharq xalqlari kabi Iroq maqamlarining nomi ham asosan ladning nomi bilan yuritiladi. Har bir maqam yirik turkumiy shakl bo‘lib, **rondo**, **syuita**, **variatsiya** unsurlarini o‘z ichiga oladi.

Iroq maqamlari odatda ko‘p sonli hisoblanadi. Amaliyotda ularning quyidagi namunalari ko‘proq ishlatiladi: **Rost**, **Sigox**, **Chorgox**, **Navo**, **Buzruk**, **Bayoti Shiraz**, **Isfaxon**, **Iroq** va boshqalar⁴³.

Iroq mamlakati ko‘p millatli ekanligi yuqorida qayd etildi. Iroqda istiqomat qiluvchi xalqlarning bir nechtasi o‘zining o‘ziga xos madaniyati va shunga mos merosiga ega. Bular ko‘proq o‘z tilida, ya’ni arab bo‘lmagan tillarda ijro etiladi. Bunday namunalar ko‘psonliligi bilan ajralib turadi va quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

1. **Kurd tilida** ijro etiladigan Iroq maqamlari. Kurdlar tomonidan yaratilgan va Iroqning shimoliy qismida yashovchi xalq tomonidan ijro etiladi. Eng mashhur kurm maqamlaridan biri Xiran maqami;
2. **Turk tilida** ijro etiladigan Iroq maqamlari va ular ikkiga bo‘linadi:
 - a) Turk tilida ijro etiladigan namunalar: tafdis, bashiri, bajilani;
 - b) **Turk-turkman** tilida ijro etiladigan maqamlar. Ular orasida “*quriyat*” maqami juda mashhurdir.
3. **Fors tilida** ijro etiladigan maqamlar. Jumladan Aribuna-axam maqami.

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Misr bastakorlik va aytim san’atining buyuk namoyondalarini aytib bering?


⁴³ Еолян И. Традиционная музыка арабского Востока. – М.;1990. С. 81-83.

2. Iroq madaniyati – Abbosiylar davri Bag‘dod madaniyatiga oid umumiy ma’lumotlar xususida nima bilasiz?
4. Zamonaviy Iroq musiqa folklori: oilaviy-maishiy to‘y marosim, diniy marosim janrlari, musiqiy cholg‘ulari xususida ma’lumotlar bering.
5. Markaziy Osiyo, Eron va turk musiqasining o‘zaro ta’siri haqida gapirib bering?
6. Iroq maqomlari xususida tushuncha bering.

Mavzu bo‘yicha topshiriqlar:

1. Misr bastakorlik va aytim san’atining buyuk namoyondalarini ijodi.
2. Iroq madaniyati – Abbosiylar davri Bag‘dod madaniyatiga oid umumiy ma’lumotlar.
3. Zamonaviy Iroq musiqa folklori: oilaviy-maishiy to‘y marosim, diniy marosim janrlari, musiqiy cholg‘ular olami xususida ma’lumotlar.
4. Iroq, Eron va Turk musiqasining o‘zaro ta’siri.
5. Iroq maqomlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.
6. Mavzu xususida Internetdan materiallar topish va ta’rifini keltirib yozish.
7. O‘tilgan mavzu bo‘yicha krossvord tuzish.

VIII-DARS: SURIYA MUSIQA MADANIYATI



Suriya – Janubi-gʻarbiy Osiyo hududida joylashgan mamlakat. Turkiya, Iroq, Iordaniya, Isroil va Livan davlatlari bilan chegaradosh. Gʻarbiy tomondan Oʻrta yer dengizi oqib oʻtadi, iqlimi – subtroʻik. Oqib oʻtadigan asosiy daryo **Yevfrat**. Gʻarbiy tomonining chet hududlarida Xermon togʻ tizmasi joylashgan. Geologik jihatdan mamlakat hududi Livan va boshqa janubiy mamlakatlar bir butunligini tashkil etadi. Aholi asosan suriyaliklar boʻlib, (arab xalqlari tarkibiga kirishadi), ular arab tilining suriya shevasida soʻzlashishadi. Shuningdek Suriyada **kurdlar, armanlar, asshshuriylar, turkmanlar**, va boshqalardan tashkil topgan jaʼmi 16 mln. dan ortiq (2007) odam yashaydi.

Suriya 9 ta muhofaza (viloyat)ga boʻlinadi. Uning poytaxti – Damashq shahri, VII-VIII asrlarda Umaviylar xalifaligining poytaxti

bo'lgan. Yirik shaharlari – Xalab, Xums, Hama, Loziqiya. Aholisining 85 % musulmonlar, 15% xristianlar⁴⁴.

XVI asrdan (1516-1918 yillar) boshlab Suriya Turkiya hukmronligi ostida bo'lgan. Hoziri paytda Suriya Arab Respublikasi parlamenti Respublika prezidenti tomonidan boshqariladi.

Suriya madaniyatiga ushbu hududda hukmronlik qilgan turli xil tsivilizatsiyalarning ta'sirini ko'rish mumkin. Masalan, (er.av. XVI-XII asrlarda) Qadimgi Misrlik (xetlar)lar, (er.av. VIII asrlarda) Ossuriyalik(Ashshur)lar, (er.av. VII asr oxirlarida) Yangi Bobil podsholigi, so'ngra Ahamoniylar sulolasi, undan so'ng 333-yilda Aleksandr Makedonskiy va Salavkiylar. Bundan tashqari er. av.64-yilda Rim im'eriyasi IV asrlar oxirida esa Vizantiya imperiyalari mazkur hududni mustamlaka sifatida boshqarib, uning taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatishgan⁴⁵.



⁴⁴ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Т., 2004. 148-151-б. Том 8.

⁴⁵ Музыкальная энциклопедия. Сирийская музыка. Том V. – М.; 1981. 30-35-б.

Suriya musiqasi garchi ko‘p asrlik an‘analarni o‘z ichiga olib, milliy xususiyatlarni mujassam etgan bo‘lsa-da, uzoq yillar davomida arab musiqasining bir qatlami sifatida rivojlanib keldi. Hatto qadimgi ilk jamiyatlar shakllanayotgan davrda ham Suriya hududida madaniy hayot qaror to‘ib ulgurgan edi. Bunga mazkur hududlardan togilgan ko‘p sonli arxeologik topilmalar ham guvohlik berishi mumkin. 1970 yil o‘rtalarida Suriya yaqinidagi O‘rta yer dengizi qirg‘oqlarida topilgan qadimgi musiqa notatsiyaning (zamonaviy mutaxassislar tomonidan o‘rganilgan) namunasi buning yaqqol dalilidir. Amerikalik musiqashunos R.Krokerning ta’kidlashicha bu nota yozuvlari 3400 yil muqaddam vujudga kelgan Qadimgi Ugarita madhiyasi bo‘lishi mumkin.



Erkaklar raqsi

VII asrda Vizantiyaliklarning Suriyani bosib olishga urinishlari arablar hukmronligi bilan yakun topdi va shundan so‘ng Suriya aholisini ommaviy islomlashtirish, arablashtirish boshlandi. Shundan so‘ngra, Suriya musiqa madaniyati ham umumarab madaniyatining bir qatlami sifatida rivojlana bordi va aytish mumkinki, Suriya uzoq yillar mobaynida o‘rta asr arab tamaddunining madaniy markazlaridan biri bo‘lib keldi.

Umaviylar xalifaligi (661—750) davriga kelib arab mamlakatlari poytaxti Damashqqa ko‘chirilib, xalifalik saroyi shoirlar, musavvir-u, musiqachilar o‘chog‘iga aylandi. Saroy madaniyati o‘zining benazir va nafisligi, arablarga xos estetik qarashlari bilan ajralib turardi. Bu Umaviylar davri mumtoz an‘analarning shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Garchi yuksak mahoratga ega bo‘lgan ko‘p qirrali ya’ni ijrochi, bastakor, nazariyotchi musiqachilar bo‘lsa-da, ular yakka tartibda faoliyat yuritishga majbur edilar. Zero, Islom dini ommaviy bazm-tomoshalar, musiqiy kechalar o‘tkazilishini ta’qiqlab qo‘ygan edi. Faqatgina VII-VIII asrlarga kelib ilk arab nazariyotchisi, lad tizimlari takomillashishida faol xizmat ko‘rsatgan **Ibn Musadjix** va uning shogirdi **Muslim ibn Muxriz**lar musiqaga bag‘ishlangan risolalar yaratdilar. Bundan tashqari **Yunus al-Kotib** “Qo‘shiqlar haqida kitob” («Kitab-ul-ag‘ani»), **Ibn Surayjning** “Kuylar haqida kitob” («Kitab-ul-nag‘m») risolalarini yaratilgan. **Qo‘shiqchilar Ma’bad, Jamil, Azza al-Mayli, Shirin** va boshqa musiqachilar birlashib, sozanda va ijrochilarning haq-huquq, mavqe’larini bir qadar oshirishdi.

Poytaxtning Bag‘dodga ko‘chishi (762 yil) munosabati bilan Damashqning ahamiyati susayib, IX asrlarga kelib, musiqa ilmi bir qadar rivoj topadi. (yunon faylasuflari, nazariyotchilarining musiqiy-nazariy asarlari tarjimalari yuzaga kela boshladi. Maqomlarning asosiy lادلari tashkil to‘di.

Suriyada Fotimiylar (969-970), Masihparastlar (XI-XII asrlar.), Saljuqiylar (1074-1117), Ayyubiylar (1186-1260), Mamluk sulolasi

(XII asr ikkinchi yarmidan XIII asrgacha) hukmronligidan so'ng Usmoniylar sultonligi (1516—1918) boshqaruvi yuzaga keldi. Shundan so'ng, ko'pgina arab davlatlari madaniyati singari Suriya musiqasiga ham turk musiqasi kuchli ta'sir ko'rsatdi.

An'anaviy Suriya musiqasi **Rost, Xijoz, Iraq, Segoh** va boshqa maqomlardan iborat bo'lib, ular o'ziga xos lad tizimlarini aks ettiradi. Va bu yerda cholg'u jo'rligidagi qo'shiqlar keng tarqalgan. Bundan tashqari, Suriya musiqasida Islomgacha bo'lgan musiqa qirralari saqlanib qolganki, ular yig'i qo'shiqlari, dialog, yakka va ommaviy tarzda ijro etilgan. Qasidasimon janrli asarlar she'riyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, qadimiy badaviylarning an'alarini mujassam etgan.

Shimoliy Suriya an'anaviy musiqasiga esa, turk musiqasi ko'proq o'z ta'sirini o'tkazganini ko'rish mumkin. Shoirlar(qo'shiqchi-shoir) tomonidan yosh kelin-kuyovlar sharafiga aytiladigan maxsus qo'shiqlar mavjud bo'lib, uzun-uzun jummalarni bir nafasda (holdan toyguncha) ijro etilgan.

Janubiy Suriyada jangovar qo'shiqlar mehnat qo'shiqlari bilan uyg'unlashgan bo'lsa, Shimoli-sharqda (bir torli-kamonchali) **rebab** (ba'zi hollarda nay) jo'rligida aytiluvchi, badiha uslubidagi qo'shiqlarni uchratish mumkin.

Suriya Shimolida zajjalning qadimiy ko'rinishi bir tovush doirasidagi (Vizantiya ijrochiligiga xos) qo'shiqlar mavjud. Zajjal qo'shiqlari hikoya xarakterida bo'lib, biror bir tarixiy voqe'likni o'z ichiga olishi yoki pand-nasihat tarzida bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, rechitativ-so'zlashuv qo'shiqlaridan **“lya-lya shargi (shrugi)”** ham (asosan Suriyaning markaziy qismlarida) keng tarqalgan. Ular uncha katta bo'lmagan diapazon(taxminan kvarta)ni o'z ichiga olib, yuqori registrlarda ijro etiladi. So'nggi qatorlar xor bilan aytiladi. Har bir yangi jumla shoirning erkin badihasiga asoslangan, ohangdor bezakli ashula bilan boshlanadi.

An'anaviy qo'shiqlarda bo'g'inlar va kuy munosabatlari mustahkam aloqada bo'lib, monodik qatlamda unison yoki oktava doirasida takrorni kuzatish mumkin. Bunda yakkaxon va xorning galma-gal ijrosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'shiq ijrochiligining bir necha turlari bo'lib, ulardan biri "**takil**" (og'ir) deb nomlanib, o'ziga xos badiha unsurlariga ega deklamatsiya (bezak vositalar, melizmlar) ko'rinishda bo'ladi. Yana "**hafif**" (engil) yoki "**sari**" (tez) – jamoaviy qo'shiqlar bo'lib, raqslar bilan uzviy bog'liqligi sababli muntazam metrika saqlanadi.

Suriyada an'anaviy raqs janrlaridan (quvnoq sur'atdagi yosh yigit-qizlar raqsi) **dabka** keng tarqalgan. Uning turlari: **shayxoniy dabka**, **alanda dabka**, **nada** va boshqalar.

Qo'shiqlar jo'rligidagi ushbu raqslar qasida shakliga ega bo'lib, shoir kuylagandan so'ng oxirgi qatorlarga xor qarsaklar bilan jo'r bo'ladi. Cholg'u jo'rnavoz sifatida **darbukka** (so'ol yoki metaldan yasalgan bir membranali milliy) cholg'usi ishlatiladi. Ba'zan bu cholg'uga nay va uning turlaridan bo'lmish **shabob**, **mizmar mezveg**, **argul** (gaboyssimon cholg'u)lar va **daff** (buben) jo'r bo'lishi mumkin.

Qizlar tomonidan sekinroq tem'da ijro etiluvchi samo raqslarida rebab ijro jo'rnavozlik qiladi. Chekka qishloqlarda esa (qilichlar raqsi) **alg'siyuf**, **beduin** raqsi – **xadun** va **alya dalsuna** (faqat urmazbli cholg'ular jo'rligida), **zarzaui** va boshqa raqslar uchraydi.

Suriya musiqa san'atida diniy musiqalar ahamiyatga molik bo'lib, hatto eramizning I asrlarida ilk nasroniy (xristian) jamoalari va ularning liturgiya (xristian ibodatlari)larida musiqa asosiy rol o'ynagan va u Vizantiya madaniyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Xristian jamoalarida o'ziga xos cherkov musiqalari ijro etilgan. Bundan tashqari, Suriyada diniy-sahnaviy ko'rinishga ega bo'lgan ibodat marosimlari mavjudki, unda yakkaxon Iso Masih, xor esa farishtalar rolini o'ynashadi. Butun ibodat parvardigori olamni sharafllovchi madhiya – **maanit**lar sadolari ostida o'tadi. Muqqaddas Injildan parchalar o'qiladi.

Mazkur liturgik – ibodat marosimlari bilan bog‘liq musiqalar hanuzgacha mustahkam e‘tiqodli Suriya ibodatxonalarida saqlanib qolgan.

VII asrning 30-40-yillarida Suriyada islom dinining (sunnilylik va shia-imomiylik mazhabi vakillarining) keng tarqalishi, bir qator yorqin o‘ziga xos janrlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Shulardan biri **azon** ya’ni muazzinning nomozga chaqirig‘i Qur’on suralarini o‘qish va keyinchalik diniy madhiyalar – muvvashaxga asoslanadi⁴⁶.

O‘rta asrlarga kelib, diniy oyatlar va tasavvufga asoslangan ommaviy zikr marosimlari tantanavor sur’atda keng yoyiladi. Ushbu davrda **zikr** an’analarini keng ommalashishi ham xalq hayotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Zikr bu jamoaviy yig‘in bo‘lib, u yerda **murshid**lar va din bilan bog‘liq insonlar qatnashadilar. Suriya zikrlarining yana bir o‘ziga xos tomoni, ijroda cholg‘u sozlar jo‘r bo‘ladi. Ya’ni, zikr **tor, nog‘ora, xamelna va nay** kabi musiqiy cholg‘ular bilan ijro etiladi. Zokir(zikr ijro etuvchi)larning ijrosi musiqa va muayyan harakat ramzlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Mashhur raqslar:

Samax – nisbatan sekin suratga ega bo‘lib, ayollarning mo‘tadil ijrosiga moslangan.

Alg‘silof – xalq tomonidan ma’lum harakatlar, ya’ni qiliq bilan ijro etiladigan raqs turi, faqat chekka hududlarda rivojlangan;

Beduincha raqslar: **Xaduni, alya dalsunya** va boshqalar (faqatgina zarbli cholg‘ular jo‘rovozliligida ijro etiladi).

Suriyada arab mamlakatlariga xos bo‘lgan musiqiy asboblari keng tarqalgan:**Ud, nashatkar** (sim torli ud), **qonun** (72 torli tsitrasimon cholg‘u), **mizzar** (nog‘ora), **qus** (katta nog‘ora) va boshqalar.

XIX asrning o‘rtalarida dunyoviy musiqa rivojlanib, cholg‘u janrlari tarqala boshlaydi. Bular: **taqsim, bashraf, mavval**; va vokal dunyoviy janrlardan **muashshahdir**.

⁴⁶ Вавилов В.И.Симантовский. Сирийская музыка. – М.; 1975. С. 40-45.

1870-yillarda Xalab shahrida ilk kompozitorlik maktabining shakillanishi **Mustafo al Boshliq** nomi bilan bog'liq. Frantsuzlarning Suriyani bosib olishi natijasida 1919-43 yillarda bu mamlakatga Yevropa madaniyati an'analari kirib keldi. 1962 yilda Sharq musiqasi rivoji yo'lida Damashq konservatoriyasi tashkil etiladi. 1963 yili Halab konservatoriyasiga asos solinadi. Mamlakatning musiqiy hayotiga umumbashariy voqe'lik sifatida qarash omillari rivojlanadi.

Keyinroq, mashhur musiqiy janrlardan qo'shiq – Suriya musiqasi ananalarining qirralaridan biri bo'lsa, zamonaviy arab estradasida muhim janrlardan hisoblanadi. Mashhur qo'shiqchilarga – **Ahmad Sabuniy, Mutiya Masri, Sabax Faxriy, Shakir Brexan ijrochilarga – Hasan Bahjad. Muhammad Ataba, Radir Shamil** va boshqalar kiradi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Suriya musiqa madaniyati haqida qanday tarixiy ma'lumotlar bilasiz?
2. Suriya musiqiy folklori: to'y-marosim qo'shiqlari xususida nimalarni bilasiz?
3. Ma'lum sharoit bilan bog'lanmagan qo'shiq turlari, musiqiy cholg'ulari, cholg'u janrlari haqida gapirib bering.
4. Suriya maqomlari turkumi xususida ma'lumotlar bering.
5. Suriyada qanday an'anaviy raqs janrlarini bilasiz.

Mavzu bo'yicha topshiriqlar:

1. Arab musiqasi. Suriya musiqa madaniyati haqida tarixiy ma'lumotlar tayyorlash;
2. Suriya musiqiy folklori: to'y-marosim qo'shiqlari xususida, ma'lum sharoit bilan bog'lanmagan qo'shiq turlari, musiqiy cholg'ulari, cholg'u janrlari haqida konspekt qilish;
3. Suriya maqomlari turkumi xususida ma'lumotlar.
4. O'tilgan mavzu bo'yicha krossvord tuzish.

IX-X DARSLAR: TURK MUSIQA MADANIYATI

TURK MAQOMLARI VA CHOLG'ULARI



Turkiya Respublikasi Osiyoning g'arbiy qismi va Yevropaning janubiy-sharqiy qismida joylashgan davlat. Aholisi 70 mln.dan ortiq poytaxti Anqara shahri. Aholining 90% turklar. Kurd, arab, o'zbek, adigey, chechen, asitin, grek, arman, ozarbayjon, turkman, bolgar, albanlar ham yashaydi. Aholisining asosiy qismi islom dinining sunniy mazhabiga e'tiqod qiladi. Rasmiy til – turk tili. Yirik shaharlari: Istanbul, Izmir, Bursa, Antaliya, Adana, Edirna.

Tarixning eng qadimiy madaniyatlaridan birini bar'o etgan turklar turli san'at soxalarida, shu jumladan musiqa sohasida ham samarali faoliyat olib borganlar.

Onado'lida Saljuqiylar davridan boshlab hozirgi davrga qadar turk musiqasi turli yo'nalishlarda rivojlangan. Turk an'anaviy musiqasi 2 qatlamga - xalq va professional musiqa turlariga ajratiladi. Xalq musiqasida turkumlar (barmoq vaznidagi she'rlarga asoslangan xalq qo'shiqlari), shuningdek, turli mavzudagi laparlar keng o'rin olgan. Ularning kuylariga asosiy pog'onalaridan yuqori va pastga

siljishlar, musiqiy ritmlariga sinko‘alar xosdir. Xalq qo‘shiqlarining she’riy asosini ko‘p hollarda ularning musiqaiy shaklini aniqlovchi an’anaviy shakllardagi(semai, dastan, koshma) she’rlar tashkil qiladi.

Turk xalq musiqasida ikkita uslubiy guruh: **uzun xava** (“uzun kuy”) va **kirik xava** (“qisqa kuy”) mavjud.

Keng diapazonli va erkin ritmga asoslangan uzun kuyli qo‘shiqlar asosan sevgi (bozloq) va motam (ag‘it) mavzularida bo‘ladi. Kirik xava uchun kichkina diapazon va bir tekisli ritmlar xos bo‘lib, bu guruhga raqsona kuylarni, ya’ni (chastushkalarining bir ko‘rinishi), oshiqlarning nag‘malarini kiritish mumkin. Aniq o‘lchovli va qisqa hajmli ohang cho‘zilmalariga rioya qilingan qo‘shiqlar asosan o‘yin, raqs va aytishuv (mone)larda namoyon bo‘ladi. She’r ichidagi o‘lchovli tuzilishning o‘zgaruvchanligi kvadratlikni buzadi, ritmikaning sinkopalashganligiga olib keladi⁴⁷.

Xalq musiqa san’atining katta qatlamini raqslar tashkil qilib, ko‘p hollarda marosimlar, mehnat jarayonlari, diniy marosimlar bilan bog‘liqdir. Cholg‘ular va vokal-cholg‘ular jo‘rligidagi raqslar, hamda jo‘rsiz raqslar ham bor. Mashhur xalq raqslaridan “*zeybek*”, “*xayal*”, “*xeron*”, “*bar*”, “*bengi*”larni keltirish mumkin.

Turk mumtoz musiqasi XV asrdan Onado‘lida ijod qilishgan oshiq (bastakor)lar faoliyati bilan bog‘liq. Ular turk baxshi (o‘zon) an’analarini davom ettirib, turli terma va qo‘shiqlarini soz, bog‘lama, qo‘biz jo‘rligida badiha shaklida ijro etganlar.

Xalq qo‘shiq va raqslari asosan **balaban**, **zurna**, **kaval**, **kamoncha**, **soz** kabi milliy cholg‘ular jo‘rligida ijro etiladi. Ularga odatda zarbli cholg‘ulardan – **davul**, **def**, **arab**, **darbukalarni** usul bilan jo‘r bo‘lishlari uchun qo‘shishlari mumkin.


An’anaviy musiqaning lad va shakl asosini maqamlar tashkil etadi. Turk musiqasida “maqam” tushunchasi birinchi navbatda ladga tegishlidir. Makamlarning asosini relg‘efligi bilan farqlanuvchi kichik

⁴⁷ Музыкальная энциклопедия. Турецкая музыка. V т. - М.; 1981. 640-644 б.

ladli tuzilmalar tashkil qiladi. Ladlarning soni nihoyatda ko'pdir. Ularning asosiy va hosilalari ham ko'p bo'lib, ularning hammasi ham amaliyotda ishlatilmaydi. Lad-maqamlarning nomlanishi ko'p hollarda geografik tushunchalarga, ya'ni ularning yaratilish joyiga (Isfahon, Sheroz, Iroq, Naxavent), timsoliy tasavvurlar (Rast – to'g'ri, haqqoniy, polistan - atir gullar bog'i) ga bog'liqdir.

Fasil nomli turkumiy shakl ham keng tarqalgan. Bu shakldagi asarning har bir bo'limi aniq bir makam ko'rinishida bo'ladi. Ijrochiga katta improvizatsiya erkinligi (ammo shu lad chegaralarida) beriladi. Fasilni odatda rivojlangan, shakliga ko'ra murakkab instrumental kirish – peshrev ochadi. So'ngra vokal epizodlar – **taksimlar** bilan navbat almashadi. Musiqachi-ijrochi tanlangan lad me'yorlari asosida turli xil musiqiy parcha va passajlarni improvizatsiya qiladi.

XVI asrda turk saroy ahli bevosita Yevropa musiqasi va madaniyati bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. XVI-XVII asrlarda saroy ayonlarining taklifiga ko'ra, taniqli Yevropa rassomlari, arxitektorlari, musiqachilari, aktyorlari tashrif buradilar.



Turk mumtoz musiqasi deganda, Yoqutiston va Janubiy Turkistondan tortib, Volga sohillarigacha, Qrim bo'ylaridan Dunay

ostonalarigacha joylashgan o'lkalar bo'ylab tarqalgan turkiy xalqlar musiqasi tushuniladi.

Salkam ming yil oldin turk qabilalari O'rta Osiyodan Onado'liga (Kichik Osiyoga) o'z kuy ohanglari bilan birga ko'chib kelishdi. Bu musiqa umumiy ildizi va mohiyatidan tashqari, ba'zi o'ziga xos jihatlariga ham egadir. Turk qabilalarining katta qismi 500 yil avval Onado'lidan Istambulga ko'chib o'tdi, natijada ushbu shahar turk millatining yirik madaniy markazlarining biriga aylandi⁴⁸.

Keyinroq, boshqa shaharlardagi, ziyolilar doirasida, xususan saroylarda mumtoz musiqa keng tarqala boshladi. Mavlaviy, Rumi, Qodiriy, Sa'diy va boshqa tariqatchilari asosida turk musiqasining eng yirik asarlari yaratildi. Bunda ayniqsa, Mavlaviy darveshlar musiqasi alohida o'rin tutadi.

Manbalarda ko'rsatilishicha, Yaman, Ruminiya, Albaniya, Liviya, Iroq, Suriya, Tunis, Jazoir va boshqa mamlakatlarda turk musiqasining ta'siri o'sdi. Bunga sabab 600 yildan ko'proq vaqt mobaynida Usmoniylar madaniyati Bolqon orqali Yevropaga, Afrikaning shimoliga, hatto arablar yashovchi ba'zi janubiy mintaqalarga ham tarqalgan. Ularning III-IV asr hukmronlik qilib kelganligida bo'lsa kerak bu xalqlarning kuylari, cholg'ulari, maqom va ritmlarida bu ta'sir hozir ham sezilib turadi. Boshqa birorta xalqning musiqasi mazkur o'lkalarga bu qadar katta ta'sir ko'rsatmagan. Turklar O'rta Osiyoda tizimlashgan musiqa bilan shug'ullanganlar va vaqt o'tishi bilan uni rivojlantirganlar. XIII asrdan boshlab musiqaga bag'ishlangan ilmiy asarlar yozila boshlagan. Masalan, Safiuddin Urmaviyning "Sharafiya" va "Kitob-ul advor", Qutbiddin Sheroziyning "Durrat-ut toj", Abdulqodir Marog'iyning "Maqosid-ul alhon" va "Javome'ul alhon", Xizr ibn Abdullohning "Advor", Dilshod Badriyning "Murodnoma", Maxmud Chalabiyning "Fatxiya" va "Zayn-ul alhon" kabi ilmiy kitoblari yozilgan. XVII

⁴⁸ Унгер Этем. Турк музикаси хусусиятлари, Нафосат журнали. – Т.; 1993. 3-4 сон.

asrning ikkinchi yarmida turk musiqasining rivojiga Vixuri-zoda Mustafo Itri-efendilar katta hissa qo'shdi. U o'zning melodik jihatdan ifodaviy lirik qo'shiqlarining o'ziga xos ijrosi bilan mashhur edi. Ayniqsa, sultonlar Mahmud I va Selim III larning davrida Turk musiqasiga qiziqish yanada kuchaydi. 1828 - yili sulton Mahmud I professional harbiy orkestr yaratish maqsadida italg'yan kompozitori Dj.Donitsetti (G.Donitsettining ukasi)ni taklif qildi.

Turkiyaning musiqiy teatr hayoti aynan XX asrning 20-yillariga kelib faollasha boshladi. Bu davrda ham yetakchi janr operetta edi. Yevropa kompozitorlarining asarlari bilan bir qatorda turk mualliflarining ham asarlari sahnalashtirila boshladi. 1928 yili Anqara operetta teatri ochildi.

30-yillariga kelib, Turkiyada milliy kompozitorlik maktabi shakllanadi. Ularning yirik namoyondalaridan turk beshligi nomi bilan mashhur bo'lgan.



A.A.Saygun Dj.R.Rey U.Dj.Erkin N.K.Akses X.F.Alnar

Kompozitorlar asosan turk musiqasiga noma'lum bo'lgan janrlar va shakllarni o'zlashtirar edilar. Ular an'anaviy turk san'atiga murojaat etdilar, ijodiyotlarida milliy o'ziga xoslikni Yevropa musiqasining musiqiy-ifodaviy vositalari bilan sintezlashga intildilar.

1934 yili Anqara xalq uyi sahnasida Saygunning "Feridun" nomli birinchi turk operasi sahnalashtirildi.

1936 yili Ankarada davlat konservatoriyasining ochilishi, mamlakat madaniy hayotida muhim hodisa bo'ldi. Konservatoriya Yaqin va O'rta Sharqdagi yirik musiqiy markazga aylandi.

40-50 yillarda turk musiqasi milliy kompozitorlarining ijodi asosida yangi simfonik asarlar bilan boyidi. Teatr va kontsertlar faoliyati faollashadi. Ankara va Istanbul teatrlarida turk kompozitorlarining o'eralari qo'yila boshlanadi. 1945 yili Istanbul shahri simfonik orkestrining kontsertlari bo'lib o'tdi.

XX asrning 50-60 yillarda turk kompozitorlari Sharq uchun yangi bo'lgan janrlarni o'zlashtira boshladilar. Ko'pgina o'eralar, simfonik, kamer-cholg'u asarlari yaratildi.

Yildan-yilga musiqiy-o'quv muassasalarining soni ko'payib bordi. 1973 yili Istanbul davlat konservatoriyasi ochildi. Turkiyada Anqara davlat operasi (1980), Istanbul davlat operetta va balet teatri, simfonik orkestrlar, cholg'u-vokal ansambllar faoliyat yurita boshladilar. Anqara davlat konservatoriyasi, Istanbul munitsi'al konservatoriyasi, Istanbul davlat konservatoriyasi, Izmir davlat konservatoriyalari o'z faoliyatlarini yo'lga qo'yidilar.

1975 yildan boshlab har yili Istanbulda "Istanbul san'at festivali" nomli xalqaro musiqiy festivalg' bo'lib o'tadi.

Turk musiqa san'atida usul (ritm) lar 2 turga bo'linadi, kichik va katta usullar. 2 – 16 hissali bo'lgan ritmlar kichik, 16 – 124 hissali qismlilari katta usullardir. Turk musiqasida umumlashgan ikki hissali va uch hissali ritmlar yo'q, ularda faqat o'z nomiga ega bo'lgan ritmik formulalar bordir, ya'ni aksak(oqsoq) – cho'loq, mandira – itxona, xafif – yengil va hokazo. Bu nomlanishlar ularning xarakterini yoki paydo bo'lish joyini ifodalashi mumkin yoki musiqada qabul qilingan she'riy ritmlarning nomlarini ko'rsatishi mumkin.

Oqsoq ritmi uchta ikki hissali va bitta uch hissali guruhlardan tuzilgan. Bu ritm harakatining bir xilda emasligi uning nomidan ham ko‘rinib turibdi.

Saqil – og‘ir usul, 39 ta zarbdan iborat murakkab tuzilmani o‘zida mujassam etadi.

Xalq musiqasi bilan bir qatorda va uning ta’siri ostida an’anaviy, ya’ni klassik musiqa ham shakllanadi. An’anaviy turk san’atida oshiqlarning roli nihoyatda kattadir. Oshiqlar san’ati she’riyat va musiqani o‘z ichiga olgan. Oshiqlar odatda o‘zlari yaratgan qo‘shiqlarni soz jo‘rligida ijro etadilar. San’atlari xalqning o‘y-xayollari, azob-uqubatlari bilan bog‘liq bo‘lgan oshiqlar xalq orasida juda mashhur edilar. Avloddan avlodga og‘zaki an’analar yo‘li bilan oshiqlarning mohirona mahorati berilib, turk xalq san’atining o‘ziga xos qirralari saqlanib boradi. Oshiqlarning qo‘shiqlari kuy va usul jihatdan turlichadir. Ko‘p hollarda usul jihatdan aytimlar erkin badihaviylikni namoyon etadi, cholg‘u jo‘rligidagi asar esa, aniq bir metro-ritmik asosda davom etadi⁴⁹.

Turkiya an’anaviy musiqaning yetakchisi hisoblanmish maqom turlaridagi asarlarga nisbatan “fasl” atamasi ishlatiladi. “Maqom – o‘z navbatida cholg‘u-ashula yo‘li bo‘lib, cholg‘u cholg‘ular jo‘rligida ijro etilib kelingan. Ularni turkum sifatida ham ijro etish mumkin. Odatda, maqom katta turkumiy shaklni tashkil etadi. Turk atoqli olimi Etem O‘ngerning fikriga ko‘ra turk mumtoz musiqasida 556 maqomlarning nomlari eslatiladi. Biroq, bularning hammasi ham hozirga qadar yetib kelmaganligini, hattoki ba’zilarining parda asoslari noma’lum ekanligi qayd qilinadi.

Turk mumtoz musiqasidagi maqomlarning asosiy va eng qadimgi namunalari quyidagilar: ***Puselik, Chorgoh, Evich, Hijoz, Husayniy, Isfahon, Kurdi, Muxayyar, Navo, Nikriz, Rost, Sabo,***

⁴⁹ Ozkan Ismail Hakki. Turk musikisi nazariyati ve usulleri. – Istanbul, 1987. 94-96 6.

Segoh, Shexnoz, Mohir, Ushshoq, Zengulalar kiradi. Bu fasllar o‘zlarining tarkibiy xususiyatlariga qarab uch yirik turga bo‘linadi:

Oddiy (asosiy) fasllar.

Ko‘chirimli (trans‘ozitsiya) fasllar.

Murakkab fasllar.

Birinchi turdagi oddiy maqomlar – ikkinch va uchinchi turdagi fasl (maqom)larning asosiy omili⁵⁰. Oddiy maqomlarda bitta to‘rtlik (tetraxord) va bitta beshlik (Pentaxord) yoki aksincha, bitta beshlik va bitta to‘rtlik orqali paydo bo‘ladi. Turkiyada mavjud oddiy fasllar tarkibiga jami 13 ta maqom kiradi. Ular Chorgoh, Puselik, Kurdi, Rost, Ushshoq, Husayniy, Navo, Hijoz, Xumoyun, Zengula, Qorachar, So‘zinaklardan tashkil topgan.

Bir maqomdan boshlanib, boshqa pardaga ko‘chirilgan fasl-maqomlar ko‘chirimli, ya’ni trans‘ozitsiyali maqomlar deyiladi. Ko‘chirimli maqomlar tarkibiga – Chorgoh, Busalik, Kurdi, Zerguleli, Hijoz, Neva, Segohlar kiradi. Yuqorida ta’kidlanganidek, ular oddiy maqomlardan hosil bo‘ladi.

Murakkab maqomlar oddiy maqomlarga nisbatan shakl jihatidan, mazmunan va tarkiban murakkablashgan maqomlardir. Turk murakkab maqomlarining kelib chiqishi tarixi bir qator manbalarda zikr etilgan. Xususan turk olimi Yilmas O‘ztuna o‘zining “Turk dunyasi el kitabi” asarida quyidagicha ta’riflaydi: “Turk musiqasi tarixida Salim (1789-1808) ismi bilan elga mashhur podsho bo‘lgan. U davrda ijrochi musiqachilar juda kam bo‘lib, podsho Salim o‘z musiqa tarixini boyitish maqsadida musiqachilarga turli xil maqomlarni yozishni buyuradi. Yozilgan har bir maqom uchun esa ularga mukofot ta’sis etadi. Ayrim manbalarga ko‘ra, Salimning o‘zi ham bastakor sifatida 15 ta maqom faslini yaratgan ekan”.

⁵⁰ Беляев В. Турецкая музыка. О музыкальном фольклоре и древней письменности. – М.; 1967.

Turk musiqiy cholg'ulari

Turk musiqiy cholg'ulari Turk musiqiy cholg'ularining rang-barangligi. Turk xalq cholg'ulari (folklor), ansamblg' tarkibi va turlari (dovul, zurna, bog'lama, soz, kamoncha va h.k.)

Turk "san'at musiqasi"ning cholg'u ansambli tarkibi: nay, klarnet, kamon (kamoncha), ud, sumbush (udsimon cholg'u), qonun, darbuka, "yoyli tanbur" tanbur va uning turlari.

Turk xalq musiqiy cholg'ulari quyidagi guruhlarini iborat: torli cholg'ular: **baglama, soz, tor;**

Torli kamonli cholg'ular: **skripka yoki kebab kemane, Qora dengiz kemanchasi;**

Damli cholg'ularga: **zurna, nay, fleyta, volinka;**

Zarbli cholg'ular: **baraban, buben, davul, def va qoshiq.**



Baglama – Turkiyada eng ko'p tarqalgan xalq cholg'usidir. Kelib chiqish joyi va o'lchovlari vohasiga qarab turlicha ataladi. SHunga qarab, ularning hajmida ham muayyan o'zgarishlar yuzaga keladi. Bular **baglama, devan-sozi, bozuk, chogur, ko'uz, irizva, djura, tambura** va hokazo.

O'lchovlari bo'yicha eng kichik va tovushi bo'yicha eng ingichka **baglama** bu **djura**dir. O'lchovi sal kattaroq va tovushi bir oktavaga balandroq cholg'u – **tambura**dir, baglama oilasidagi eng kuchli tovush **devan** sozidir, uning tovushi tamburaga nisbatan bir oktavaga balandroqdir.

Baglama old va orqa qismlardan iborat. Dastaning orqa qismidan uzoqroqda

joylashgan qismida burgʻu qismlari joylashgan boʻlib, ular yordamida cholgʻuning akkordlari chalinadi. Baglama mizrob (mediator) bilan chalinadi. Mizroblar gilos daraxti ildizidan yoki plastmassadan ishlangan. Baglama uch guruh torlarga ega boʻlib, bu guruhlarining har birida ikkita yoki uchta tor joylashgan. Har bir guruh turli akkordlarga ega. Misol uchun baglama turlaridan biri quyidagi tovushlarga sozlanadi: ‘astki tor Lya, oʻrta tor Re, yuqori tor Mi.

Akkordni ijro etishning bu koʻrinishidan tashqari yana Kara Duzen, Misket Duzeni, mustezat, Abdal Duzeni, Rast Duzeni va hokazolar bor.



Tor – turk xalq cholgʻusidir. U Turkiyaning Kar viloyati hamda Azarbayjon, Eron, Oʻzbekiston va Gruziya hududlarida keng tarqalgan.

Cholgʻu ikki qismdan tuzilgan boʻlib, tut daraxtidan ishlanadi. Oldingi qismi mol

yuragidan ishlangan parda bilan qoʻlangan. Dastasi qattiq daraxtlardan ishlanadi. Torlari faqat ichakdan tayyorlanadi. Tor cholgʻusining ikki guruh simlari bor. Birinchisi uch guruh simlardan tuzilgan boʻlib, ularning har birida ikkitadan sim bor, u oddiy ijro uchun ishlatiladi. Ikkinchi guruh esa **“kek”** va **“zenk”** deb nomlanadi aks sado berish, yaʼni sadoni boyitish uchun ishlatiladi.



Kebab kemane
(skripka) – turk xalq
torli kamonli
cholgʻusidir. Shakliga
koʻra koʻpgina
koʻrinishlari mavjud.
kabak, kamane, iklig,
rabab shular
jumlasidandir. Kemane

Xatay hududidada **xegid**, Turkiyaning Janubi-Sharqida **rabab**, Azarbayjonda **kamancha**, Oʻrta Osiyoda **gidjek** yoki **gjek** deb ataladi. Sanab oʻtilgan cholgʻularning hammasi bir turdagi cholgʻu boʻlib oʻzbek gʻijjak cholgʻusiga oʻxshashdir.

Cholgʻuning asosi suv qovogʻidan, baʼzida daraxtdan yasaladi. Dastasi qattiq daraxtdan ishlanadi. Cholgʻuning asosi ostida (yogʻoch yoki metallardan yasalgan) moslama oʻrnatilgan boʻlib, u tizzaga qoʻyiladi. Natijada cholgʻuning oʻng yoki chapga burilishi uchun imkoniyat tugʻiladi. **Kamoncha** – uchlariga ot dumining tolasi mahkamlangan yogʻochdan yasalgan qurilmadir.

Bu cholgʻu aniq bir ladga ega emas, shuning uchun ixtiyoriy xromatik tovushlarni chiqaradi. Tovushning oʻziga xosligi shundaki, u davomli tovush chiqaradi va unda **legato, staccato, pʻizzicato**larni erkin ijro etish mumkin.



Qora dengiz kemanchasi –
turk xalq torli cholgʻusi.
Nomidan ham koʻrinib
turibdiki, u Qora dengiz
boʻylarida keng tarqalgan.
Asosiy qismi tut, olxoʻri

daraxtlaridan ishlanadi. Kamoncha atirgul yog‘ochidan yoki samshitdan ishlanadi. Kamonchaning uch joyiga ot dumining tolasi mahkamlanadi.

Kemancha faqat uchta simga ega, qadimda ularni hayvonlarning ichaklaridan yasashgan, hozirda metall simlardan foydalaniladi. Kemancha biron bir aniq ladga ega emas. Kemanchada birdaniga ikkita simga bosib kuy chalinadi. ‘arallel tovushlar tarqaladi. Kaft bilan ham chalish mumkin.



Zurna turk xalq damli cholg‘usi. Qattiq jaranglagani uchun u ochiq maydonlarda ijro etiladi. Masalan: qishloq to‘ylarida, xalq sayillarida. Usman im‘eriyasi davrda zurna Yanicharlar musiqiy orkestrining asosiy cholg‘usi edi. Oraliq raqslar uchun ham qo‘llangan. Zurna ko‘p hollarda baraban jo‘rligida ijro etildi.

Zurnaning sadosi chuqur va qattiq bo‘lganligi uchun sur‘atni boshqarish qiyin. U odatda orkestrda boshqa musiqiy cholg‘ular bilan birgalikda chalinadi.

Zurna ikki oktavali tovushli masofaga hamda 8 musiqiy pardaga ega, ulardan biri ‘astda, qolgan yettitasi cholg‘uning yuqori qismida (Xuddi o‘zbek surnayi kabi) joylashgan. pastki parda oldingi qism yo‘nalishida joylashgan va birinchi ikkita pardadan o‘tadi. pardalar 6-8 smli aylananing diametri o‘lchovidir va voronka ko‘rinishida 30-60 sm narida tugaydi. Bu qism katak (nozdrya) deb ataladi. Zurna cholg‘uning damli qismidagi ingichka sterjen yordamida chalinadi. Bu qism “Metem” deb nomlanadi. Ijro texnikasini osonlashtirish uchun metemga xalqa taqiladi, bu qismni avurtduk deb nomlanadi. Zurnani chalishning eng keng tarqalgan turi unga burundan nafas olib, ya’ni nafas qaytarib, uzluksiz puflashdir.

Pardalardan tashqari katak qismida 7 teshik bo‘lib ular pardalarga nisbatan kichikdir. Ularni “*shayton*” yoki “*jin*” teshiklar deb ataladi. Bu teshiklar tovushni boshqarish uchun berkitib turiladi.

O‘lchovlari 60 smdan 30 smgacha o‘zgaruvchi zurna 3 qismga bo‘linadi:

Kaba zurna (qo‘pol zurna), Orta zurna (o‘rta zurna) va Djur zurna (jarangdor zurna). Zurna odatda olxo‘ri, o‘rik, yong‘oq, salimit daraxtlaridan ishlanadi.



Nay – turk xalq damli cholg‘usi. Uni xalqda cho‘ponlar nayi deb ham atashadi. Har xil joylarda **kuval** yoki **guval** nomi bilan tanilgan. Diapazoni 2,5-3 oktavani tashkil etadi. Hozirda xalq musiqiy

cholg‘ular guruhida o‘ziga xos koloritiga ko‘ra ajralib turadi. Guruhda yakkaxon cholg‘u sifatida ishlatiladi. Ansamblda cholg‘u tovushining o‘ziga xosligini saqlaydi. Nayning o‘lchovlari 30 dan 80 smgacha o‘zgarishi mumkin, diametri taxminan 1,5 sm. Yuqori qismida 7 kuyli tonlar, pastki qismida 1ta. Bundan tashqari pastki qismida yana 4 ta ton bor, ularni **shayton deligi** va **Xazreti Ali** deb nomlashadi. Ikki turdagi naylarni ajratish mumkin: mundshtukli va mundshtuksiz. Nay olxo‘ri daraxtidan yasaladi.

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Turk etnik va madaniy tarixiga oid umumiy ma’lumotlar bering.
2. Turk maqomlari. Ularning ritmik tizimi, usul shakllarini aytib bering.

3. Amaliyotda shakllanib rivojlangan Turk musiqiy cholg'ularini keltiring va rang-barangligini aytib bering.

4. Turk xalq cholg'ularining xalq yo'nalishlarida folklor, ansambl tarkibida qo'llanilishi va ularning turlari xususida ma'lumotlar.

5. Nay, klarnet, kamon (kamoncha), ud, qonun, darbuka, "yoyli tanbur", tanbur va uning turlari xususida ma'lumot bering.

Mavzu bo'yicha topshiriqlar:

1. Turk etnik va madaniy tarixiga oid umumiy ma'lumotlar.

2. Turkiy xalqlar musiqasi "buyuk ipak yo'li"da Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarini o'zaro bog'lab turuvchi muhim madaniy omili.

3. Turkiy xalqlar musiqiy tillarining shevalarga, mahalliy etnik yo'nalish, uslublari;

4. Turk maqomlari va ularning ritmik tizimi.

5. Zamonaviy turk musiqasining rivojlanish tamoyillari.

6. Mavzu xususida Internetdan materiallar to'ish va ta'rifini keltirib yozish.

7. O'tilgan mavzu bo'yicha krossvord tuzish.

XI-XII DARSLAR: ERON MUSIQA MADANIYATI



Eron Islom Respublikasi (Jumhuriye Islomiye Iron) –janubiy-gʻarbiy Osiyodagi davlat. Aholisi 70 mln.ga yaqin. poytaxti – Tehron shahri. Eronda 30 dan ortiq millat vakillari yashaydi. 75 % ga yaqini eron tillari guruhiga kiruvchi xalqlar: fors, gilon, mozandaron, kurd, baluji, afgʻon va boshqalar tashkil etadi. Turkiy til guruhiga ozarbayjon, turkman, shuningdek, arab, arman, gruzin, ossuriy va boshqa xalqlar yashaydi. Rasmiy til – fors tili. Dini – islom dinining shia mazhabi. Yirik shaharlari: Tehron, Isfahon, Mashhad, Tabriz.

Eron qadimiy sharq davlatlaridan biridir. Uning shakllanish davrlari milloddan oldingi uch minginchi yillar boshiga borib taqaladi. Milloddan oldingi VI asrda esa zabardast hisoblangan Ahamoniylar davlati paydo boʻlgan. Shuni qayd qilish joizki, Kushonlar (I – IV

asrlar) davri ham, o‘zining yuqori madaniy san’ati bilan tarixda katta iz qoldirgan. Sosoniylar (IV – VI asrlar) davrida ham, Somoniylar (IX – X asrlar) hukmronlik qilgan ‘aytlarda ham, Saljuqiylar (XIII asrning o‘rtalari) davrida va qolgan XII – XVIII asrlarda ham Eron xalqining o‘ziga xos san’ati, ma’naviyati va ijtimoiy hayoti o‘z mavqei darajasida rivojlandi⁵¹. Har bir davr tarixda o‘ziga xos iz qoldirdi. Eron xalqining milliy an’analarida shakllangan san’at namunalari ayrim hollarda o‘zga xalqlarning ma’naviyatlariga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsata olganligi tarixiy manbalarda zikr etiladi. Demak, ularning o‘ziga xos madaniy san’ati shakllanib kamolotga yetgan qadriyatlari mavjud bo‘lgan. Shular orasida alohida e’tibor bilan Sosoniylar davri musiqa madaniyati tarix zarvaraqlariga bitilgan.

Sosoniylar musiqa madaniyati va umuman, Eron musiqasi tarixi xususida taniqli musiqashunos olim **M.Barkeshli** o‘zining “Eron dastgohlari” kitobida batafsil fikr yuritgan. Ushbu kitob Eron klassik musiqasi (maqomlari) bo‘lmish 7 ta dastgohlarning nota yozuvlari va ularga berilgan tarixiy va ilmiy – nazariy izohlari bilan berilgan. Bu izohlar fors va frantsuz tillarida bayon qilingan. Ayni paytda kitob M.Ashrafiy muzeyida saqlanmoqda. Muso Ma’rufiy va mohir sozanda va musiqashunos olim Dariush Safvutalar (“Ustodoni musiqiy Eron va alg‘honi musiqii Eron”, fors tilida Tehronda nashr etilgan) o‘zlarining Eron musiqasi tarixi xususida yaratgan risola va kitoblarida keng bayon etadilar. Ularda yozilishicha, Eron musiqa san’ati shu davrga kelib gullab yashnagan. Musiqa namunalari bilan birga turli adabiy, falsafiy, tarixiy va ilmiy risolalar yuzaga kelgan. Musiqa shunchalik keng rivoj topdiki, ular nafaqt kelgusi avlodlarga qoldirish darajada mukammal bo‘lgan, balki ular boshqa xalqlar musiqa madaniyatiga, hattoki arab musiqasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatagan edi.

Tarixiy manbalarda bayon etishlaricha, bu davrning alohida shaxslari tarixiy asarlar yaratishga, o‘z ijrolari, musiqiy ohanglariga

⁵¹ Музыкальная энциклопедия. Иранская музыка. Том II. – М.; 1974. С.561-569.

yangilik kiritishga muyassar bo‘lib, avlodlar tomonidan doimo esga olingan. Shulardan biri **Darvesh Ali Changi**ning musiqiy risolasida keltirilgan **Bahrom Gur**(420 – 475 yillar)dir. U og‘zaki ijodiyotda, doston va rivoyatlarda Bahrom Go‘r nomi bilan mashhur bo‘lgan Eron shohidir. Risolada yozishlaricha, u mislsiz talant sohibi bo‘lgan. Shu davrda 6 ta yangi usullar yaratilgan edi. Shulardan ikkitasi Bahrom Go‘r tomonidan ijod qilingan, “Du - yak” usuli esa mohir chang ijrochisi **Ozodvor**ga mansubdir.



Soz cholg'usi

Sosoniylar davri musiqa san'ati, umuman, Eron musiqa madaniyatiga katta o‘zgarishlar olib keldi. Ijrochilar ham ijod ham o‘ziga xos murakkab “kasbiy” deb ataluvchi yo‘nalishga xos burilish yasadi. Ya’ni, kasbiy musiqa an’analari ijod jarayoniga kiritildi. Natijada, mohir va bilimli san’atkorlar, o‘z kasbining ustalari mohir sozandalar ajralib chiqdi. Ular yaratgan musiqiy namunalar ham tarixda muhrlanib, hozirgacha saqlanib kelingan. Shu davrning mohir musiqachilaridan biz **Romtin, Bamshod, Noqissa, Ozodvor, Sarkash** va **Borbad** kabilarni misol qilishimiz muki. Ular orasida bo‘lgan ijrochilik raqobati yoki ijodiy musobaqa negizida juda ko‘p musiqiy namunalar yaratilgan. Musiqaning qadimiy an’alarida “*lahn*”, “*parda*”, “*doston*”, “*roh*”, “*xusravoniy*” kabi nomlar bilan

ataladigan musiqiy namunalar shakllari mavjud bo'lgan. Bu asarlar ana shunday sozandalarning ijodlarida shakllangan. Hattoki ilk bor mumtoz musiqaning namunalari ham shu davrga kelib shakllana boshlangan.

Ushbu davrning musiqa san'ati namunalari misolida zabardast sozanda va bastakor Borbadning ijodi keng yoritilgan. Uning ijodiy namunalari nomlari bizning davrimizgacha saqlanib kelingan. Bu xususta musiqashunos olim O.Matyoqubov o'zining "Og'zaki an'anadagi professional musiqa asoslariga kirish" kitobida shunday yozadi: "O'rta Osiyo va Eron xalqlarining arab istilosidan oldingi kasbiy musiqasida mashhur bo'lganlardan biri Xusravoniylar (shohona, ya'ni eng mukammal musiqa turi) turkumidir. Bu turkumga **"Ganji arus"** ("Kelinchak xazinasini"), **"Ganji Faridun"** ("Faridun xazinasini"), **"Kini Siyovush"** ("Siyovush qasosi") va boshqa yo'llar kirgan. Har bir Xusravoniy ikki qismdan va o'z navbatida kichik bo'limlardan tuzilganligi, hamda bu kuylar ovoz va cholg'ularda ijro etilganligi qayd qilinadi.

Qadimiy musiqaning yana bir mashhur turlaridan biri lahnlar turkumidir. Bu kuylarning nomlari va tartibi manbalarda turlicha keltiriladi" deb, **Borbad** nomi bilan bog'liq 30 ta lahnning nomini keltiradi. SHuni ta'kidlash joizki, Borbad Marviy nafaqt eron musiqasi asosichisi, balki o'zbek-tojik mumtoz musiqasining bobokaloni hamdir.



Sosoniylar davri ayol sozandasi

Tarixiy manbalarda musiqiy cholg'ular xususida ham alohida ma'lumotlar keltirilgan. Ularga ko'ra Eronda qadimdan naysimon – **saffara**, qo'shnayga o'xshash – **dunay**, tanbursifat – **'andora**, urma cholg'ular – **tabla** va **durrang** mavjud bo'lib, ud esa asosiy va mukammal cholg'ulardan biriga aylangan.

Keyinchalik esa Eroniylarning **ud**, **rud**, **rubob**, **tor**, **barbat**, **tanbur**, **chang**, **nuzxa**, **mug'na**, **shohrud**, **qonun**, **nay**, **mizmor**, **dunay** va **surmay** kabi cholg'ulari amaliyotda mashhur bo'lganligi borasidagi fikrlar manbalarda zikr etiladi. Bularning hammasi Sosoniylar davridagi musiqa madaniyatining ma'lum darajada rivoj topganidan va bu jarayon o'z oqimida va shu o'lkalarga xos tarzda davom etganligini ko'rsatadi.



Tor va tombak



G'ychak




Dovul

Buyuk ajdodlarimiz hisoblangan va aynan IX-X asrlarda yashab ijod etgan **Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abulqosim Firdavsiy, Abul Faraj Isfahoniy, Safiuddin Urmaviy** kabi bir qator mutaffakir olimlarimizning musiqa sohasidagi qoldirgan benazir va ulkan merosi ko‘p xalqlar qatori Eronda ham milliy ma’naviy qadriyatlar sifatida e’zozlanadi.

Borbadning ijodiy faoliyati.

Eramizning ilk asrlarida yashab ijod etgan va o'z ijodlari bilan tarix rivojiga, xalqlarning madaniyati, ma'naviyati, siyosiy va ijtimoiy hayotlariga o'z ta'sirlarini ko'rsata olgan namoyandalar tarix zarvaraqlariga bitilganlar. Ularning bizga qoldirgan meroslari va ayniqsa hayot tizimining rivojiga qo'shgan hissalarini umumbashariy taraqqiyotga ham o'z ta'sirini ko'rsatganligini inobatga olish lozim. Biz sizlar bilan o'tadigan mavzuimiz, o'tmishda, tarixda yashab ijod etib, musiqa san'atida yorqin iz qoldirgan va kasbiy musiqaning shakllanish jarayonida o'zini namoyon etgan zabardast sozanda va bastakor Borbad haqidadir. Umuman Borbad haqida juda ham ko'p afsonaviy va tarixiy ma'lumotlar mavjuddir.

Borbad – Markaziy Osiyo xalqlari va ayniqsa Eronliklar o'tmish musiqa madaniyatining mashhur namoyandasidir. IV-VI asrlarda, O'rta Osiyoda Sosoniylar davlati hukmronlik qilgan. Manbalarda yozilishicha, bu davrda 65 ta hukmdor podsholik qilgan. Ulardan uchtasining faoliyati va davri tarix zarvaraqlariga bitilgan. Shulardan eng yirigi Xusrav Parviz bo'lgan va uning hukmronlik qilgan vaqti (591-628) tarixda “Sosoniylarning oltin asri” deb yuritiladi. Borbad xuddi ana shu Xusrav Parviz zamonasida, uning saroyida musiqachilarning sardori sifatida xizmat qilgan. Shu bilan birga Borbad nafaqat musiqachilarning boshlig'i, balki mohir sozanda, bastakor va musiqashunos sifatida tanilgan va ijod qilgan. Tarixda uni ba'zan Borbad Marviy deb atashadi. Ushbu taxallus uning tug'ilgan joyini anglatadi. Barbad, ayrim manbalarda Marv (hozirgi Turkmaniston xududidagi qadimiy shaharlardan biri)da tug'ilgan degan ma'lumotlar bor.



Borbad (arab manbalarida Fahlabad Marviy taxminan 581-628/38 Marv) – atoqli sozanda, xonanda, shoir va bastakordir.

Dastlab, ijro va ijod sirlarini o‘z otasidan o‘rgangan, Marvga ko‘chib, bu yerdagi mashhur ustozlarga shogird tushgan. Keyinchalik (618-28 yillar) Sosoniylar davlati shohi Xusrav II Parviz saroyida xizmat qilgan.

Sosoniylar sulolasi hukmronligi qariyb 400 yil (226 – 654) davom etgan. Bu davrda ilm-fan, san‘at sohasiga juda katta e‘tibor berilgan. Adabiyot va musiqa san‘ati Xusrav I davrida rivojlandi. Xusrav II davrida esa madaniy hayot yanada gullab yashnadi⁵².

Sosoniylar davrida, adabiyot, tibbiyot, astronomiya va musiqa e‘tibor kuchayadi. Boshqa xalqlarning san‘ati (masalan, qadimgi Ellada madaniyati) ta‘sirida madaniyat rivojlandi. Tarixiy adabiyotlarda bu davr san‘ati yuqori darajada ekanligi haqida ma‘lumotlar bor.

⁵² Барбад: Эпоха и традиции культуры. – Душанбе. 1989. С. 10-17.



Tanbur va dutor cholg'ularining turli namunalari

Sosoniylar sulolasining asoschisi **Ardamir Bobokon** saroy musiqachilari va qo'shiqchilariga ko'p mablag' ajratgan. Bayramlarda, sayillarda yuzlab professional va havaskor musiqachilar qatnashgan.

Abu Mansur Saolibiyning aytishicha Sosoniylar hukmdori Bahrom Go'r Hindistondan 400 ta qiziqchi, raqqosa va mohir musiqachilarni o'z saroyiga keltirgan. Shular orasida Barbad, Nakiso, Sarkab, Navogar, Gisu va boshqalar.

Qadimgi arab tilida yozilgan yozma yodgorliklarda Barbadning hayoti, ijodi va musiqa me'rosi haqida ilk ma'lumotlar berilgan.

Muhammad Nishopuriyning "Risolai dar ilmi musiqiy", Abdulqodir Marog'iyning "Maqosid al-alhon" ("Musiqa maqsadi") singari risolalarda Borbad yaratgan mashhur yetti qismli "**Xusravoniy**" turkumi, shuningdek, "**Doston**" deya nomlangan kuy va qo'shiqlar ta'riflanadi, ijodiy jarayoni tahlil etiladi.

Al-Johiz, Abul Faraj Isfahoniy, Abu Mansur Saolibiy kabi mualliflarning ilmiy-badiiy asarlari Borbad ijodiga mansub 360 ta qo'shiq, 30 ta cholg'u kuylari, hamda 7 ta "Xusravoniy" – Sharqda keng tarqalgan fazoviy tafakkur in'ikosi, ya'ni yilning 360, oyning 30 va haftaning 7 kunlari bilan bog'liq bo'lganligini ta'kidlaydi.

Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”si, Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin”i, Amir Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav”i, shuningdek, keyingi davrlarga oid qator badiiy asarlarda Borbadning issiqnafas hofiz, mohir sozanda, badihago‘y bastakor ekanligi ifodalangan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Borbad Marv shahrida tug‘ilgan. Xusrav II Parviz saroyida yashab, saroy musiqachilarining sardori etib saylangan.

1. Al-Johiz va Firdavsiylarning aytishicha, Xusrav II o‘limidan so‘ng Borbad musiqa bilan shug‘ullanmaydi. U barmoqlarini kesib, hamma musiqa cholg‘ularini esa olovga tashlaydi.

Rizoqulixon Hidoyat o‘zining “Ma’ma - al - fusaha” asarida Borbad musiqa nazariyasining yagona bilimdoni bo‘lgan, aytishlaricha uning asarlari mashhurdir.

Borbad Sosoniylar davrida musiqa sohasida mashhur bo‘lgan, shuningdek, Sharq musiqa madaniyati rivojlanishining asoschisi hisoblangan. U yaratgan kuy - qo‘shiqlardan 148 tasi nomlanishiga ega. Ularning nomlanishi haligacha Sharq mamlakatlarida o‘zgarmagan.

Nizomiy “Xusrav va Shirin” dostonida “Barbadning 30 ta kuyi” bo‘limida Barbadning mahorati, so‘ng 30 baytda qo‘shiqlarining nomlari sanalgan. Bular quyidagicha:

- | | |
|------------------------|------------------|
| 1. Ganji bodovard | 16. Sarvi sihi |
| 2. Ganji gov | 17. No‘shinboda |
| 3. Ganji so‘xta | 18. Romishi chon |
| 4. Shodurvoni marvarid | 19. Nozi Navro‘z |
| 5. Taxti taqdisi | 20. Mushkuya |
| 6. Noqosu (Zang) | 21. Mehrgoni |
| 7. Avrangi | 22. Marvoi nek |
| 8. Ho‘qqam Kovus | 23. Shabdiz |

- | | |
|---------------------|-------------------------|
| 9. Moh bar kuhon | 24. Shabi Farrux |
| 10. Mushkdona | 25. Farrux ro‘z |
| 11. Oromish Xurshed | 26. G‘unchai kabki daro |
| 12. Nimro‘z | 27. Naxchirgon |
| 13. Sabzdar sabz | 28. Kini Siyovush |
| 14. Qulfi rumi | 29. Kini Erach |
| 15. Sarviston | 30. Bog‘i Shirin |

Dostonda Borbad bilan Nakiso orasidagi ijodiy raqobat ko‘rsatilgan. Nakiso Shirin nomidan 27 baytli, Borbad esa 26 baytli qo‘shiq ijro etadi. Dostonning oxirida Borbad Xusrav II o‘limidan so‘ng barmoqlarini kesishi haqida parchalar bor.

Amir Xusrav Dehlaviy esa “Shirin va Xusrav” dostonida Barbadni ikki asosiy ko‘rinishda tilga oladi:

1-ko‘rinish. Xusrav ovda Shirinni ko‘rib sevib qoladi. Quvonchidan Xusrav tantanali kecha o‘tqazadi. Bu yerda Borbad va uning san‘ati yuqori darajada tasvirlanadi. “Ganji bodovard” kuylanadi. Borbad qo‘shig‘i Xusravni mast qilib qo‘yadi, u dunyodagi hamma narsalarni unga bahshida etishini aytadi. Xusrav Barbadning har bitta musiqa tovushini marvaridga qiyoslaydi va Barbadga ko‘p sovg‘alar beradi. Borbad qimmatbaho sovg‘alar bilan uyga qaytib “Shodurvoni Marvarid” qo‘shig‘ini yozadi va buni Xusravga ko‘rsatadi. Bu qo‘shiq Xusravga kuchli ta’sir qilib, sevgi his - tuyg‘ulariga berilib ketadi.

2 - ko‘rinish. Xusrav saroyida tantanali bazm o‘tkaziladi. Bu bazmda Borbad va Nakiso qatnashadi. So‘ng Nizomiy dostonidek Borbad va Nakiso sevishganlar nomidan duet kuylaydilar. parchalarda ayriliq va uchrashuv, yoshlik va qarilik, sevgi, do‘stlik to‘g‘risida falsafiy qarashlar tasvirlangan.

Firdavsiyning “Shohnoma” asarida ham Borbad haqida fikr yuritilgan. Uning yozishicha, Barbadning mashhur bo‘lganligi (saroy

musiqachilari boshlig'i) Sarkashgacha yetib boradi. Sarkash raqobatchilikdan qo'rqib, uni saroyga kiritmasliklarini buyuradi.

Borbad saroyga kirmoqchi bo'lganida uni soqchilar qo'ymaydi. U Xusrav shohning Navro'z bayramini bog'da o'tkazishini eshitib qoladi va Mardo'y nomli bog'bon orqali u yashil kiyimlarda boqq kirib, barglar orasida yashirinadi. Quyosh botgandan so'ng Borbad o'zining musiqa asbobida "Dodofarid" qo'shig'ini kuylaydi. Hamma bu kuydan hayron qolib, podshoh musiqachini topishini buyuradi lekin hech kim topolmaydi. Shoh ikkinchi qadahni ko'targanda Borbad "Paykargurd" qo'shig'ini kuylaydi. podshoh uni izlashni buyuradi, yana hech kim to'olmaydi. Shoh uchinchi qadahni endi ichmoqchi bo'lgan vaqtida Borbad "Sabz andar sabz" qo'shig'ini kuylaydi va daraxtdan tushadi. Shunda Xusrav uni musiqachilar boshlig'i etib tayinlaydi.

"Shohnoma"da Borbadning Xusrav uchun achinib yig'lagani ham tasvirlangan. Shohning o'g'li otasidan taxtni tortib olganligini eshitib Borbad yig'lab yuboradi.

Manbalarda Borbad ayniqsa turkumli, xususan marosimlar bilan bog'liq bo'lgan asarlarga mehr qo'yganligi ta'kidlanadi. Har bir o'tqazilgan xalq sayllarida, shohning tantonavar kunlarida yangi asarlar yaratib, shohga hadya etgan. "Xusravoniy" yoki "Shohona" pardalarni takomillashtiradi. Har bir yaratilgan asari saroy muhiti, shohning ruhiyati bilan bog'liqdir.

Manbalarda qo'shiqlarning ba'zi bir nomlari saqlangan: ***"Yazdan ofrid", "Ganji bod ovar", "Bog'i Shahriyor", "Nimro'z", "Sabr dar sabz", "Kini Eradj", "Kini Siyavush", "Xaft ganz", "Rohi Shabdiz", "Bog'i Shirin"***.

Shuningdek u Navro'z bayramiga atab marosim qo'shiqlari yozgan. ***"Vostariyushan", "Vangix", "Sozi Navro'z"*** kabi qo'shiqlarda Navro'zni kutib olish, aholining mehnati kuylanadi.

Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038)ning ta’kidlashicha, bu qo’shiqlar “dehqon qo’shiqlari” deb yuritilgan. Bular: **“Bodi Navro‘z”, “Nozi Navro‘z”, “Sozi Navro‘z”, “Navro‘zi Xurdak.”**

Borbad bir necha asarlarini xalq qahramoni Siyovushga bag‘ishlaydi. Bular: **“Bog‘i Siyovush”, “Kini Siyovush”, “Siyovushon”** va boshqalar.

Borbad bastakor sifatida nainki badiiy adabiyotda, balki maxsus kasbiy ilm – ilmi musiqiyda ham tanilib, tan olinganligiga hech ham shubha yo‘qdir⁵³.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Borbad O‘rta Sharqda mumtoz musiqa san’atining ilk professional namoyondasi darajasiga ko‘tarilgan va aynan shu soha asoschisi sifatida tarixdan o‘rin olgan.

Eron Dastgohlari

Dastgoh – eron an’anaviy kasbiy musiqasining asosiy janri. Dastgoh va maqom tushunchalarining umumiyliigi. Dastgoh va O‘n ikki maqom turkumi: eron dastgohlarining tarixiy shakllari. Dastgoh turkum janri, ohang – tuzuk andozasi, kuy – mavzu andozasi va ta’lifiy (kompozitsion) qurilma – shakl. Dastgohlarning katta turkumi (makrotsikl) – 1. Shur va uning nag‘malari, 2. Moxur, 3. Xumoyun, 4. Segoh, 5. Chorgoh, Navo, 7. Rost-Panjgoh. Dastgoh turkumidagi nag‘malar tizimi – Abu Ato, Bayoti – Turk, Dashtiy, Segoh, Chorgoh, Humoyun, Isfaxon, Gusha va uning funktsional xususiyatlari, tutukzalning ma’lum tarkibiy qismlari. Ovoza turlari. Radif – dastgoh tizimining badiiy – amaliy mahsuloti, ya’ni aniq aytim-cholg‘u turkumiy “musiqiy asar” sifatida. Radif va o‘zbek maqomot amaliyoti. Radiflarning tarkibiy qismlari va ularning turkum takibida funktsional ahamiyatlari.

Radif Shur turkumining tahliliy – Muqaddima, Daromadlar (1,2,3 qv h.k.). Karashmalar (im’rviz). (Gushe Roxab, Karashma, Daromad,

⁵³ Ғофурбеков Т. Сайланма. – Т.; 2009. 21-б.

Karashma, Ovoz, Chaxor Mizrob, Nag‘ma) mas. Bayoti Turk), Xazine, Radif va maqomot tizimlarining mushtarakligi.

Muayyan radifning qiyosiy tahlili. Dastgohlarning mahalliy va shaxsiy ijodiy uslub va yo‘nalishlari, mashhur ijrochi va bastakorlar – Baruman, Shajarien, Mas‘udiy va boshqalar. Dastgoh tizimida musiqiy mavzuning shakllanish xususiyatlari. Ritmik rivojlanish xususiyatlari. Badiiy estetik ma‘no tizimi (tasavvuf estetikasi va radifning mazmuniy asoslari). Cholg‘u qismlari, improvizatsiya tamoyillari, intonatsion xususiyatlari.

Eronda ham barcha xalqlar qatori, xalq musiqasi ikki ulkan yo‘nalishga ega. Ya‘ni, xalq hayoti tizimiga oid va urf-odatlariga asoslangan, asrlar osha qadriyatlarga aylangan folklor musiqasi va maqomot tizimiga kiruvchi kasbiy musiqa namunasi – dastgohlardir. Dastgohlargacha kasbiy musiqa va musiqa ijodiyoti ham o‘z mezonida shakllanib rivojlangan.

Arab istilosidan keyin IX-X asrlarda Eron madaniyati zahirida mavjud bo‘lgan shakl va janrlar yanada rivoj to‘a boshladi. Shu davrga kelib kasbiy musiqa ijodiyotining namunalari sifatida **Roh, Nava, parda, Tarona, Xusravoniy** kuylari, **Rost, Rahoviy, Zirafkand, Zangula, Navro‘z, ‘arvona, Zobul, Nahib, Karashma, Tiroz, Ashur, Nag‘ma** kabi janr va shakllar yuzaga kelib, amaliyotda keng qo‘llanilgan. Shu bois bo‘lsa kerak, bularning barchasi keyinchalik maqomot tarkibidan joy olgan.

Klassik janrlarni shakllari va asarlarni rivojida Eronning mohir sozandalari va ohangsozlari (Eronda, bastakorlar ya‘ni, xalq yo‘lida asar yaratuvchilarga nisbatan **ohangsoz** iborasi ishlatiladi) xizmatlari katta. XIX asr va XX asrning birinchi yarmida **Mirzo Abdullo, Darvishxon, Abdulloxon, Mahmud Karami, Faromirzo ‘oydur, Abu al Hasan Sabo, Muso Ma‘rufi** kabi san‘at namoyandalari mohir ustozlar sifatida tanilganlar. Hozirgi davrda esa **Husayn Malik, Abul Hasan Saboh, Tohir Zoda, Shahnoz** kabi ijrochilar dastgoh

ijrochilik san'atini yetuk namoyandalari va davomchilari sifatida mashhurdirlar.

Dastgoh – Sharqning ko'p xalqlarida tarqalgan maqomotning o'ziga xos shaklidir. Bu xususda dastgoh ozarbayjon mug'omlari, arab maqomlari, o'zbek-tojik maqomlari va shu kabi boshqa xalqlar og'zaki an'anadagi kasbiy musiqalariga xos bo'lgan yirik turkumiy asardir. Zotan, Eron dastgohlari bir qator o'ziga xos xususiyatlari, bilan boshqa xalqlar kasbiy musiqasidan alohida ajralib turadi.

“Dastgoh” so'zini ko'p ma'nolarda ishlatishadi. Shular qatorida musiqiy iboralarda ham qo'llaniladi. Jumladan: musiqiy asar, tovushqator tizimida dastgoh iborasi ikki so'zdan tuzilgan: dast – “qo'l”, goh – “vaqt” va “joy” so'zlarining birikmasidan tuzilgan. Eron dastgohlarining tarkibiy qismlari yuqorida keltirganimizdek – 7 ta asosiy va 5ta yondosh qismlardan tashkil topgan. Bular asosiylari: **Shur, Segoh, Chohorgoh, Mohur, Xumoyun, Navo, Rost – Panjgoh** dastgohlari va quyidagi 5 ta – **Nag'mai Abu Ato, Nag'mai Dashti, Nag'mai Afshori, Nag'mai Bayoti Kurd, Nag'mai Bayoti Isfahon** kabi yondosh qismlar.

Eron dastgohlarining ham xuddi maqomlar kabi xususiyatlari mavjud. Bular: Shur (hayajonli), Xumoyun (ko'tarinki – shohona), Segoh (uchinchi ton), Chohorgoh (to'rtinchi ton), Rost – 'anjgoh (Rost, beshinchi ton), Navo (kuychan) va Mohur (qayg'uli).

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Eron dastgohlari badihaga asoslangan turkumiy asarlar majmuidir. Shu bois bo'lsa kerak turli musiqashunos olimlarning nota yozuvlarida ularning tarkibiy qismlari turli sonlarda keladi.

Bularning sonini o'zgarishini yana bir jarayon bilan ya'ni, turli davrlarda notaga olinganligi bilan ham izohlash mumkin. Chunki Eron dastgohlari doimo rivojlanish jarayoni bilan bog'liqdir.

Dastgoh turkumiy asarlarining har biri 40 dan 60 tagacha go'shalardan tashkil to'adi. Go'sha – dastgoh turkumining asar birligidir. Ular dastgohlar tarkibida har biri o'z ichki xususiyatlariga

asoslanadi va shunga ko‘ra nomlangan bo‘lsada, ular amaliyotda go‘sha iborasi bilan qo‘shib aytiladi. Masalan: ***Go‘sha Bastanogor, Go‘sha Choxorgoh, Go‘shai Shodarovni marvarid*** va h. k.

“Go‘sha” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi – burchak, tarmoq, aspekt; Kompozitsiya turkumidagi eng kichik tarkibiy elementdir. Ularning hajmi ham turliligi bilan ajralib turadi. Chunki shunday go‘shalar borki 3-3.5 daqiqa ijro etiladi va nisbatan katta bo‘lgan go‘shalar 25 yoki 30 daqiqa ijro etilishi mumkin⁵⁴.

Dastgohlarning so‘z bilan bog‘liq qismlari odatga ko‘ra klassik shoirlarning she‘r va g‘azallari bilan aytilib kelinadi. **Nizomiy Ganjaviy, Umar Hayyom, Hofiz, Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy, Hiloliy** kabi Sharq mutaffakir shoirlarining ijodi shular jumlasidandir. Dastgohlar xonanda va sozandalar tomonidan ijro etiladi. Ularning tarkibi odatda quyidagichadir: tor, kemancha, santur, nay va daff. Ular orasida tor yetakchi cholg‘u bo‘lib. Ijrochilikda keng qo‘llaniluvchi badiha uslubi ana shu cholg‘uda amalga oshiriladi. Zamonaviy dastgoh ijrochiligida skripka va boshqa ovrupa cholg‘ularini ham qo‘llash amaliyotga kiritilgan.

Xumoyun bir paytlar sho‘baning hosilasi sifatida yuzaga kelgan va asrlar davomida o‘zgarib mukammallashgan. “Uning yangrashni melanxolik, kuyi mayin”, deb ta’rif beradi Barkeshli. Shulardan Xumoyun III pog‘onasining pasaymaganligi bilan farq qiladi. Qolgan tovushlari bir-biriga mos keladi. Xumoyun ozarbayjon mug‘omlari va o‘zbek-tojik maqomlarida ham uchraydi, ammo gammalar nomlanishi bilan farqlanadi.

Segoh – ushbu lad asosida Sharq xalqlari folkloridan ko‘plab misollar to‘ish mumkin. Segohda 20 ga yaqin go‘shalar bo‘lib, ular orasida asosiysi 2 ta bo‘lib, modulyatsiyalovchi xesor va muxolifdir. 1-16 go‘shagacha asosiy tonlarni kuylanishi bo‘lsa, 17-go‘shadan

⁵⁴ Виноградов В.С. Классический традиций иранской музыки. – М.;1982. С. 105-115.

boshlab sezilarli og‘ishma va modulyatsiyalar beriladi. Lekin oxirida kuy dastlabki bosqichga qaytadi.

Choxorgoh yoki **Chorgoh** – qadimgi va sharqda taniqli dastgohlardan. Jomiy uni dastgohning sho‘ba qismi sifatida ko‘radi. M. Barkeshli “xursandchilik, quvnoqlik, baxt, dinamizm”ga boy musiqa deb e’tirof etadi.

Navo – Eron musiqa merosida kamroq ijro etilsada, muhim o‘rin egallaydi. M. Barkeshli shunday ta’riflaydi: “Ushbu tizim sokin, sekin, chuqur g‘oya, falsafiy doston”. Yana bir musiqashunosda “Navo tinchlik olib keladi” degan e’tirofni o‘qishimiz mumkin.

Shur – eronliklarning sevimli dastgohidir. Xalq qo‘shiq va raqslarining juda katta qismi ana shu lad asosidadir. U yumshoq, mayin, she’riy va lirik bo‘yog‘i bilan ajralib turadi. V. Vinogradov unga shunday ta’rif beradi: “Uni eshitib, Erondagi yashovchilar va Eron go‘zalliklarini tushunish mumkin. Oy yorug‘ida tinch oqayotgan anhor qirg‘og‘ida atrofda sukunat xukm surganda bu ovoz har qanday eronlikni kuchli hayajonga soladi”. Uzoyir Gadjibekov shurni ustalik bilan o‘zining “Go‘r o‘g‘li” operasida qo‘llagan.

Maxur – qadimiy dastgohlardan biridir. Birinchi bo‘lib bu ladga izohni **Safiuddin**, keyinroq **Jomiy** beradi. U ozar, tojik, o‘zbek, turk, arab va xind xalqlarida uchraydi. Hindistonda bu lad boshqacha nomda va ozgina o‘zgarishlar bo‘lsada, Sharqda anchadan buyon qo‘llaniladi. Eron musiqashunosi Barkeshli unga shunday ta’rif beradi: “U shijoatdan kelib chiqib, tantanovor, ulug‘vorik ruhi bilan sug‘orilgan”. **Maxur** dastgohi **Abdullox** ijrosida 35 gushedan iborat bo‘lgan. Daromad, **mokadame**, **choxor** – **mezrob**, karamma unda ham uchraydi. Qolgan gushelar esa o‘ziga xos. Dastgohdagi **dilkash**, **shikasta**, **sufinoma** kabi bir nechta gushelarda yangidan-yangi lad qirralari ochilib boradi. O‘zgaruvchanlik juda rang-barang.

Safiuddin Urmaviy keltirgan navo tovushqatori dastgoh tovushqatoriga mos keladi. Shashmaqomga ham mos keladi. Navo 15 ga yaqin rang-barang gushelardan tarkib topgan. Modulyatsiyalangan

gushelar *arak, naxoft, gavit, neyshaburak, xo'jaste va majusli*. Navo boshqa dastgohlarga qiyoslanganda kichikroq xajmda, eshitilishi va obraz tuzilishiga ko'ra kamer asardir. Unga kuychan harakatlar, qo'shiq kayfiyatidagi ohang aylanmalari xos bo'lib, ko'p takrorlanmaslik kuzatiladi. Do-sol pastga xarakat qiluvchi kadentsiya juda ko'p go'shalarni yakunlaydi. So'nggi nastari deb nomlanuvchi go'shada qisqa ritmik – ohangli figura (1 takt) 50 martaga yaqin o'zgartirib takrorlanadi.

Rost Panjgoh – juda qadimiy tizim bo'lib, Sosoniylar davriga borib taqaladi. Eron Rost – 'anjgoh dastgohi 30 ga yaqin gushelardan tashkil topgan bo'lib, *zabol, karache, arak, rak, panjgoh* gushelarida modulyatsiya kuzatiladi. Unda bir pog'ona 3 xil ko'rinishda keladi va unga o'ziga xos badiiylilik va rang – baranglik baxsh etib tinglovchiga o'zgacha ta'sir etadi.

Eron musiqasida metroritm juda rang-barang. Oddiy 2 va 3 hissali o'lchovlar, tez-tez kuchli hissalarining almashinuvi, masalan 5/8, 7/8, 8/16, 11/16, 12/16 va boshqalarga xos. 7/8 o'lchovidagi ritm keng qo'llaniladi va u *chaxor bag* deb nomlanadi.

Ritm (zarb) Sharq xalqlarida qadimdan o'rganiladi. Arab, Eron va O'rta Osiyo olimlariga tegishli risolalarda ular atroflicha yoritilgan.

Forobiy o'zining asarlarida 7 ta asosiy usulni aytadi. Safiuddin Abdulmo'min arablarda 6 ta usul ko'rinishini, forslarda – 15 ta usul borligi haqida xabar beradi. Xoji Abdulqodir usullar 17 taga borishini aytsa, yana boshqa mualliflar 20 ga yaqin deb izoh berishadi.

Sharq xalqlari olimlari ritmni aruz qonun-qoidolari bilan bog'lagan holda o'rganadilar. Aruz arab she'riyatida yuzaga kelib, keyin eron va boshqa xalqlarga tarqalgan. Aruz qisqa va uzun talaffuzdagi unli tovushlarga asoslangandir. Shahar, saroy madaniyatida aruz janri muhim o'rin olgan. Aruzni biz maqam, dastgoh, mugom, maqomlarning vokal qismlarida uchratishimiz mumkin.

XIX-asrning 2-yarmidan boshlab Eron musiqasiga Ovrupa musiqasi ta'sir ko'rsatdi. Tehronda Shoh kolleji qoshida Ovrupa uslubidagi musiqa maktabi ochildi. XX asrning 20-yillarida Tehron universiteti professori, bastakor Ali Naqi Vaziri milliy musiqa ta'limini yo'lga qo'ydi, musiqa nazariyasiga oid asar yaratib, musiqa maktabini ochdi. 30-yillarning boshlarida Tehrondagi Oliy musiqa maktabi (40-yillarda konservatoriyaga aylantirildi.) o'z ishini boshladi, filarmoniya jamiyati (1940), **X.Sanjariy** rahbarligida simfonik orkestr (1946) tashkitl to'di. **A.Vaziriy, A.Sabo, A.Rashidiy** kabi kompozitorlar mashxur bo'lgan. Hozirgi kunda Eronda, asosan, folklor guruhlari, milliy cholg'u ansambllari mavjud. Shu bilan birga, XX asr oxirlaridan milliy va Yevropa ohanglarini uyg'unlashtirgan estrada va orkestr ijrosiga ham katta e'tibor berilmoqda. 1968 yildan Sherozda milliy san'at festivallari o'tkazilib turiladi. Musiqa san'atining rivojlanishiga **Mirzo Abdullo, Darveshxon, Maxmud Karami, Faro Mirzo 'oydur, Abu al-Xasan Sabolar** katta xissa qo'shganlar. Hozirda **Xusayin Malik, Tohir Zoda, Shaxnoz, Shojarayon** kabi san'atkorlar mashxur.

Eron musiqasi jahon musiqashunos olimlari tomonidan o'rganilgan. **Aziz Sha'boni, Dariush Safvut, Mahdiy Barkashli, Musi Ma'rufiy, E.Zonis, K.Zaks, X.Farxat, R.Xoligiy, Belyaev, V.Vinogradov** kabi musiqashunos olimlar asarlari ko'pchilikka tanish. **L.Ernjakyan, A.Malg'keeva, T.S.Vizgo, R.Yu.Yunusov, K.A.Inostrantsev** kabi musiqashunos olimlar maqomot va musiqiy cholg'ular xususidagi ilmiy ishlarida Eron musiqasiga ham e'tibor berganlar.

Eron musiqashunoslarining quyidagi risolalarida Eron musiqasining turli xususiyatlari o'z ifodasini topgan: **R.Xolgi** "Sarguzashti musiqiy Eron", **M.Barkeshli** "Radifiy Musiqiy Eron", **X.Farxat** "Eron dastgohlari" va boshqalar.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Eron madaniyatiga tarixi oid umumiy ma'lumotlar so'zlab bering.
2. Sosoniylar davri musiqa san'ati xususida mavjud ma'lumotlarni bayon eting.
3. Borbad –Hayoti va ijodi haqida tarixiy va nazariy ma'lumotlar bering.
4. Xusravoniyot turkumi – ilk musiqiy-she'riy, kasbiy ijodiyot namunasi sifatida qanday ahamiyatga ega.
5. Safiuddin al-Urmaviy ijodi, "O'n ikki maqom" tizimining eron kasbiy mu-siqasidagi tarixiy o'rni aytib bering.
6. XVI-XIX asrlarda Dastgohlarni shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlari haqida ma'lumotlar bering.

Mavzu bo'yicha topshiriqlar:

1. Eron madaniyatiga tarixi oid umumiy ma'lumotlar.
2. Sosoniylar davri musiqiy san'ati xususida mavjud ma'lumotlar.
3. Borbad –Hayoti va ijodi haqida tarixiy va nazariy ma'lumotlar.
4. Xusravoniyot turkumi – ilk musiqiy-she'riy, kasbiy ijodiyot namunasi sifatida ahamiyati.
5. Safiuddin al-Urmaviy ijodi, "O'n ikki maqom" tizimining eron kasbiy musiqasidagi tarixiy o'rni.
6. XVI-XIX asrlarda Dastgoh turkumining shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlari haqida ma'lumotlar.
7. Mavzu xususida Internetdan materiallar to'ish va ta'rifini keltirib yozish.
8. O'tilgan mavzu bo'yicha krossvord tuzish.

XII-XIV-DARSLAR: AFG‘ONISTON MUSIQA MADANIYATI



Afg‘oniston – uzoq tarixga ega bo‘lgan O‘rta Sharq mamlakatlaridan biridir. Ma’naviy boy o‘tmishi bilan mashhur bo‘lgan afg‘on xalqi azaldan Eron, O‘rta Osiyo va Hindiston xalqlari bilan yaqin madaniy aloqada bo‘lib kelgan. Asrlar davomidagi xalqlarning o‘zaro munosabatlari ularning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotlariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Poytaxti – Qobul. Aholisi 29 mln.dan ortiq. Afg‘onistonda pushtun, tojik, xazoriy, o‘zbek, aymoq, turkman va boshqa xalqlar istiqomat qiladi. Dini – islom. Davlat tili doriy va pushtu. Asosiy shaharlari Hirot, Qandahor, Mozori-Sharif, Jalolobod, Qunduz va G‘azna.

Afg‘oniston davlatining hududi asosan cho‘l va tog‘lardan iborat. Uning 5/1 qismi yalanglik va halq istiqomat qiluvchi hududlardir. Qolgan qismida Hindiqush, Pomir, Hazorajot, Sulaymon va Tirbandi Turkiston tog‘lari joylashgan. Undan oqib o‘tadigan Amudaryo va Gilmend daryo bo‘ylari afg‘on xalqining asosiy istiqomat qiluvchi

joylarini tashkil etadi. Murakkab tog' tizmalari ushbu xalqni Shimoliy va Janubiy qismlarga ajratadi. Afg'oniston, qadimdan Sharq xalqlarini, Buyuk ipak yo'li orqali O'rta Osiyo va Eronni Hindiston bilan, Yaqin Sharq mamlakatlarini Xitoy davlatlari bilan bog'lovchi chorraha bo'lgan.

Afg'oniston o'z tarixi davomida bir qator davlatlar hududida bo'lgan. Jumladan, Somoniylar (X), Qobulshohlar (XI), Mo'g'ullar (XIII-XIV), Temuriylar (XIV-XVI), Nodirshoh qaramog'ida (XVI - XVIII bu davrda alohida afg'on feodal davlatlari shakllangan). 1747 yili esa, Duroniylar sulolasi hukmronlik qilgan 'aytda Qobul shahri markaz, ya'ni poytaxt sifatida qabul qilingan. Shu davrdan hozirga qadar Qobul shahri Afg'onistonning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazidir. Mamlakatning yana ikki shahri G'azna, Hirot va Mozori-Sharif shaharlari tarixdan ilm fan markazi sifatida mashhur bo'lgan.

Ilm-fan markazi bo'lgan Hirot, Qobul, G'azna shaharlari, o'tmish allomalari uchun ijod maskani bo'ldi. Jumladan: X-XI asrda G'aznada mashhur qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy yashab ijod etgan; Abulqosim Firdavsiy o'zining "Shohnoma"sini shu yerda yakuniga yetkazdi. Sulton Mahmud G'azniy hukmdorligi paytida 400 dan ortiq shoir va olimlar yashab ijod etganlar. Unsuriy, Farruxiy va Manuchehri kabi qalam sohiblari shular jumlasidandir. Ayniqsa, buyuk temuriylar hukmronlik qilgan (XIV-XVI asrlar) paytda Afg'oniston yanada gullab yashnadi. Hirot madaniy hayotining sarboni sifatida buyuk mutafakkir shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy tan olindi. Shu bois bo'lsa kerak, Hirotning bu davri "Alisher Navoiy davri" deb yuritildi.

Ushbu davrda fors-tojik she'riyatining yetuk namoyandasi, A.Navoiyning ustoz **Abdurahmon Jomiy** yashab ijod etadi va o'zining bir qator asarlari bilan birgalikda "**Risolai musiqiy**"ni yaratdi. Hirot she'riyatining namoyandalari Lutfiy, Hiloliy, Binoiy, Mirza Farrux kabi shoirlar o'zlarining benazir asarlari bilan mashhur

bo'ldilar. Bizgacha Binoiyning "Risolai musiqiy" qo'lyozmasi yetib kelgan.

Navoiy zamonasida nafaqat musiqa, balki me'morchilik, tasviriy san'at, miniatyura san'atlari ham o'z rivojini to'di. Bir qator musiqa ijrochilari yetishib chiqadilar. Ulardan bastakor Shoh Qulixon, bastakor va ijrochi Qulmuhammad Udiy, mohir naychi Shayx Noyi, hofizlar Yusuf va Ustoz Shodiy, raqqos Said Hirotiy va boshqalardir. Tasviriy san'atda esa Kamoliddin Behzod dong taratdi.

Afg'on ('ushtun, o'zbek, tojik, turkman va boshqa) xalqlarining musiqa san'ati o'ziga xos milliy qadriyatlar bilan sug'orilgan an'analarga boy. Darhaqiqat, o'z xalqiing milliy g'ururini aks ettiruvchi go'zal hamda benazir san'atiga egadir. Boy san'atini namoyon etuvchi milliy an'analari bilan birga, asrlar davomida ijrochilikda charxlangan rang-barang musiqiy cholg'ular ham mavjud. Ular, afg'on xalqining ruhiyati, ma'naviyati, an'anasi va milliy xususiyatlari doirasida bunyodga kelgan. Asrlar davomida og'zaki an'ana zahirida avlodlardan avlodga o'tib kelmoqda. Jumladan: *tanbur(danbur), tanburai qatag'on, tanburai turkiston, soz, nay (ney), cho'on nay, saranda, zirbag'ali, zang, daff, tavlak (tabla), do'l, rubob (afg'on), g'ijjak* kabi xalq cholg'ulari keng tarqaladi.



Afg'on rubob

Afg'oniston milliy musiqa merosi janrlarga boy va istiqomat sharoiti sababli rang-barang ko'rinishlarda shakllangan. Barcha xalqlar qatorida Afg'oniston xalqi ham o'ziga xos musiqasi, ya'ni folklor namunalari va mumtozlik xususiyatlarini o'zida mujassam

etgan kasbiy musiqasiga egadir. Afg'on musiqasining kuy-ohang majmui, tuzilish tarkibi va ijro yo'nalishlari o'zgacha bo'lib, atrofdagi xalqlar musiqasidan tubdan farq qiladi. Ayniqsa, tuzuk (lad) tarkibi, so'z asosi va ularni matn va kuy ijro talqini masalalarida bu holat yaqqol sezilarlidir.

Afg'on milliy musiqa merosini nazariy tadqiq etgan musiqashunos olimlar ularni ikkiga bo'lib zikr etganlar. Ya'ni, vokal musiqasi va cholg'u musiqasi. Har ikki yo'nalish bir mezonning mahsuli bo'lsada, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Garchand, afg'on musiqa ijrochiligida vokal va cholg'u musiqasi alohida bo'lsa-da, bir-birini to'ldiruvchi va bir butunlikning ikki tarmog'ini tashkil etadi⁵⁵.

Afg'on milliy an'anasida mavjud musiqiy namunalar quyidagi shakllarga bo'linadi: **tog' kuylari (tog'liklar musiqasi), klassik kuylar (kasbiy musiqa), to'y marosim qo'shiqlari, diniy marosim qo'shiqlari, hajviy qo'shiqlar, ishqiy qo'shiqlar.**

Afg'on musiqasining folklor namunalari ham o'ziga xosdir. Odatga ko'ra, afg'onlarning har ikki (vokal va cholg'u) yo'nalishlari ham o'z xalq musiqa namunalariga ega. Afg'on folklorida azaldan xalq orasida ommalashgan va bir qator shakllarning yaratilishiga sabab bo'lgan janr mavjuddir. Bu janr **"Landay"** (pushtunlarga mansub) deb yuritilib, afg'on xalqining etnik jihatlarini hozirgacha o'zida saqlab kelmoqda. Afg'onistonda "landay" musiqiy poetik janr bo'lib, xalq (asosan ayollar ijodida) orasida keng tarqalgan. "Landay" o'zining kompozitsion tuzilish jihatidan Afg'onistonning barcha vohalarida muayyan shaklni tashkil etadi. Lekin, talqin masalasi va badiha jarayoni albatta vohaviy xususiyatlar negizida ijro etiladi.

Rus musiqashunos olimi V.Belyaev o'zining "Afg'on xalq musiqasi" (M., 1960 y.) kitobidan afg'on lyandi(landay)larini rus chastushkalari, o'zbek-tojik laparlari, qozoq xalqining "aytis" janrlari bilan bir xilligini qayd etib o'tadi. Shu nuqtai nazardan yondoshadigan

⁵⁵ Ustod Madadi. Afg'on xalq musiqasi an'analari. Samarqand III simpozium ma'ruzasi. 1988.

bo'lsak, albatta "Landay" janri o'zbek laparlariga turli tomonlari bilan mosdir. Jumladan: ayollar ijrosiga xosligi; aytishuv tarzida laparga o'xshashligi; so'z asoslari bir baytni tashkil etishi, metro-ritmik jihatlarining erkinligi va hokazo.



Afg'on xalqlari musiqa ijodiyotida "Chorbayt" (murabbat-to'rtlik) va "Doston" janrida ijro etiladigan qo'shiqlar ham muhim o'rin egallagan. Dostonlar deyishimizga asosiy sabab, ular o'zbek-tojik musiqa merosida mavjud bo'lgan "doston" janriga shakli, mazmuni, mohiyati, ijro xususiyatlari, aytishuv uslubiga asoslanganligi bilan juda yaqindir. Afg'on musiqasida bu janr bir yoki ikki xonanda tomonidan ijro etiladi.

Janrning o'ziga xos tomonlari: ijro etiladigan qo'shiqlarning kuy asosi turlicha bo'ladi. Buning asosiy sabablaridan biri savol-javobga asoslangan so'z, matn turlicha mazmunda bo'lishi va bevosita ijrochi talqiniga bog'liqdir. Shu bois kuy asosi ham so'z matniga ma'lum darajada tayanadi. Ayniqsa, bu holat kuy rivoji jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur jihatlar asarni turkumiy tus olishiga yordam beradi.

Afg'on musiqa merosida bu janrga xos bir qator **doston-qo'shiqlar** mavjud. Jumladan: (pushtunlar ijodida) "Yusufxon va

Shirbonu”, “Fotihxon va Robiya”, “Mo‘minxon va Shirinoy”; (Hirotda) “Siyomo‘y va Jaloliy”; ”(o‘zbek ayollari tomonidan ijro etiladigan) “Yozi va Zebo”, “Voliq va Zuhro”, “Yusuf va Zulayho” keng tarqalgan. Odatda mazkur dostonlar afg‘on milliy cholg‘ulari jo‘rligida ijro etiladi. Bevosita talqin esa, so‘zlashuv ohangiga yaqin uslub, ya’ni deklamatsion xarakterga egadir⁵⁶. Asar turkumiy ko‘rinishda bir soat va unday ko‘p vaqt davomida ijro etilishi mumkin. Shuni alohida qayd etish lozimki, ijro uzluksiz davom etadi. Shu bois bo‘lsa kerak, ularning ijro vaqtida muqim mezon qayd etilmaydi. Bu janr ko‘proq Langarxar vohasida ommalashgan.

Afg‘on xalq musiqasida bastakorlar ijodiy amaliyotiga mansub bo‘lgan janrlar qatoriga “Chorbayt”lar ham kiradi. **“Chorbayt”** – she’riy “murabba” (to‘rtlik) shaklida yozilgan va to‘rt qatorli matnga ega bo‘lgan so‘z asosida aytiladigan afg‘on xalq musiqasi namunasidir. Musiqashunos olimlar chorbaytlarning kelib chiqishiga “ruboiylar” sabab bo‘lgan degan fikrni bildirishgan. Zero, chorbaytlar muayyan poetik syujetga asoslangan she’riy asardir. Uning kuy jihatlari o‘ziga xos metro-ritmik shakllarga asoslanib, ijro jarayonida muayyan usulga tayanadi.



Ishqiy qo‘shiqlar Xalq orasidan chiqqan xonanda va sozandalar tomonidan yaratilgan va ijodiy merosiga aylangan ushbu turdagi qo‘shiqlar o‘zining ommaviyligi bilan ajralib turadi. Odatga ko‘ra sevgi, muhabbat, hijron va qalb tuyg‘ularini musiqiy va so‘z matnlari asosida ifodalovchi bu janr

tinlovchiga keskin ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga egadir. Shu bois ijrochilar, ayniqsa, tinglovchilar bu janrga mansub musiqiy

⁵⁶ Михайлов Ж. Устоз Муҳаммад Ҳусайин Сароҳанг пластинкасига ёзган аннотацияси.

namunalarni juda ardoqlaydilar. Uning ijrochilariga ham o'ziga xos munosabatda bo'ladilar. Zero, ijro jarayonida har bir xonanda azaliy xalq marosim an'alarini saqlashga intiladilar. Asarni talqin jarayoniga ham alohida ahamiyat berilgan. Afg'on xonandalari ko'p hollarda o'z ijrochilariga o'zlari jo'r bo'ladilar. Sozandalar dastasi esa ko'pi bilan 5-6 cholg'uchidan tashkil to'adi. To'rtta sozanda (tanbur, saranga, damli garmon va daff yoki tavlak)dan iborat ijrochilar guruh asosini tashkil etadi. Ushbu janri Afg'onistonning barcha vohalariga xosdir.

Tog' kuylari (tog'liklar musiqasi) yuqorida zikr etganimizdek, Afg'onistonning chorak qismidan ko'proq hududi tog'liklardan iboratdir. Tog'li xalqlarning milliy an'analari va mehnat mashg'ulotlaridan kelib chiqqan o'ziga xos musiqiy namunalarga ega. Bu asosan cho'ponlar amaliyoti negizida vujudga kelgan va ular tomonidan ijro etilib kelingan. Ijro 'aytida shu sharoitga qulay bo'lgan nay, cho'on nay yoki saranda cholg'ularidan foydalanilgan. Dehqonlar ko'p hollarda bu qo'shiqlarni jo'rsiz ijro etishgan.



Tog'li xalqlarning qo'shiqlarida bevosita tabiat manzaralari tarannum etilib, kuy asosi uncha katta bo'lmagan xalqona (kvinta, seksta intervali oralig'idagi) ohanglarga xos. So'z matnlari ommabop sheriylar baytlardan (7-9 bo'g'inli va naqoratli shaklga mansub) tuzilgan. Bu

qo‘shiqlar o‘zining xalqonaligi va oddiyligi bilan boshqa janrlardan farq qilib turadi.

Klassik (kasbiy) musiqalar Afg‘on klassik musiqasi yorqin namunalaridan biri “g‘azal” dir.

“G‘azal” – klassik janr bo‘lib, o‘ziga xos metro-ritmik erkinlikda ijro etilish xususiyatiga egadir. G‘azallar asosan lirik xarakterga molik bo‘lgan va ijrochiga talqin jarayonida o‘z ijrochilik imkoniyatlarini ochib berish yoki asarni turli sayqallar va ohanglar bilan bezalishini, badihago‘ylik imkoniyatlarini yaratib beradi. An‘anaviy uslubni tashkil etuvchi bu usul g‘azal ijrosini to‘laqonli ifoda etuvchi o‘ziga xos ohang va metro-ritmik shakl hisoblanadi. G‘azalning har bir qatori muayyan ohangga asoslangan kuy jumlasida ijro etiladi. Qizig‘i shundaki, g‘azalning har ikki qatorini ham aynan ana shu kuy usuli zaminida, bir-biriga mutanosib holda talqin etiladi⁵⁷.

Afg‘on (saroy) musiqa madaniyati bevosita hind musiqasi ta’siri ostida rivojlangan zero, klassik (mumtoz) afg‘on musiqasining yorqin namoyondalaridan Ustod Qosim, Ustod Yoqub, Ustod G‘ulom Husayniy, Ustod Nazarmuhammad, Ustod Rahim Baxsh va boshqalar Hindistonda ta’lim olgan professional musiqachilar hisoblanadi.

To‘y-marosim qo‘shiqlari Afg‘on xalqining to‘y marosim qo‘shiqlari barcha xalqlar kabi milliy an‘analar negizida shakllangan. Ular Afg‘onistonning barcha vohalarida deyarli turlichadir. To‘y marosimida ijro etiladigan qo‘shiqlar mazmunan hamda shaklan ikkiga bo‘linadi. Birinchisi: to‘y o‘tkazish an‘anasi bilan bog‘liq va albatta ijro etilishi lozim bo‘lgan asarlar; ikkinchisi esa, xursandchilik va bayramona kayfiyatni baxsh etuvchi, ya’ni o‘yin-kulgi uchun ijro etiladigan sho‘x kuy-qo‘shiqlardir.

⁵⁷ Насуллаев З. Сведения о музыке в произведениях А.Х.Дехлави. – Т.; 2008. С. 16.



Birinchi guruhga kiruvchi asarlar musiqiy qadriyatlarga ega bo'lgan namunalar bo'lib, o'tmishdan yaratilib hozirgacha deyarli o'zgarmay saqlanib kelingan. Musiqiy ohanglar bilan birga so'z matnlarini ham asl holicha saqlash afg'on xalqining o'ziga xos xususiyatlaridandir.

Afg'on to'y marosim qo'shiqlarini an'anaviy shakllari ko'proq omma tomonidan ijro etiladi. Shu bilan birga maxsus xalq xonandalari tomonidan ijro etiladigan to'y qo'shiqlari ham mavjud. Ularni afg'on xalqi "An'anaviy to'y qo'shiqlari" deb yuritadilar. Misol tariqasida quyidagi asarlarni keltirishimiz joizdir. Bular: **"Ohista beru"** (Ohista chiqing), **"Xina biyore"**, **"Biyorid"** (olib chiqing), **"Tuyyat muborakbod"** (To'ying muborak). Bu qo'shiqlar asosan (afg'on tojiklariga xos) xotin-qizlar tomonidan doira (daff) cholg'usi jo'rligida ijro etiladi.

Ikkinchi guruh to'y qo'shiqlari juda ko'p va xalq orasida keng ommalashgan. Ulardan **"Gala bordim yor"**, **"Bargi guli bordim yor"**, **"O'ynang"** kabi juda ko'p qo'shiqlarni misol qilish mumkin. Sho'x qo'shiqlar odatga ko'ra naqorat printsipida ijro etiladigan shaklga mansubligi bilan ajralib turadi. Uning o'ziga xosligi shundaki, rivojlanib boruvchi kuy qismi o'zgaruvchandir. Shu bois ijro jarayoni

xonandaga katta qulayliklar yaratadi. Sharoitga binoan ko‘p hollarda, xonandalar tomonidan kuy rivojiga o‘zgartirishlar kiritiladi. Bu esa asarlarning tarkibiy tuzilishiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatishlari kuzatiladi.

Diniy marosim qo‘shiqlari Afg‘on xalq musiqasida diniy marosimlar bilan bog‘liq bir qator qo‘shiqlar mavjud. Ular bevosita shu tizimning muayyan shart-sharoitlariga asoslangandir. Ular orasida “na‘txonlik” va “ro‘zaxonlik” kabi turlari xalq orasida keng ommalashgan. Odatda, na‘txonlik va ro‘zaxonlik tadbirlari maxsus yaratilgan sharoitlarda ijro etiladi. Bu maxsus joylar ko‘pchilik (o‘zbek va tojik)xalqlarda azaldan mavjud bo‘lgan. Ya‘ni, amaliyotda bizning vohalarimizda mavjud bo‘lgan. “Xonaqoh”lar diniy marosimlar, samo‘ kechalari o‘tkaziladigan maskan hisoblangan. Xonaqohlarda ijro etiladigan musiqiy namunalar odatga ko‘ra so‘fiylar tomonidan aytilgan. Bundan tashqari, musulmon xalqlari orasida juma kunlari, hayit va boshqa diniy bayramlarda bunday tadbirlar o‘tkazish an‘anaga aylangan. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, marosimlarda ijro etiladigan asarlarni matni diniy mazmunda bo‘lgan, ‘ayg‘ambarlarni hayoti va oxiratdan so‘zlovchi hadislar mazmundagi so‘zlar bilan aytilgan. Diniy qo‘shiqlar hofizlar tomonidan cholg‘u jo‘rligisiz ijro etilgan.

Mavlud va ashur oyi kunlarida ham (afg‘on o‘zbek ayollari) o‘ziga xos ohanglar bilan kitob o‘qishadi.

Hajviy qo‘shiqlar Milliy musiqa san‘atining avloddan-avlodga o‘tishida muhim omillardan biri bo‘lgan bu janr hayotiy mezonning ayrim illatlariga berilgan tanqidiy munosabatlarini o‘zida aks ettirgan musiqiy namunalardir. Ular odatga ko‘ra hajviy qo‘shiqlar deb yuritiladi. Xalq orasida hajviy yo‘nalishda ijod etgan san‘atkorlar ko‘p bo‘lgan. Ular turli harakatlar, she‘riy asarlar, kulgili hikoyalar va ayniqsa hajviy qo‘shiqlar, teatrlashgan sahnalar orqali o‘z maqsadlarini ifoda etishgan. Shu nuqtai nazardan, bu mezonning janrlar jihatidan rang-barangligini ham qayd etish joizdir. Shulardan

omma orasida keng tarqalgan janrlardan biri satirik mazmundagi hajviy qo‘shiqlardir. Odatda hajviy qo‘shiqlarni ijro etish uchun (xalq orasidan chiqqan) musiqachilar va san’atkorlar maxsus tayyorgarlik ko‘rishgan. Hajv ostiga oladigan har qanday “qahramonning” kulgili qiyofasini yaratgandan so‘nggina ijro etishgan. Hajviy qo‘shiqlar odatga ko‘ra sahna orqali yoki ommaviy maydonlarda ijro etilgan.

Afg‘on musiqa madaniyati xususida bir qator musiqashunos olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Ulardan A.N.Boldirev, V.M.Mason, V.A.Romodina, V.Belyaevlar. Shu bilan birga AQSHlik M.Zlobin va ingliz olimlari Dj. Beylilarning afg‘on musiqa madaniyatiga bag‘ishlangan kitoblari alohida qayd etish joizdir. Afg‘on musiqasiga bag‘ishlangan dastlabki kitoblardan, yana J.Darmeterning “Afg‘on xalq qo‘shiqlari” (Parij 1880 y.) kitobi o‘ziga xos sanaladi. Mazkur asar afg‘on xalqiing poetik hayoti haqida yozilgan bo‘lib, o‘z o‘rnida g‘arb folklorshunoslarini qiziqtirgan. Shundan so‘ng, bir qator g‘arb musiqashunos-folklorshunos olimlari Yaqin Sharq va xususan, Afg‘oniston madaniy hayotiga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib bordilar.



Qadimiy sopol ayol



Afg‘on (‘ushtun) raqqosasi

Afg‘on musiqiy folklori rang-barangligi va o‘zining milliyligi bilan o‘zga xalq an‘analaridan ajralib turishini biz yuqoridagi sharhimizda amin bo‘ldik. Musiqiy an‘analarning o‘ziga xosligi asosan lad jihatlarida, usul tarkiblarida va so‘z matnlarida namoyon bo‘ladi. Afg‘on musiqasining lad asoslari asosan diatonik (tabiiy) ko‘rinishlaridan tashkil topgan. Jumladan: miksolidiy, eoliy, dariy va frigiylaridir. Ohang majmuida esa ikkinchi bosqichning orttirilgan namunasi o‘ta xarakterlidir. Shu bois ham an‘anaga ko‘ra lادلarning ikkinchi bosqichida orttirilgan sekundani ko‘proq qo‘llashadi. Afg‘on musiqasining metro-ritmik asoslari turlichadir: badiha yo‘sinida va muayyan usulga asoslanganligidadir.

Odatga ko‘ra, afg‘on xalq musiqiy namunalarida $6/8$; $3/4$; $4/4$; $2/4$; $7/8$; $9/8$ va undan ham murakkab o‘lchovlarga asoslangan usullar mavjud. Shu bilan birga afg‘on kuylarida ko‘p qo‘llaniladigan mezonlardan takt oldi holatlarini qayd etish joizdir.

1937 yili Afg‘onistonning poytaxti Qobul shahrida “Afg‘on akademiyasi” tashkil etiladi. Akademiyaning asosiy vazifalaridan biri xalq hayoti va turli yo‘nalishlardagi ijodini ilmiy tadqiq etish deb belgilangan. Shu bilan akademiya adabiy va xalq musiqa ijodini o‘rganish uchun asos yaratdi. Akademiyaning ushbu yo‘lidagi harakatlari bir qator ilmiy izlanishlar orqali amalga osharildi. Jumladan: musiqashunos Farrux “Chang ohangi ‘ushtu” (‘ushtu ohangidagi qo‘shiqlar) kitobini chop etdi; Navabi G.Xabib “Sangiroh-e Ustad-e Qosim Afg‘oni” nomli kitobini chop etishga muvaffaq bo‘ldi. Kitob Qobul shahrida 1957 yili nashr etilib, afg‘on xalq musiqiy cholg‘ulariga bag‘ishlangan.

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Afg‘oniston musiqasi tarixiga oid ma‘lumotlarni aytib bering.
2. Afg‘on musiqa madaniyati markazlari xususida so‘zlab bering.

3. Afg'on musiqasining ikki yo'nalishi dari va pushtu tillari va ularni jihatlarini bayon eting.
4. Mumtoz musiqa tushunchasi va mahalliy uslublarining xususiyatlari haqida tushuncha bering.
5. Afg'on xalqiga xos musiqiy an'analar, chorbayt, g'azal va dostonlar. Tog'liklar qo'shiqlari, harbiy qo'shiqlar, marosim bilan bog'liq qo'shiqlarni ko'rsatib bering.
6. Afg'on musiqa folklori. Musiqiy folklorining ustuvor ahamiyati xususida ma'lumotlar bering

Mavzu bo'yicha topshiriqlar:

1. Afg'oniston musiqasi tarixiga oid ma'lumotlar.
2. Afg'on musiqa madaniyatida Temuriylar davri.
3. Afg'on mashhur honanda ijrochilari.
4. Mumtoz musiqasiga oid janrlar.
5. Mavzu xususida Internetdan materiallar topish va ta'rifini keltirib yozish.

XV-XVI- DARSLAR: HIND MUSIQA MADANIYATI. HIND RAGALARI VA CHOLG‘ULARI



Hindiston – Janubiy Osiyo davlatlari sirasiga kiradi. Hindiston maydoni 3.3 mln.km. Aholisi 1,5 milliarddan ortiq. Hindiston ko‘p millatli davlat bo‘lib, u yerda **hind, telegu, marathi, bangol, tamil, gujarat, konnara, malayali, ‘anjobilar** va 100 dan ortiq boshqa millatlar istiqomat qilishadi. Hindistonda induizm, islom, nasroniy (xristian), zardushtiy, buddizm va boshqa diniy mazhablar mavjud. Poytaxti – Dehli⁵⁸. Hindistonda 27 ta shtat bor. Hindiston Pokiston, Xitoy, Arab dengizi, Bangol ko‘rfazlari bilan chegaradosh. Ganga, Jamna kabi yirik daryolar oqib o‘tadi.

⁵⁸ Кодиров П. Жаҳон мамлакатлари. – Т.; 2009. 94 б.

Hindiston – insoniyat madaniyatining beshiklaridan biridir. Uzoq o‘tmishlardanoq uning madaniyati va san’ati rivojlanishning yuqori darajasi sifatida xarakterlangan. Hind madaniyatiga IX asr arab olimi Al-Johiz quyidagicha izoh beradi. “Hindlarga kelganda ular astronomiya, arifmetika, tibbiyot fanlari bo‘yicha ancha ilgarilab ketishgan. Hindlar she’riyati boy va notqlik san’ati rivojlangan. Jumladan, astronomiya, mantiq, falsafa fanlari ulardan kelib chiqqan”

Qadimgi hindlarning fan, madaniyatda tutgan o‘rni Beruniyning (XI asr) “Hindiston” nomli asarida batafsil keltiriladi. Ilk klassik jamiyat – Ind (Xara’pa) tsivilizatsiya (er.avv.III-ming yillikgacha bo‘lgan davr)si bilan bog‘liq. Keyinchalik, Hindistonda Magatxa, Guptalar davlati, Dehli saltanati, Boburiylar imperiyalari hukmronlik qilib, hind madaniyatiga bevosita o‘z ta’sirlarini o‘tkazishgan. Hindiston XVI asr boshlarida Yevropa (Buyuk Britaniya, Portugaliya, Gollandiya, Fransiya, Angliya) mustamlakachilari tomonidan bosib olinadi. XIX asr o‘rtalarida inglizlar Hindistonni butunlay o‘z mustamlakasiga aylantirdi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng, Hindiston mustaqilligi e‘lon qilindi. 1947 yilga kelib, u 2 ta hudud – Hindiston va Pokistonga bo‘linib ketadi.



Cho‘pon, uzun bambukli karnayda ijro etmoqda



Sarasvati ma'budasi venu cholg'usi bilan

Hind xalqi tarixida har bir avlodning o'z qo'shiqlari, urf-odatları, raqslari, jamoa bo'lib kuylash yo'nalishlari mavjud bo'lgan. **Vedalar** (Vedalarning kelib chiqishi er.avv. II-mingyillikdan I mingyillik o'rtalariga to'g'ri keladi) orqali o'tmishdagi xalqlarning turmush tarzi (tabaqalarga bo'linishi), diniy va falsafiy dunyoqarashlari, ezgu-niyatlari, his-tuyg'ularini aks ettiruvchi madhiyalar bizgacha yetib kelgan.

Asosiy vedalar 4ta: **Rigveda**, **Atxarvaveda**, **Samaveda**, **Yadjurvedalar**. Ular asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib kelgan,

1. **Rigveda** – (rig – madh) eng qadimiy veda bo'lib, 1028 ta madhiyani o'z ichiga oladi.Ular Tangri va tabiat madhiga bag'ishlangan.

2. **Samaveda** – (sama-qo'shiq) 1549 madhiyadan iborat bo'lib,ohanglar majmuasidir.

3. **Yajurveda** (qurbonlik) o'z ichiga 1050 madhiyani olib, asosan qurbonlik marosimlari bilan bog'liq.

4. **Atharvaveda** bunda qadimiy madhlar yig'ilgan bo'lib, uzoq umr, sog'liq, yovuz kuchlarga qarshi bo'lgan madhiyalar to'langan

Eramizdan avvalgi birinchi mingyilliklarda hind xalqining durdonalaridan bo'lmish **“Ramayana”** va **“Mahabhorat”** dostonlari yaratiladi. Bu asarlarda qahramonlar va ularning qahramonliklari aks ettiriladi. Bu dostonlar tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Qadimiy hind risolalarida musiqaning paydo bo'lishi to'g'risida turli fikrlar bildirilgan. Jumladan: **“Natg'yashastra”** – qadimgi hind qo'lyozmalaridan biri bo'lib, musiqaga doir benazir durdonalaridan biridir. Bu Bxarataning sanskrit tilida yozilgan risolasidir, bunda vokal va cholg'u musiqasiga oid shakllar, musiqa cholg'ulari va teatr orkestrining tarkibi haqida so'z yuritiladi.

“Sangitratnakara” – Hindistonda o'rta asrlarda yaratilgan ulkan musiqiy-nazariy risola bo'lib, uning muallifi Sharangadeva, o'zining 7 jildlik asarida lado-ritmik qurilmalar bo'lishi, raga ritmik formulalari, tala va milliy musiqa cholg'ulari haqida fikr yuritadi.

“Sangitdarpan” – hind musiqachisi. Damodar tomonidan yaratilgan risola bo'lib, musiqa nazariyasiga bag'ishlangan yirik asardir. Unda muallif musiqani Braxma (yaratuvchi) yaratganligini aytib o'tgan

Hind xalqlarida musiqiy oila-marosim, diniy marosim qo'shiqlari, mavsumiy, bayram janrlari turli nomlar bilan tarqalgan: **povada, lavani burrakatxa, pabudji, pandavani, kolattam, chaxri, suva, garbalar** shular jumlasidan. Lirik qo'shiqlar – **bxatpali, dxola, panixari**; mehnat qo'shiqlari – **shari, kadjari, maxitya** va hokazo.

Hindistonda musiqiy janrlaridan: **sufiyana kalam (Kashmir maqomlari), qavalli, g'azal, dxrupad, bxajan, xayal, bxadjangga, abxanga, kirtana, txumri, g'azal, dadra, tarona, tankalar** mashhurdir.

Hind musiqa san'atida mumtoz yo'nalishga xos bo'lgan janrlar qatorida **“xayal”** alohida o'rin tutadi. Xayalni raga uslubida yaratilib, xalq orasida ommalashgan **“dxrupad”** ta'sirida rivojlanganligi olimlar tomonidan e'tirof etiladi. Uning shakllanish davri ham Amir Xusrav Dehlaviy zamoniga xosligi xususidagi ma'lumotlar ham mavjuddir. Xayal so'zi amaliyotda turlicha ma'nolarda qo'llanilib, arabchada **“kayfiyat”**, **“tasavvur”** ma'nolarini bildiradi. U o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turib, hech qanday qonuniyatlarga bo'ysunmaydi. Bunday xususiyatlar inobatga olinsa, unga ko'proq tasavvur ma'nosi Rajastan (Hindiston markazida joylashgan shtat)dagi **“khelal”** sheva shakli bo'lib, xalq o'yinini ijro etish ma'nosini bildiradi.

Dxrupad – hind mumtoz musiqiy janrlaridan biri bo'lib, ragalar yo'li asosida yuzaga kelgan janr. Shakl jihatdan unchalik murakkab bo'lmasa-da, ularning rivojlanish mezonlarida mumtozlik xususiyatlari mavjud.

XIND RAGALARI VA MUSQIY CHOLG'ULARI

Aytish joizki, hind ragalari hind musiqasining gultojidir. Raga atamasining lug'aviy istilohiy ma'nolari bu **“bo'yoq”**, **“rang”**, **“tus”**. Raganing paydo bo'lish davrini olimlar o'rta asrlar boshiga yo'yishadi. Shu sabab musiqiy ifodaviylikda asosiy vositalarni kuy va usul (tala) tashkil etadi. Ragalar asrlar osha og'izdan-og'izga ko'chib kelarkan u o'zida butun o'tgan davrlar izini olib yurdi va Hindiston, Pokiston, va Afg'oniston davlatlari turmush tarzida bizgacha yetib keldi. Hind musiqa tizimi yuksak darajada shakllangan tizimlardandir. XIII asrdan boshlab Hind musiqasida ikki asosiy uslub qaror topadi: shimoliy **“Hindustani”** va janubiy **“Karnatak”**. Bu ikki uslub an'analari raga va tala (ragalarning ritmik qurilma asoslari) qonun-

qoidalariga bo'ysungan. Raga – bir necha rasa (9 ta hissiy holat)lardan tarkib topgan musiqiy formula – shakl, muayyan musiqiy harakat turlaridan iborat tovush kom'ozitsiyasi. Har bir raganing aniq bir usuli bo'lib, bu usul tabla yoki mridanga urma cholg'u asboblarda ijro etiladi. Hind ragalarining eng muhim xususiyatlaridan biri barcha Sharq xalqlari musiqasiga xos bo'lgan, yarim tondan ham kam bo'lgan eng kichik intervallarning mavjudligidir. Ragalar ijrosida ko'pincha badiha uslubi qo'llaniladi.



Hindiston-Rajastan. Mangaxari sozandalari

Musiqashunos Matanga: “Birorta ham klassik musiqa kuyi to‘rt yoki undan kam pardadan iborat bo‘lishi mumkin emas. Bunday kuylar ya’ni, Savara, Kambodja, Vanga, Kirata, Vaxina, Andra, Dravida qabilalar musiqasiga mansubdir” – deydi.


Parda(ton)lar miqdoriga qarab ragalar 3 turga bo‘linadi: 1) **Aodav** – besh tonlik raga, pentatonikaviy va pentatonikaga xos bo‘lmasligi mumkin. 2) **Shaodav** – 6 tonlik; 3) **Sanpuri** – 7 tonlik.

Bundan tashqari Shimoliy Hindistonda 9 tonga asoslangan tovushqatorli ragalar ham keng tarqalgan. Eng mashhur ragalar:

Baxar, Bxeyrav, Bxeyravi, Sindxi Bxeyravi, Bximpalashri, Darbari Kannada, Darbari, Desh, Xamsadvani, Jeyjevanti Khamaj, Megh Malhar, Pilu, Shyam Kalyani, Simhendra, Madhyam, Todi, Yaman va boshqalar⁵⁹.

Hindiston musiqa madaniyatiga badihago'ylik xos. Vokal va cholg'u asarlari ham lado ritmik tuzilishi jihatidan ragalarga asoslangan.

An'analarga ko'ra hind musiqasi raga (**erkak**) va ragini (**ayol**)ga bo'linadi.



Hindistonlik mashhur raga ijrochisi (setor) Ravi Shankar

Har bir mumtoz ragalar hind badiiy miniatyurasi bilan bog'liq. Nazariy ragalar soni cheksiz, lekin amaldagi ijrosi esa chegaralangan. Har bir raga o'z tovushqatoriga ega. Hind musiqasida 7ta asosiy ton ishlatiladi.

⁵⁹ Шанкар Р. Музыка народов Азии и Африки. Вып. 4. – М.; 1984. С. 319-326.

Ular Yevropa musiqasidagi 7 bosqichli gamma tovushlariga mos kelib, quyidagicha nomlanadi:

do	sa (sxagra)
re	ri (rasxava)
mi	ga (gandxara)
fa	ma (madxyama)
sol	pa (pangama)
lya	dx a (dxavata)
si	ni (nisvada)

Asosiy tonlar yana 1/4 tonliklarga, shuningdek, oktava ham 22 ta teng bo'lmagan intervallarga bo'linadi. U **shruti** deb nomlanib, “tinglash”, “eshitish” ma'nolarini anglatadi.

Cholg'u musiqasi, kuylash va raqs san'ati **Sangit** deb ataladi. Lirik qo'shiqlar *Txumri*, lirik vokal kompozitsiya *Tala* (panjob xalq musiqasiga xos), *Bxadjan* va *Kirtan* (bangol xalq musiqasiga mos) deb nom olgan.

Hind musiqiy cholg'ulari soni juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Hindistondagi “Sangit Natak” Akademiyasida so'nggi 50 yil ichida 400 dan ortiq hind cholg'ulari yig'ildi.

Hind mumtoz musiqa ijrochiligida Ravi Shankar (sitor), Bismilloh Xon (shehnay), Amjat Ali (sarod), Hariprasad Chaurasiya (nay), pandit Ram Narayan (sarangi); pandit Vg'yas va Malikarjun Mansur (xonanda – raga), Ilmas Xuseyn Xon (tabla), G'ulom Axmad (sarod va rabab) kabi ijrochilar shuhrat qozonishgan.

HIND CHOLG'ULARI

Damli cholg'ular:

Angoja – ko'rinishi qo'shnayni eslatadi. 5 ta teshikchalari bor. Folklor va xalq qo'shiqlarida jo'rnavozlik qiladi.



Bxungal – bronza metaldan yasalgan surnaysimon cholgʻu, diniy marosimlarda keng ishlatiladi;



Maxuri –uchi tepaga qaratilgan surnaysimon cholgʻu, 7 ta asosiy va 5 ta yondosh teshikchalari mavjud. Tovushqator va barcha nota tovushlari bor. Joʻrnavozlik va bezaklar uchun temir qoʻngʻiroqchalar ham mavjud.



Mesh – echki terisidan yasaladi. Havo toʻldirilgan 5 ta teshikchalardan iborat. Tovush hosil qilish uchun qisqa bambuk oʻrnatilgan, puflanadigan teshikchasi esa yogʻochdan yasaladi. Folklor raqslarda ijro etiladi.



Urma zarbli cholg'ular

N.F.Nizomiddinovning aytishicha, urma zarbli cholg'ular takomillashuvi jarayonida shaklan 3 toifaga bo'linadi: konussimon, kosali va gardishlidir⁶⁰.

Bom – ko'rinishi katta barabanni eslatadi. Yog'ochdan yasalgan katta qozon va unga teri qoplangan, urib chalish uchun 2ta tayoqchalari bor. Bu tayoqchalarning uchida maxsus yumshoq matodan qoplangan moslama qo'yiladi. Ommani jalb qilish uchun tantanali marosimlarda, raqs va turli rangli festivallarda bu cholg'u keng foydalaniladi va ijro etiladi.



Tabla – ikkita nog'orasimon, hajman turlicha, maxsus matodan ishlangan moslama ustiga qo'yiladi. Ulardan kattasi yog'ochdan va kichik uzunrog'i esa misdan yasalgan bo'ladi. Lekin ularning vaznlari bir xil. Ansambllarda yakkaxon va yetakchi soz vazifasini bajaradi. Shimoliy Hindistonda keng tarqalgan.



⁶⁰ Nizomiddinov N. Hind mumtoz musiqasi va milliy cholg'ular. – T.; 2008. 63 b.

Talam – ko‘rinishidan kichik likopcha ustida turganga o‘xshaydi va uchida ilgaklari bor bo‘lib, mana shu ilgaklar bilan ushlab disklar bir-biriga urilgan holda tovush hosil qilinadi. Ritmik jo‘rnavor tarzida ijro etiladi. Janubiy Hindistonga xos cholg‘u.



Tase – bronza metallidan ishlangan asbob bo‘lib, yuzasiga teri qo‘langan. Qozonchasi esa boshqa sozlar kabi ichi g‘ovak emas, nozik tayoqchalar bilan urib chalinadi. Folklor musiqaga xos.



Mridanga – tablaning oiladoshi. Yog‘ochdan ishlangan bo‘lib, ikki tomonlama, barmoqlar bilan chalinadi. Folklor musiqada ko‘p qo‘llaniladi. Janubiy Hindistonda keng tarqalgan.

Nagara – bronza metalidan ishlangan qo‘sh baraban. 2 ta bambukdan tayyorlangan tayoqchalari ham bor. Ommaviy raqs va festivallarda foydalaniladi;

Kxol – loyni pishirib ishlangan va yuzasiga teri qo‘langan, vazni og‘ir bo‘lgani sabab, yerga qo‘yib ijro etiladi. G‘arbiy Bengal hududlarida ommalashgan cholg‘udir. Bundan tashqari *bortal*,

chenda, damaru, dandia, dxol, edaka, gagana, gxatam, kanjari, kxartal, morchang, senmu, txavil kabi musiqiy cholg'ular uchraydi.



Torli kamonli cholg'ular

Bin – g'ijjaksimon cholg'u. Undan farqi, kosasi kichik va dastasi uzunroqdir. 2ta tori bor. Kokos daraxtidan ishlanib, baliq terisidan parda qoplanadi, kamoni bambukdan va otning yoli, ya'ni dumidan yasaladi.

Esraj – rubob dastasi kabi uzun, lekin ancha yo'g'on. 15 ta simi bor, o'zi yog'ochdan yasalib, echki terisi bilan qoplangan bo'ladi. Kosasi o'yib ishlangan, kamon bilan chalinadi, tuzilishi afg'on rubobni eslatib, bir nechta qo'shimcha simlar tortiladi.

Kamancha – ko'rinishi g'ijjakni eslatadi. Kosasi qovunsimon, dastasi juda qisqa, past registr tovushlariga ega. Asosan ichakdan ishlangan. Shimoliy Hindistonda xalq qo'shiqlari va dostonlarini ijro etishda foydalaniladi.

pena – kakos mevasidan quritib yasaladi. Kamon hajmi nisbatan katta va so'roq shaklida egilgan. Cholg'uning o'zi esa kichik g'ijjakni eslatadi, diapazoni juda kichkina.



Ravanxatxa – quritilgan kokos va bambukdan yasalgan, kamoni ot yoli va dumidan yasaladi. Torlari po‘latdan, ulardan bittasi asosiy hisoblanadi va yana bir nechta qo‘shimcha simlari mavjud;

Sarinda – kamonli cholg‘u. 3 ta tori bor, kosa va dastasi yaxlit ishlangan. Afg‘on rubobidan farqi kosasi juda kichik ishlangan, oddiy kamonda ijro etiladi;

Sozi-Kashmir – ko‘rinishi katta g‘ijjakka o‘xshash, asosiy torlari 3 ta ichakdan yasalgan bo‘ladi. Fil suyagi bilan bezatilgan. 14 ta qo‘shimcha simlar uchun quloqchalari ham bor. Faqat erkaklar tomonidan ijro etiladi;

Sindxi-Sarangi – kosasi yog‘och bilan qoplangan va yarim tsirkulyar kichik bo‘lmagan teshik mavjud. Kosaning ko‘rinishi torga o‘xshash, 4 ta asosiy simlari ichakdan bo‘lib asosan shu simlarda ijro etiladi. 22 ta qo‘shimcha simlari bo‘lib, ular po‘lat simlardir. Rajastonda keng tarqalgan.

Torli mizrobli cholg‘ular

Vina – setor bilan oiladosh. Farqi, yog‘ochdan ishlangan kosasi ancha katta va u bizning dutor bas shakliga yaqin. Dastasi kaltaroq, asosiy torlari 4 ta metallardan. 3 ta qo‘shimcha simlari ichakdan. Xromatik tovushqatorga ega va dastada bu notalar 24 ta pardalar bilan belgilangan. Shimoliy Hindistonning klassik mumtoz musiqalarini ijro etishda foydalaniladi⁶¹.

Vichitra-Vina – qovoqdan yasalgan moslama ustiga qo‘yib chalinadigan cholg‘u. Ularning diametri va og‘irligi bir xil. 8 ta bas,


⁶¹ Алендер И. Музыкальные инструменты Индии. – М.; 1979.

11 ta qo'shimcha torlari ham bor. Setor va Vinadan ko'ra ancha kichik, pardalari belgilanmagan, mediatr bilan tirtab chalinadi. Shimoliy Hindistonda tarqalgan.



Sarod – afg'on rubobiga yaqin, simlari juftlangan. 15 ta qo'shimcha quloqchalari ham bor, kosasi kokos mevasidan katta qilib yasaladi. Dastasi yo'g'on. Shimoliy Hindiston shtatlarida keng tarqalgan;

Rabab – afg'on rubobini eslatadi. 6 ta asosiy simlari po'latdan va 14 ta qo'shimcha torlari ichakdan yasaladi. Kosasi yog'ochda o'yiladi va teri bilan qo'langan. Jambul va Kashmirda milliy ommabop bayramlarda keng foydalaniladi. Bundan tashqari, *burakatxa*, *tambura*, *dotara*, *gujaratan sarangi*, *ramsagar* va boshqa cholg'ular ham uchraydi.



Chertma torli cholg'ular

Chertma torli cholg'ular orasida eng keng tarqalgani va mashhuri setordir.

Setor – Janubiy Hindiston klassik musiqasidagi eng mashhur va keng tarqalgan qadimgi cholg'ulardan. 2 ta xumsimon kosalari bor. Ulardan

biri quloqlar oldida joylashadi. 5 ta asosiy torlari(2 tasi po‘latdan va 3 tasi misdan), dastada 19 ta tovush o‘rni belgilangan pardalar va fil suyagi bilan bezatilgan naqshlar mavjud. Mumtoz professional musiqa ijrochiligida yakkanavoz cholg‘udir. Bundan tashqari *banam*, *gupi*, *jantar*, *ka duitara*, *tampura* va boshqalar keng tarqalgan.

Hind musiqa madaniyatida ko‘p torli tirnama cholg‘u mavjud. U ham bo‘lsa *santur*dir. Ushbu cholg‘u ko‘rinish va ijro uslubidan changni eslatadi. Yog‘ochdan, bir-biriga yopishtirib yasaladi, 120 ta po‘lat simlari bor, ular 15 tadan ikki qator xarrakchalar ustiga tortiladi. 2 ta bambuk tayoqchalari bilan urib va tirnab chalinadi. Ularning uchi qayrilgan bo‘ladi. Farqi, yerga qo‘yib chalinadi. Mumtoz musiqa ijrochiligida keng ommalashgan⁶².



Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Hind madaniyati tarixi, siyosiy – jo‘g‘rofiy vaziyati, diniy – ma’naviy an‘analari, falsafiy oqimlar, adabiyoti va san’atini aytib bering.
2. Hindiston va Markaziy osiyo xalqlarining tarixiy – madaniy aloqalari – buddarastlik, zardushtiylik, islom dinlarining mavjudligi ahamiyatini izohlang.
3. Bobur va boburiylar davri Hindiston madaniyatida, temuriylar an‘analarining

ta’sirini ko‘rsating.

⁶² Jenevyev Durnon. An‘anaviy musiqa va musiqa cholg‘ularini to‘plash bo‘yicha qo‘llanma. YuNESCO. – T.;2003 85-87 b,

4. Hind musiqasining tarixiy manbalari. er.av. IV asrda kasbiy musiqiy teatr san'atining shakllanishi – “Natyashastra” qomusi haqida aytib bering.
5. Aytim, cholg'u va raqs san'atlarining mushtarakligi – “sangita”. Svara va shruti tizimlari. Rigveda, Samaveda, Mahabxoratlar xususida ma'lumotlar ayting.
6. Hind musiqasining janr qatlamlari, tasnifiy mezonlari – folklor va kasbiyot xususida ma'lumotlar bering.

Mavzu bo'yicha topshiriqlar:

1. Hind madaniyati tarixi, siyosiy – jo'g'rofiy vaziyati, diniy – ma'naviy an'analari, falsafiy oqimlar, adabiyoti va san'ati.
2. Hindiston va Markaziy osiyo xalqlarining tarixiy – madaniy aloqalari – bud'arastlik, zardushtiylik, islom dinlari.
3. Bobur va boburiylar davri Hindiston madaniyati, temuriylar an'alarining ta'siri.
4. Hind musiqasining tarixiy manbalari. er.av. IV asrda kasbiy musiqiy teatr san'atining shakllanishi – “Natyashastra” qomusi.
5. Aytim, cholg'u va raqs san'atlarining mushtarakligi – “sangita”. Svara va shruti tizimlari. Rigveda, Samaveda, Mahabxorat bo'yicha ma'lumot.
6. Hind musiqasining janr qatlamlari, tasnifiy mezonlari – folklor va kasbiyot.
7. Mavzu xususida Internetdan materiallar topish va ta'rifini keltirib yozish.
8. O'tilgan mavzudan krossvord tuzish.

XVII-XVIII DARSLAR: POKISTON MUSIQA MADANIYATI



Pokiston Islom Respublikasi. Poytaxti – Islomobod. Davlat tili – urdu va ingliz. Dini – islom. Pokiston to‘rtta voha (provinsiya)ga egadir. Ular: Panjob, Sind, Subaye Sarhad (Shimoliy-G‘arbiy chegara viloyati) va Belujiston. Mamlakatning aholisi 150 mln.dan oshadi. Asosan: panjobilar, sindlar, pushtunlar, belujilar, braguilar, kashmirilar va boshqa millat vakillari istiqomat qiladilar.

Pokiston musiqa madaniyati juda ham qadimiydir. Mamlakatning musiqasi betakror bo‘lib, o‘ziga xoslik jihatlari uning tarixiy rivojlanishi, geografik tuzilishi va albatta, aholisining etnik tarkibiga qarab ajratiladi. XII asriga kelib, Pokiston xalq musiqiy an‘analari negizida tubdan o‘zgarishlar yuz bergan. Ayniqsa, islomning musiqaga ta‘siri ulkan bo‘lgan. Barcha davlatni boshqargan hukumdorlar ham islomning rahnamoligi va uning an‘analariga

xayrixoh bo'lganligi sababli madaniy hayot o'ziga xos tarzda rivojlandi.

Ma'lumki, 1947 yilning avgust oyida Hindiston ikkiga bo'linadi. Ya'ni, Hindiston tarkibidan Pokiston mustaqil davlat sifatida ajralib chiqadi.

Satara (yoki pava) – naysimon cholg'u ijrochisi.



Pokistonda etnik tarkib murakkab bo'lishiga qaramay o'zining milliy uslublari negizida rivojlandi. Uning asosida folklor va keng rivojlanishga muyassar bo'lgan kasbiy mumtoz musiqasi turadi. Folklor musiqasi barcha xalqlar kabi millatlarning milliy an'analari va hayoti bilan bog'liq jihatda shakllanadi va rivoj topadi. Pokiston kasbiy musiqasi o'ziga xosdir. Kasbiy musiqaning asoschilaridan biri sifatida

Pokistonda sind xalqining mashhur shoiri **Shoh Abdul Latif Bxatai** e'tirof etiladi. Abdul Latif Bxatan XVII-XVIII asrda yashab ijod etgan va sind musiqa maktabiga asos solgan. U bastakor sifatida o'z xalqining milliy an'analari asosida bir qator qo'shiqlar yaratadi. Bu qo'shiqlar hozirgi davrgacha o'z salohiyatini saqlab kelmoqda.

Pokiston mumtoz musiqa merosida keng tarqalgan bir qator janrlar ahamiyatli hisoblanadi. Bular – raga, qavvali, g'azal, xayal, dxrupad va boshqalardir.

G'azal – Hindiston, Pokiston, Afg'oniston va Eron musiqa madaniyatlarida keng ommalashgan musiqiy janr.

Gʻazal XIV-XV asrlarda yashagan Sharq musiqashunos olimi Abdulqodir Marogʻiyning yozishicha “navbat” deb ataluvchi murakkab kompozitsiyaning ikkinchi qismidir. Bu atama A.Navoiy, N.Kavkabiy, N.Chishtiylar asarlarida musiqiy janr sifatida belgilangan. Jumladan, Alisher Navoiyning “Holati pahlavon Muhammad” asarida quyidagi maʼlumotlarni uchratamiz⁶³: “Ul jumladin advor va musiqiy ilmidurkim, chun lahjasi va husni savti xub ekandur va usuli mazbut va harakoti va sakonoti magʻrub. Ul daqiq fanda qoʻshish va saʼy koʻrguzib dahli tom va mahorati malakalom topib erdi va dilkash naqshlar va amallar va dilpisand qavllar, gʻazallar tasnif qilur erdi. Andoqki, eshitgan havas va avom xushhol boʻlmoqda beixtiyor va oʻrganmoqda beqaror erdilar”. Bu yerda shoir gʻazalni qavl nomli musiqiy janr bilan yonma-yon tilga olib, muxlislar tomonidan sevib tinglanganini bayon etadi.

XVII asrga mansub olim **Muhammad Nurasad Chishtiy** oʻzining “**Nagʻmai Ushshoq**” (Ushshoq navolari) risolasida fors-tojik va Hindiston musiqa anʼanalarining aloqadorliklari haqida yozib, qator janrlarni sanab oʻtadi. Uning yozishicha rexta, qavl, qavvali, txumri, xayyal, gʻazal, naqsh, amal, peshrav va boshqa musiqa turlari Movarounnahr, Xuroson va Hindiston hududlarida vujudga kelgan

Gʻazal – sheʼriy shakl boʻlib, sharq xalqlari adabiyotining muayyan janri hisoblanadi. Achariya Brihaspati oʻzining “Musulmonlar va Hindiston yarim oroli musulmonlar musiqasi” (Z.Nasullaev tarjimasidagi) asarida⁶⁴, Adib Suxeylning bir qator ilmiy tadqiqotlari va Muhiddin Nosirovning “Gʻazal janri” kabi ilmiy maqolalarida gʻazal janrining ibtidoiy shakllanishi, taraqqiyoti hamda rivojlanish mezonlari yoritilgan. Unga koʻra gʻazal musiqiy janrining shakllanishi XIV asrga toʻgʻri keladi. Gʻazal musiqiy janrining asoschilaridan biri buyuk shoir va bastakor Amir Xusrav Dehlaviy deb risolalarda taʼkidlaniladi. Amir Xusrav Dehlaviyni gʻazal janri bilan

⁶³ Навоий А. Холати Пахлавон Муҳаммад. – Т.; 1966. 90 б.

⁶⁴ Achariya Brihaspati. Musulmonlar va Hindiston yarim oroli musiqasi. (tarjima Z.Nasullayev). –Т.; 2008. 59-b.

birga musiqa san'atiga o'zining xizmatlari, ya'ni sitor va tabla cholg'ularini yaratganligi bilan alohida e'tirof etiladi.

“G'azal” so'zi urdu tilida “lirik she'riy shakl” degan ma'noni anglatadi. Amaliyotda uning 3 xil turi ommalashgan:

1. **Mumtoz g'azal;**
2. **Engil g'azal;**
3. **Film g'azal,** ya'ni film uchun yaratilgan g'azallar.

Odatda, g'azal ayol yoki erkak xonandalar tomonidan ijro etiladi. Unga *sitor, sarangi, svarmandal, tabla, bansuri* kabi cholg'ular ansambli jo'r bo'ladi. Ko'p hollarda xonanda fisgarmoniya cholg'usida o'ziga o'zi jo'r bo'ladi. G'azallar urdu, hind va fors tillarida ijro etiladi. G'azal falsafiy-lirik mazmunga egaligi bilan ahamiyatlidir. Musiqiy namuna keng diapazonga ega bo'lib, murakkab kuy tuzilmasi, ohang rivojining o'zgaruvchanligi, usul jihatlama ancha murakkabligi va badihaviy elementlarining mavjudligi bilan karakterlanadi. Yakkaxon xonanda tomonidan ijro etilishining asosiy jihati ham shundadir.

G'azalning janr xususiyati doirasida tarkibiy qismlari mavjuddir. Ularning har bir tarkibiy bo'laklari alohida o'ringa ega bo'lib, turlicha nomlanadi. G'azalning boshlanish daromad qismi **alap** deb yuritiladi.

Alap asarning muqaddima qismi bo'lib erkin holda talqin etiladi, asosiy tovushqator kuylangach, asarning asosiy qismi, ya'ni matniga o'tiladi. Bunda xonanda hind ragalari kabi vokal ijro uslubidan foydalanadi va badihaviy ruhda kuylab o'z xonandalik mahoratini ko'rsatadi. So'ngra, (urma cholg'u) tabla yordamida asarning asosiy qismini ijro etadi.

G'azal janrining she'riy matnlari XIII-XX asrlarda yashab ijod etgan mumtoz shoirlarning g'azallari hamda hozirgi kunda shu janrda qalam tebratayotgan Hindiston va Pokiston yosh shoirlarining ijodiy namunalari tashkil qiladi. Bular ichida Amir Xusrav Dehlaviy, Kabir, Surdas Mirza G'olib, Muhammad Iqbol, Ahmad Fayz, Ahmad Faraz kabi mashhur shoirlarning g'azallari yetakchi o'rin egallaydi. Bu janr

bir necha o‘n yilliklardan buyon Hindiston – Pokiston kinofilmlarida ham keng qo‘lanilmoqda.

Qavvali – Pokistonning mumtoz janrlaridan biri. Shu bilan birga qavvali Shimoliy Hindiston, janubiy-g‘arbiy Afg‘onistonda ham mavjud. Qavvali maxsus ansambl tomonidan ijro etiladigan jamoaviy janrdir. Unda asosan 2 asosiy, 5-6 ta jo‘rnavez xonandalar, sitor, sarangi, tan‘ura, fisgarmoniya va tabla kabi musiqiy cholg‘ular qatnashadi. Shakl jihatidan qavvali turkum shaklidagi aytim cholg‘u janri hisoblanadi. Qavvali uslub jihatdan mukammalligi va ko‘p qismliligi, usul asoslari va lad ohanglarining rivojlanganligi hamda ijrochilik mahoratining yuqori darajadali bilan professional an‘anaga moyildir.



Nusrat Fateh Ali Xon ijrosida «Qavvali» janri

“Qavvali iborasi - deb yozadi M.Nosirov o‘z maqolasida - so‘zlash (nutq), gapirmoq ma’nolarini anglatadi. Musiqada esa keng ma’nodagi aytim janri tushunchasini bildiradi. Qavl so‘ziga asoslangan qavval atamasi deklomator (notiq), baxshi va xalq kuychisi

ma'nolarini aks ettiradi". Qavvali so'zining yana bir ma'nosi "usullar jamlamasi" demakdir⁶⁵.

O'tmishda yaratilgan ko'p (Adib Suxeyl, Inayat Illahi Mulk tomonidan yaratilgan) risolalarda qavvali janrining asoschisi Amir Xusrav Dehlaviy deb ta'kidlanadi. Albatta, qavvali Xusrav Dehlaviy ijodida takomillashgani va bir qator musiqiy namunalari yaratilganligi xususida ham ma'lumotlar bayon etilgan.

Qavvali jamoalar tomonidan ijro etiladigan turkumiy janr. U asosan ragalar yo'lida yaratilgan bo'lib usullarning rang-barangligi va kuylarning mukammal hamda jozibaliligi, xalqonaligi bilan ajralib turadi. Qavvalida ko'proq uchraydigan usullar va ularning nomlari quyidagicha: kexarva tal (8/8), dadra tal (6/8), pushtu tal (7/8) va hokazo.

Amir Xusrav Dehlaviy (1253-1352) ham o'z ijodida 20 ga yaqin usullarni kashf etgan degan fikrlar ham risolalarda zikr etilgan. Har bir qavvali namunasining alohida usullar va ayniqsa ohanglarda ijro etilishi juda muhimdir.

Qavvali ikki xonanda tomonidan ijro etiladi. Har bir ijrochining kuyi alohida bo'lib, bir-birini to'ldiruvchi, musobaqa qiluvchi xususiyat ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ansambl tarkibidagi 5-6 xonandalar esa ularga bir ovozda (naqorat aytish, qaytarishlarni faol tarzda qarsaklar bilan qaytarib turish orqali) jo'r bo'ladilar. Qaysidir ma'noda buni qavvalining asosiy xususiyatlaridan biri deyish ham mumkin. Lekin, janr xususiyatida xonandalarning alohida vazifalari belgilangan. Unga ko'ra, birinchi raqamli asosiy xonanda asarning pardalari, kayfiyati hamda takrorlanuvchi badihaviy musiqiy mavzularini talqin etadi. Ikkinchi xonanda esa asosan hamnafas xonanda vazifasini ado etib, asosiy xonandaga ko'mak berib, badihaviy qismlarida faol ishtirok etadi. Har ikki xonandaning kuchli ovoz, ijroviy mahorat va yetarli bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi⁶⁶.

⁶⁵ Nosirov M. Pokiston musiqa madaniyati.

⁶⁶ Насуллаев З. Традиция и современность в музыкальной культуре Пакистана. // Йилнома. – Т.; 2009.

Qavvalining soʻz matnlari asosan sharq shoirlarining gʻazallari, qasida va ruboiylariga asoslanib ijro etilib kelingan. Jumladan A.X.Dehlaviy, Tulsi Dasa, Aurangabari, Mirza Gʻolib, Muhammad Iqbol va hokazo. Qavvalida Alloh va uning Rasuli Muhammad(s.a.v)ga muhabbat, hamdu sanolar, vatanparvarlik va diniy mavzular keng oʻrin egallagan.

Boburiylar imperiyasi hukmronligi davrida qavalli janri mashhur janrlar qatoridan oʻrin oldi. Bobur va Boburiylar sulolasi vakillari (Akbarshoh – Jahongir – Shohjahon) ham ushbu janrning ixlosmandlari boʻlganlar. Shu davrning koʻzga koʻringan qavval ijrochilari Roʻza va Kabirlarning nomlari risolalarda qayd etilgan. Ular qavvali janrining rivojiga ulkan hissa qoʻshganlar. Hozirgi kunda mashhur qavvali ijrochilaridan aka-uka Majid va Rashid Faridiylar, Hofiz Otamuhammad, Xoji Mahmud, Gʻulom Faridlar nomlarini sanab oʻtish joizdir.

Qavvalining betakror ijrochilaridan biri **Nusrat Fotih Alixon (1949-1997)** boʻlib, olti asrlik qavvali ijrochiligi anʼanalarini davom ettirgan. Bu janrning Gʻarb mamlakatlarida mashhur boʻlishiga, aynan shu ijrochi sababchi boʻlgandir. Qavvali ijrochiligida soʻz matnlarining toʻgʻri talaffuz etilishi, soʻz va ohangning hamohangligi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Badihagoʻylik asosida ovozning bor imkoniyatlari namoyon etiladi. Qavvali janrining muhim xususiyatlaridan biri, usulning muntazam qarsak yordamida koʻrsatilishidir.

Qavvali ijrochilik sanʼati avloddan avlodga oʻtib keladi. Qavvali ijrochisi oʻrtacha arab, urdu, hindu, fors tillarida 500 yaqin sheʼriy matnlarni bilishi zarurdir va bu ijrochidan mahorat, iqtidor kabi qobiliyatlar egasi boʻlishni talab qiladi. Taniqli shayxlar qasidasidan ham lavhalar ijro etiladi. Qavvali asarlarining ijrosi bugungi kunda soʻfiylar doirasi bilan chegaralanib qolmasdan, kino musiqasi va konsert dasturlaridan ham muntazam oʻrin olgan. XX asr qavvali

musiqasi ham o'zining o'tmishdagi xususiyatlarini saqlab qolgan holda ommaviylashib bormoqda.

Hozirgi kunda Pokiston musiqa madaniyatida zamonaviy musiqa namunalari rivoj topayotganligini ko'rish mumkin. Urdu, panjob va sindhi tillarida teatr va kinofilmlar uchun yaratilayotgan musiqalar so'zimizning isbotidir. Bundan tashqari Pokiston an'anaviy, xalq va folklor musiqa merosini saqlash va rivojlantirish yo'lida Pokiston madaniyat va san'at institutlari, "Lork Virsa" – (Islomobodda joylashgan) xalq merosi ilmiy-tadqiqot institutlari, Haydarobod shahri Sind Universitetining "Sindshunoslik" fakultetlari qizg'in faoliyat olib bormoqdalar.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Pokiston madaniyati, tarixi va san'atiga oid umumiy ma'lumotlar bering.
2. Siyosiy, jo'g'rofiy vaziyati, davlatchiligi, madaniy an'analari, diniy – falsafiy oqimlarni aytib bering.
3. Pokiston musiqasining janr qatlamlari, tasnifiy mezonlari xususida izoh bering.
4. Musiqiy folklor turlari: diniy marosim musiqasi, tasavvuf estetikasi va marosim aytim turlari – qavvali, g'azal, sama. Oilaviy marosim va bayram aytim va cholg'u turlari. Mahalliy ijrochilik yo'nalishlarini aytib bering.
5. Pokiston ragalarining milliy – mahalliy xususiyatlari, aytim uslubining ustuvorligi, aytim – improvizatsiya xususiyatlari, inson ovozi – cholg'u sifatidagi ahamiyatini aytib bering?

Mavzu bo'yicha topshiriqlar:

1. Pokiston madaniyati, tarixi va san'atiga oid umumiy ma'lumotlar;
2. Siyosiy – jo'g'rofiy vaziyati, davlatchiligi, madaniy an'analari, diniy – falsafiy oqimlari;
3. Pokiston musiqasining janr qatlamlari, tasnifiy mezonlari;

4. Musiqiy folklor turlari: diniy marosim musiqasi, tasavvuf estetikasi va marosim aytim turlari – qavvali, gʻazal, sama. Oilaviy marosim va bayram aytim va cholgʻu turlari. Mahalliy ijrochilik yoʻnalishlari;
5. Pokiston ragalarining milliy – mahalliy xususiyatlari, aytim uslubining ustuvorligi, aytim – improvizatsiya xususiyatlari, inson ovozi – cholgʻu sifatida;
8. Mavzu xususida Internetdan materiallar topish va taʼrifini keltirib yozish.
9. Oʻtilgan mavzu boʻyicha krossvord tuzish.

O'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun

TESTLAR

Sharq xalqlari musiqa tarixidan

№	Test topshirig'i	To'g'ri javob	Muqobil javob	Muqobil javob	Muqobil javob
1.	Arab sharqi qadimdan qanday nomlanib kelingan	*Mashriq	Saudiya arabistoni	Iroq	Arab amirligi
2.	Arab g'arbi qadimdan qanday nomlanib kelingan	*Mag'rib	Andalusiya	Jazoir	Tunis
3.	Arab tarixida islomgacha bo'lgan davr qanday nomlangan	*Johiliya davri	Sosoniylar davri	Kushonlar davri	Turk xoqonligi
4.	Arab klassik adabiyotini shakllanishida katta ahamiyat kasb etgan manba	*Quroni karim	Tavrot	Injil	Zabur
5.	Arab mumtoz musiqasi qaysi davrda shakllandi	*Ummaviylar davrida	Abbosiylar davrida	Mamluklar davrida	Johiliya davrida
6.	Arablarining musiqa nazariyasiga bag'ishlangan ilk kitob	*Kitab-al-ag'ani	Kitab ul - advor	Mafotix ul-ulum	Kitab al-musiqa al-kabir

7.	Musiqa ilmini gullab yashnashiga sabab markaz va qanday atalgan	*Bog‘dodda Donishman dlar uyini tashkil etilishi	Kasbiy musiqaning rivojlanishi	Ishoq Mavsiliy ijodi	Ibrohim Mavsiliyning maktabi
8.	Arablarning an‘anaviy musiqa janrlari kimlar ijodida asralib kelingan	*Roviy va mutriblar	Qalandarlar va so‘fiylar	Ashulachilar va hofizlar	Sozanda va mashshoqlar
9.	Arab professional musiqiy janrlari necha guruhga bo‘linadi	* Ikki guruh: erkin va muayyan ritmga asoslangan	Uch guruh: erkin, monodik vacholg‘u	Ikki guruh: cholg‘u va ashula	Uch guruh: Cholg‘u, ashula va erkin
10.	Arab vokal musiqasining yetakchi janrlari	*Qasida, muvashshah, dor	Qasida, bashraf	Bashraf, takasim	Takasim, dxurpat
11.	Muvashshaxlar nechta qismdan iborat	*To‘rt qismdan	Besh qismdan	Ikki qismdan	Uch qismdan
12.	Muvashshaxlar kimlar tomonidan ijro etib kelingan	*Erkaklari xori tomonidan	Erkak va ayollar guruhi tomonidan	Ayollar ansambli tomonidan	Yakka tartibda ijro etilgan
13.	Arablarning tuya bilan bog‘liq taniqli musiqiy namunalari qanday nomlanadi	*Xida	sar	mavval	Hija
14.	Arab dunyosining XX asrda eng ko‘zga ko‘ringan va sevimli san‘atkori	*Umm Kulsum	Fotima Saari	Ahmad SHavqiy	Ziryob

15.	Magʻrib qayerda joylashgan	*SHimoliy Afrikada	Janubiy Yevropada	SHarqda	Osiyoda
16.	Magʻrib qaysi mamlakatlarni oʻz tarkibiga oladi	*Jazoir, Marokash, Tunis, Liviya va Mavritaniya	Jazoir, Tunis, Liviya, Misr, Sudan	Misr, Sudan, Liviya, Iordaniya	Marokash, Misr, Jazoir, Tunis
17.	Magʻrib musiqa madaniyati rivoji necha yoʻnalishga boʻlinadi	*Ikki: Barbarlar davri va Arablar davri	Ikki: Arablar va Ispanlar	Ikki: Barbarlar va Skiflar	Arablar va turklar
18.	Magʻrib xalqlari milliy cholgʻulari qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan	*Rebab, ud, qonun, nay, darabuka, rikka	Ud, qonun, daf, rikka,	Rebab, lyutnya, qitora, daf, santur	Santur, qonun, darabuka
19.	Magʻrib musiqasining asoschisi	*Ziryob	Noqissa	Sarkash,	Borbad
20.	Bogʻdodning mashhur bastakori	*Ibrohim al-Mavsiliy	Borbad	Ozodvor changiy	Noqissa
21.	Magʻrib mamlakatlarining asosiy mumtoz musiqiy janri	*Nuba	Maqam	taqsim	Xida
22.	Jazoirning kamonli cholgʻusi	*Rebab	skripka	kemancha	Qoʻbiz
23.	Arablarining qadimiy torli chertma cholgʻusi	*Ud	rebab	tanbur	Qitora
24.	Jazoir nubalari nechta turkumchalardan iborat	*12 ta	6 ta	7 ta	9 ta

25.	Zamonaviy Mag‘rib nubalari amaliyotda nechta mahalliy yo‘nalishga ega va ular qaysilar	* uchta: Jazoir, Kustantaniya, Tlemsen	Ikkita: Tlemsen, Liviya,	Uchta: Marokash, Jazoir, Misr	Uchta: Sudan, Tunis, Andalusiya
26.	Jazoir nubalari yana qansi uslubdagi janr	*Oliy uslubdagi	Ashula uslubdagi	Yakka uslubdagi	Xor uslubdagi
27.	Yetakchi mumtoz musiqiy janr Nubalar Jazoirida qanday nomlanadi	*Navba	maqom	mug‘om	Raga
28.	Nubalar mikroturkumi necha qismdan iborat	*12 mikro qismdan	6-7 ta Taronalardan	10 qismdan	6 ta cholu va ashula turkumlari dan
29.	Tunis mumtoz musqa janri qanday nomlanadi	*Nuba	dastgoh	mug‘om	Maqom
30.	Arab va ispan tillari qo‘shilmasidan iborat namuna(diniy aytim) qanday nomlanadi	*Zajjal	xida	muashshax	qo‘shiq
31.	Tunis konservatoriyasi qachon ochilgan	*XX asr 60-yillarning boshlarida	1950 yilda	XX asr o‘rtalarida	XX asr boshida
32.	Arab madaniyatining yetuk mutaxassisi, kompozitor va ijrochi	*Saloh al-Mahdi	Mavsuliy	Umm Kulsum	Muhamm ad Azeddin

33.	Marokash torli cholg'ulari	*Ud, lira, rebab, mizmor	Ud, tanbur dutor, mizmar	Mizmar, kasba, chang, bendir, kasba	Bendir, tanbur, lira, shasht or
34.	Marokash milliy teatri va uning tadqiqot markazi qachon tashkil etilgan	*1956 yilda	XX asr boshlarida	1975 yilda	1980 yilda
35.	Sudan musiqa madaniyatining o'ziga xos jihatlari qaysi qabila musiqa madaniyatida ifodasini topgan	*Ash - Shagiya	Benderlar	Arablar	Habashlar
36.	Ash-Shagiya qabilasining folklor qo'shiqlarining ijro etish xususiyatiga ko'ra necha guruhga bo'linadi	*Ikkiga: ma'lum vaqtda va har doim	Uchga: hosil davrida, marosimlarda va diniy marosimda	Ikkiga: marosimlarda va har doim	Ikkiga: Har doim va diniy marosimlarda
37.	Ash-Shagiya professional musiqasi necha guruhga bo'linadi	*Ikkiga: Vokal, vokal-cholg'u	Ikkiga: cholg'u, ashula	Ikkiga: Vokal, cholg'u	Uchga: Vokal, vokal-cholg'a, cholg'u
38.	Mashriqda arab musiqasi haqida yozilgan kitob va uning muallifi	*Abul-Faraj Isfahoniy "Qo'shiqlar kitobi"	Abdulqodir Marog'iy "Qo'shiqlar kitobi"	Safiuddin Urmaviy "Kitab-ul-Advor"	Al-Forobiy "Musiqha haqida katta kitob"

39.	Koʻhna Misr musiqasi necha koʻrinishda boʻlgan	*Zodagonlar musiqasi va Oddiy xalq musiqa sanʼati	Professional va xalq sanʼati	Saroy va xalq musiqa sanʼati	Oddiy va murakkab
40.	Qadimgi Misrda professional musiqa ijrochilar va shoirlar	*Firavnlarni qarindoshi va moʻtabar zot hisoblangan	Saroy musiqachilari hisoblangan	Firavnlarni madaniyatini asrovchilari	Oddiy sanʼatkorlar
41.	Mashriqda azaldan ilm-fan markazi boʻlgan shahar va u qanday nomlangan	*Bagʻdod, “Donishmandlar uyi”	Hirotni, “Ilmutaʼlim”	Makka, Baytulloh	Bagʻdod.
42.	Iroq xalqining ilk qoʻshiq janri	*Xija	Maqom	Zajjal	Nuba
43.	Iroq maqtov qoʻshigʻi	*Fakr (Faxr)	Madhiya	Xija	Alla
44.	Iroq qasos qoʻshigʻi	*Sar	Riso	Avsal	Xida
45.	Iroq professional xalq musiqasi qanday nomlanadi	*Maqam	Nuba	Maqom	Muqom
46.	Maqam janri kim tomonidan va nechanchi asrda yaratilgan	*Badi-al-Zamon, XI asrda	Ibrohim Mavsuliy, IX asrda	Forobiy, X asrda	Ibn Sino, XI asrda
47.	Iroq maqamlarining doimiy ijro etiladigan tarkibiy qismlari	*Tahrir, avsal, karatat, miyonat va taslim	Daromad, miyonat va taslim	Sarxona, miyonat, dunasr va taslim	Pishdaromad, avsal, miyonat vataslim.

48.	Iroq maqomlari vohalariga ko'ra qaysi tillarda ijro etib kelinadi	*Arab, Kurd, turk, turkman va fors tillarida	Arab, iroq, fors va turk tillarida	Kurd va fors tillarida	Arab va turk tillarida
49.	Eron musiqa madaniyatining gullagan davri	*Sosoniylar davri	Somoniylar davri	Saljuqiylar davri	Ummaviylar davri
50.	Qadimiy Eronning mohir musiqachilari qaysi javobda to'liq ko'rsatilgan	*Borbad, Bamshod, Noqissa, Ozodvor, Sarkash	Ozodvor-changi, Bamshod, Noqissa, Sarkash	Bamshod, Noqissa, Ozodvor, Sarkash, Ishoq,	Barkeshli, Bamshod, Noqissa, Ozodvor, Sarkash, Ishoq,
51.	Ilk davrlarda qanday musiqiy shakllar mavjud bo'lgan	*Lahn, parda, doston, roh, xusravoniy	Doston, maqam, xusravoniy	Dastgoh, parda, doston, maqam, xusravoniy	Parda, dastgoh, doston, roh, xusravoniy
52.	Eron klassik musiqasining yetakchi janri	*Dastgoh	Maqam	Nuba	Raga
53.	"Du - yak" usulini yaratuvchisi kim	*Ozodvor	Borbad	Mavsuliy	Bahrom Go'r
54.	Saffara cholg'usi qanday cholg'u	*damli	kamonli	Urma zarbli	Torli
55.	Eron milliy cholg'ulari	*Santur, tor, qonun, daff	Kamoncha, chang, qonun, tabla	Kamoncha, nay, qonun, tabla	Kamoncha, rubob, qonun, daff
56.	Eron dastgohlari nechta turkumiy qismdan iborat	7 ta asosiy va 5 ta yondosh	6 ta asosiy va 6 ta yondosh	7 ta asosiy va 4 ta yondosh	12 ta asosiy va 5 ta yondosh

57.	Eron dastgohlarida asar birligi qanday nomlanadi	*Go'sha	SHo'ba	Nag'ma	Parda
58.	Dastgoh turkumlarida nechtdan go'shalar mavduj	*40 tadan 60 tagacha	20 tadan 30 tagacha	30 tadan 50 tagacha	40 tadan 50 tagacha
59.	Eron dastgohlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan	*Shur, Segoh, Chaxorgoh, Mohur, Xumoyun, Navo, Rost Panjgoh	*Shur, Segoh, Chaxorgoh, Mohur, Xumoyun, Navo, Rost Panjgoh	*Shur, Segoh, Chorgoh, Mohur, Xumoyun, Navo, Rost Panjgoh	*Shur, Dugoh, Segoh, Mohur, Xumoyun, Navo, Rost
60.	Eronda taniqli musiqashunos olim	*M.Barkeshli	Darvesh Ali CHangiy	A.Vaziriy	A.Sanjariy
61.	Maqom yo'llaridagi ilk Eron mumtoz musiqasi qanday nomlangan	*Xusravoniy	Dastgoh	Maqam	Mug'om
62.	Xusravoniylar nechta turkumdan iborat	*7ta	6 ta	12 ta	8 ta
63.	Eron musiqasi tarixiga bag'ishlangan "Ustodoni musiqiy Eron va alhoni musiqiy Eron" kitobining muallifi	*Dariush Safvut	M.Barkeshli	Saloh alMehdi	Ozodvor CHangiy
64.	Mumtoz musiqiy janr asoschisi va janr nomi	*Borbad, Xusravoniy	Noqissa, parda	Ozodvor, lahn	Bomshod, Xusravoniy

65.	Borbad ijodidan saqlangan kuylar	*30 ta	37 ta	40 ta	33 ta
66.	Eron musiqasida nechanchi asrdan boshlab Ovrupo musiqasi ta'siri sezila boshlangan	*XIX asrning ikkinchi yarmidan	XV asrdan	XVIII asrdan	XX asrdan
67.	Eronda musiqa ijodkori, xalq bastakoriga qanday ibora ishlatiladi	*ohangsoz	bastakor	kompozitor	Ijodkor
68.	“Eron musiqasining mumtoz an'analari” kitobining muallifi	*V.Vinogradov	Dariush Safvut	V.Belyaev	V.Uspenskiy
69.	Afg'oniston xalqining mumtoz musiqiy janrlari	*G'azal, doston, chorbayt	Qo'shiq, doston, chorbayt	G'azal, doston, dxrupad	Qavalli, doston, chorbayt
70.	Afg'onistonning davlat tillari	*Dari va pushtu	Afg'on va pushtu	Pushtu va urdu	Afg'on va doriy
71.	Hirotda yashab ijod etgan o'zbek mutafakkir shoiri	*Alisher Navoiy	Abdurahmon Jomiy	Binoiy	Lutfiy

72.	Afgʻon musiqiy merosi necha guruhga boʻlinadi va qanday nomlanadi	*6 ta, Togʻliklar kuylari, klassik kuylar, toʻy marosim qoʻshiqlari, diniy marosim, hajviy va ishqiy qoʻshiqlar	4 ta, Klassik kuylar, toʻy marosim qoʻshiqlari, diniy marosim, mehnat qoʻshiqlari	5 ta, Klassik kuylar, toʻy marosim qoʻshiqlari, diniy marosim, mehnat hajviy va ishqiy qoʻshiqlar	6 ta, Togʻliklar kuylari, klassik kuylar, toʻy marosim qoʻshiqlari, mehnat va ishqiy qoʻshiqlar
73.	Afgʻon folklor musiqasida keng ommalashgan janr	*Landay	Qoʻshiq	Yalla	Alla
74.	“Afgʻon xalq musiqasi” kitobining muallifi kim	*V.Belyaev	I.Rajabov	Yu.Rajabiy	V.Uspenskiy
75.	Afgʻoniston saroy musiqasi rivojiga qaysi xalq musiqasi taʼsir etgan	*Hind musiqasi	Eron musiqasi	Arab musiqasi	Tojik musiqasi
76.	Afgʻon mehnat qoʻshiqlari qanday uslubda nomlanadi	*Togʻliklar musiqasi	Marosim qoʻshiqlari	Mumtoz namunalar	Xalq kuylari
77.	Afgʻonistonning taniqli mumtoz xonandasi	*Ustoz Muhammad Xuseyn Sarohang	Navvbi Habib	Muhammad Farrux	Shojarayon

78.	Turk an'anaviy musiqasi nechta qatlamga bo'linadi va qanday nomlanadi	*2 ta: xalq va professional	2ta ommaviy va kasbiy	2 ta bastakorlik va kompozitorlik	CHolg'u va vokal
79.	Turk xalq musiqasida nechta uslubiy guruh mavjud va qanday ataladi	*2 ta: uzun hava va kirik hava	2 ta: Murekkab xava va basit hava	2 ta: uzun hava va basit hava	2 ta: oddiy hava va kirik hava
80.	Turkiyada kuy atamasi o'rniga qanday atama qo'llaniladi	*Xava	kuy	Parda	Lahn
81.	"Fatxiya" va Zayn ul Alhon" asarlarining muallifi kim	*Mahmud Chalabiy	Safiuddin Urmaviy	Abdulqodir Marog'iy	Qutbiddin Sheroziy
82.	"SHarafiya" va "Kitab ul Advor" asarlarining muallifi	*Safiuddin Urmaviy	Mahmud Chalabiy	Abdulqodir Marog'iy	Dilshod Badriy
83.	"Durrat ut toj" kitobi muallifi	*Qutbiddin Sheroziy	Safiuddin Urmaviy	Mahmud CHalabiy	Abdulqodir Marog'iy
84.	Turkiyada ommalashgan va tarkibi qator maqamlardan iborat turkumiy shakl	*Fasl	maqom	dastgoh	Mushkilot
85.	Turkiya milliy kompozitorlik maktabi qachon shakllana boshlagan	*1930-yildan	1900-yildan	1940-yildan	XX asrning ikkinchi yarmidan

86.	Turk milliy kompozitorlik maktabini yaratgan namoyandalar xalq orasida qanday atalgan	*"Turk beshligi"	"Qudratli to'da"	"Turk uchligi"	"Turk to'rtligi".
87.	Turk milliy kompozitori A.Saygunning "Feridun" operasi nechanchi yilda va qayerda sahnalashtirilgan	*1934 yilda Arqara xalq uyida	1940 yili Ankara konservatoriy asida	1930 yili Istambulda	1929 yili Turk musiqiy teatrida
88.	Ankara davlat konservatoriyasi qachon tashkil etilgan	*1936 yili	1930 yili	1932 yili	1935 yili
89.	Turk musiqa san'atida usullar necha turga bo'linadi	*2 turga bo'linadi: kichik va katta usullar	2 turga bo'linadi oddiy va murakkab	3 turga bo'linadi. Oddiy, murakkab va oqsoq usullar	3 turga bo'linadi oddiy, murakkab va qo'shimcha
90.	Mumtoz turkumiy janr "Fasl"lar tarkibiy xususiyatiga ko'ra necha turga bo'linadi	*3 turga bo'linadi: Oddiy, ko'chirimli va murakkab	3 turga bo'linadi: Oddiy, murakkab va aralash	4 turga bo'linadi: Oddiy, ko'chirimli, vazmin va aytimli	3 turga bo'linadi: cholg'u, ashula va murakkab
91.	Hindistonning tarixi bitirgan risolalar qanday nomlanadi	*"Veda"lar	Dostonlar	risolalar	entsiklopediyalar

92.	Hindistonda yoʻnalishi boʻyicha shakllangan nechta vedalar mavjud va qanday nomlanadi	*4 ta: Rigveda, Axtarvaveda, Samaveda, Yadjurveda	3 ta: Rigveda, Axtarvaveda, Yadjurveda	5 ta: Rigveda, Talaveda, Axtarvaveda, Samaveda, Yadjurveda	4 ta: Sangitveda Axtarvaveda, Samaveda, Yadjurveda
93.	Hind vedalarining orasida qaysi birida musiqa ifodalangan	*Samaveda	Rigveda,	Axtarvaveda	Yadjurveda
94.	Hindlarning yetakchi mumtoz janri qanday nomlanadi	*Raga	Dxrupad	Gʻazal	Qavvali
95.	Hind musiqasida nechta asosiy uslub mavjud va qanday nomlanadi	*2 ta uslub mavjud: “Hindustani” (SHimoliy) va “Karnatak” (Janubiy)	2 ta uslub mavjud: SHimoliy va Janubiy	2 ta uslub mavjud: “qadimiy” va “zamonaviy”	3ta uslub mavjud: “Hindustani” (SHimoliy), Dehlaviy (markaziy) va “Kashmir” (Janubiy)
96.	“Hind mumtoz maqomlari” “RAGA” soʻzining lugʻaviy maʼnosi	*Boʻyoq, rang, tus	Asar, rang, usul, lad	Lad, rang, tus, usul	Lad, rang, tus

97.	Tovushlarning miqdoriga qarab Hind ragalari necha pogʻonali tovushqatorlarda ijro etiladi	*5 tonlik, 6 tonlik va 7 tonlik	5 tonlik, 7tonlik va 8 tonlik	12 tonlik, 6 tonlik va 8tonlik	5 tonlik, 12 tonlik va 8 tonlik
98.	Hind musiqa merosidagi klassik janrlar qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan	*Qavvalli, dxrupad, gʻazal, xayal, txumri	Qavvalli, kadjari, gʻazal, txumri	Qavvalli, dxrupad, gʻazal, shari, bxajan	Dxrupad, gʻazal, qoʻshiq, xayal, txumri
99.	Shimoliy Hindistondagi mumtoz musiqa janri	*Soʻfyana kalam (Kashmir maqomlari)	Raga	Maqam	Qavvalli
100.	Amir Xusrav Dehlaviy takomillashtirgan taniqli hind torli cholgʻulari	*Setor, tabla	Sarud, mridangam	Sarangi, setor	Setor, nagara
101.	Kamonli hind cholgʻusi	*Sarangi	Angoja	kamoncha	gʻijjak
102.	Mashhur hind sozanda va bastakori	*Ravi Shankar	Bismilloxon,	Nusrat Foltix Alixon	Barkeshli
103.	“Sangit darpan” nomli musiqaga bagʻishlangan yirik asar muallifi kim	*Damodar	Mangxari	Ravi Shankar	Pandit Vyas
104.	“Musulmonlar va Hindiston yarim oroli musiqasi” kitobining muallifi kim	*Achariya Brixaspati	Ravi Shankar	Gʻulom Ahmad	Ilmas Xuseynxan

105	“Musulmonlar va Hindiston yarim oroli musiqasi” kitobi o‘zbek tiliga tarjimasi kim tomonidan amalga oshirilgan	*Z.Nasrullaev	R.Abdullaev	F.Karomatov	Z.Oripov
106	Hind ragalari kitobi muallifi kim	*V.Vinogradov	V.Belyaev	A.X.Dehlaviy	Ragxava R.Menon
107	“Traditsionnaya muzika arabskogo Vostoka” (Arab sharqining mumtoz musiqasi) monografiyaning muallifini aniqlang	*I.Eolyan	M.Barkeshli	Sax al Mehdi	I,Rajabov
108	Sharq musiqiy manbashunosligi kitobining muallifi	*Oripov Z.	R.Abdullaev	Z.Nasrullaev	A.Nazarov
109	Hind musiqasi kitobining muallifi	*Chaytanya B.Deva	R.Shankar	Ustod Madadi	F.Karomatov
110	M.Barkeshli tomonidan Eron klassik musiqasiga bag‘ishlangan asar qanday nomlanadi	*Eron dastgohlari	Eron xalq musiqasi	Eron klassik musiqasi	Eron xalq kuylari

111	Pokistonda hind xalqining mashhur shoiri nomini ko'rsating?	*Abdul Latif Bxatai	Surdas Mirza G'olib	Muhammad Iqbol	Kabir
112	Pokiston davlat tillari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.	*Urdu va lotin	Pushtu va hind	Lotin va hind	Urdu va hind
113	Pokiston Hindiston tarkibitdan neyinchi yilda mustaqil davlat bo'lib ajralib chiqqan?	*1947 yilda	1948 yilda	1950 yilda	1955 yilda
114	Pokistonda mumtoz musiqa merosida keng tarqalgan janrlardan qaysi biri "Navbat" deb ataluvchi murakkab kompozitsiyaning tarkibiga kiritilgan?	*G'azal	Xayal	Qavvali	Raga
115	"Nag'mai Ushshoq" (Ushshoq Navolari) risolasi muallifini ko'rsating?	*Muhammad Narasad Chishtiy	Abdul Latif Bxatai	Amir Xusrav Dehlaviy	Muhammad Iqbol

116	Gʻazal musiqiy janrining shakllanishi nechanchi asrlarga toʻgʻri keladi?	*XIV asrga	XV asrga	XVI asrga	XVII asrga
117	Urdu tilida “Gʻazal” soʻzi qanday maʼnoni anglatadi.	*Lirik sheʼriy shakl	Lirik musiqiy shakl	SHeʼriy shakl	SHeʼriy musiqiy shakl
118	Gʻazal musiqiy janrining daromad qismi nima deb ataladi	*Alap	Qavl	Xayal	Xeron
119	Pokistonning yetakchi mumtoz janri va uning Gʻarb mamlakatlarida mashhur boʻlishiga aynan qaysi ijrochi sababchi boʻlgan?	*Qavvali, Nusrat Fotix Ali Xon	Qavvali, Tulsi Dasa	Dxrupad, Tulsi Dasa	Dxrupad, Mirzo Gʻolib
120	“Qavvalli” janrining asoschisini koʻrsating?	*Amir Xusrav Dehlaviy	Mirza Gʻolib	Muhammad Iqbol	Adim Suxeyl

XULOSA

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘nggi qisqa vaqt ichida ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida bo‘lgani kabi milliy-ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash, ajdodlarimizdan qolgan ulkan madaniy merosni chuqur o‘rganish mustaqil o‘zbek davlatchiligi qurilishining bosh mezonini etib belgilandi.

Sharq xalqlarining musiqa madaniyatini o‘rganish, unga bo‘lgan qiziqish doimo jahon musiqashunoslik ilmi namoyandalarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. So‘nggi yarim asr davomida musiqashunoslik ilmida ushbu masalani mazmun jihatidan o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj to‘la shakllandi. Qolaversa, ushbu sohaga jahonning aksariyat musiqiy oliy ta’lim muassasalarida maxsus fan sifatida o‘quv dasturlariga kiritilgan. Jumladan, respublikamizning musiqiy ta’lim yo‘nalishi tizimidagi oliy ta’lim muassasalarida maxsus fan sifatida o‘z ifodasini topgan.

Mazkur darslikda Yaqin va O‘rta Sharq – Hindiston, Pokiston, Turkiya, Afg‘oniston, Eron va Arab mamlakatlari xalqlariga tegishli bo‘lgan tarixiy va musiqiy ma’lumotlar qamrab olingan. Ulardan har biri asrlar davomida o‘z madaniy an‘analarining shakllanishi va taraqqiyoti bilan bog‘liq rivojlanish bosqichlariga egadir. Bizgacha yetib kelgan shakllarida esa har bir xalqning o‘ziga xos musiqiy folklor janrlari, betakror mumtoz musiqiy namunalar yuzaga kelganligining guvohi bo‘lamiz.

Sharq mamlakatlarining musiqa san’ati, madaniyatini o‘rganish, albatta, bu xalqlarning og‘zaki va yozma manbalari, musiqiy dunyosini anglash bilan bog‘liqdir. Har bir mamlakatning geografik o‘rni, hududi, aholisi, milliy an‘analari, e’tiqodi, madaniyati va albatta musiqiy san’ati xususida alohida to‘xtalib o‘tiladi.

Sharq mamlakatlari musiqa madaniyatini anglash, idroklash albatta, talabalardan ma’lum darajada tayyorgarlikni talab etadi. Talabalar o‘z milliy musiqa merosini kerakli darajada o‘rganib,

muayyan bilimga ega bo'lishlari lozim. Xorijiy tillarni ham bilishlari talabalarga turli tillarda yozilgan manbalar bilan tanishishlari uchun imkon yaratadi. Shunga ko'ra darslikning abiyotlar ro'yxatiga fors, tojik, arab, hind, urdu, fransuz, ingliz tillarida yozilgan adabiyotning ham ko'rsatkichlari va tegishli ma'lumotlari keltiriladi.

«Sharq xalqlari musiqa tarixi» fanining asosiy maqsadi - musiqa sohasidagi oliy ta'lim muassasalari talabalariga Sharq xalqlari musiqa madaniyatida tarixiy jarayon, musiqa san'ati nazariyasi, tarixi, amaliyoti, san'at namoyandalari, janrlari, cholg'ulari rivojlanish bosqichlari haqida atroflicha ma'lumot beradi. Ushbu fanni o'zlashtirish jarayonida bo'lajak mutaxassislar barcha Sharq xalqlari musiqa madaniyatidan, amaliyotidan, nazariyasidan zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. Talabalarning mazkur fanni o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, barcha xalqlarga tegishli bo'lgan musiqiy yozuvlar (audio va video), hamda musiqiy kompyuter dasturlaridan foydalaniladi.

GLOSSARIY

Avdj – (arab. – cho‘qqi, baland) – Musiqa asarining eng yuqori cho‘qqisi, pardasi

Alla – bolani uxlatish jarayonida aytiladigan ona qo‘shig‘i

Advar – Doira shaklidagi usul

Al-alat - Ko‘y

Al-Djam - tizim

Al-Ika – usul

Ansambl - (frants. ensemble - birgalikda) – Ovoz yoki tovushlarning uyg‘unlashuvi, bir guruh ijrochilar uchun mo‘ljallangan musiqa asari

Ashula – yakka xonanda yoki xonandalar guruhiga mo‘ljallangan, mumtoz o‘zbek musiqa merosida o‘rin egallagan aytim janri

Alap – raganing (xind mumtoz janri) kirish qismidagi usul jo‘rligisiz ijro

Aktsent – Lotin tilidan urg‘u, ta’kidlash degan ma’nolarni bildiradi. Biror tovush yoki akkordni qattiq ijro etishdir

Alt - Lotin tilidan baland, yuqori ovoz degan ma’noni bildiradi. Bola yoki xotin – qiz xonandalar (metstso – soprano, kontralto) ovozidan pastroq, erkaklarning (tenor) ovozlaridan yuqoriroq eshitiladi. Ovoz ko‘lami odatda kichik oktava lyadan – ikkinchi oktava miga qadar bo‘ladi

Ag‘ani al amal - mexnat qo‘shig‘i

Ag‘ani al manaxa - qadimiy yig‘i qo‘shig‘i

Argul - qadimiy damli cholg‘u, qo‘shnayga o‘xshash

Ashulachi – ashula janrini kuylovchisi

Bam - ud cholg‘usining to‘rtinchi tori, qora

Badaviylar - ko‘chmanchi arablar, saxro xalqi

Buzurg - arab-eron maqomlaridagi parda

Badaxayal - “xael” janrining past usuli

Barbat - qadimiy sharq cholg‘o‘si, ud cholg‘usi.uruhiga kiradi

Buzruk – SHashmakomdagi birinchi maqomning nomi

Bu'd - (ab'ad) interval

Vadi – raganing asosiy ohangi

Vani - dhurapadni kuylashdagi xos ovoz

Vokal san'ati – ashula aytish san'ati. Xozirgi kunda yevropa va rus akademik ashulalari ushbu san'at turidir

Gayru muttasil - uzuluvchan usul, murakkab arab musiqasidagi usul

Darbuka - zarbli arab cholgusi

Dor ul Xukma - donishmandlar uyi, Bog'dod shaxridagi allomalar markazi

Dor-Yakkaxon va cholg'u orkestrlari jo'rligida ijro etiluvchi ko'p qismli janr

Duf, daff, deff - zarbli arab cholg'ulari

Joxiliya - Islomgacha bo'lgan davr

Zajjal- muvashshah bilan bir qatorda rivojlangan qo'shiq

Zangula - qo'ng'iroqcha, arab-eron maqomotidagi maqom

Zammur - damli cholg'u

Iqo - usul

Istixbar - yirik badixaviy cholg'u janri – Mag'ribdagi taqasim

Idrok – Narsalar yoki hodisalarning sezgi a'zolariga bevosita ta'siri orqali ongimizda aks etishiga idrok deyiladi. Sezgida predmetning alohida qismlari, idrokda esa predmetning barcha tarkibiy qismlari bir butunlikda his qilinadi. O'z ijrosini eshitgan xonanda tajribasiga tayanib uni tahlil qiladi va umumlashtirgan holda xulosa yasab xatolarini tuzatish uchun qarshi harakatga shaylanadi

Kadib - qadimiy badaviylar urma cholg'usi, primitiv taxtacha kastanbet

Qasida - madxiya, arablarning ilk musiqiy she'riy shakl

Kuss - qadimiy zarbli arab cholg'usi

Kontralto – xonanda xotin – qizlarning eng yo'g'on ovozidir

Layali- lirik xarakterdagi cholg'u jo'rligida yakkaxon xonanda tomonidan ijro etiladigan qo'shiq

Muavval Oʻrta asrlardan arab musiqasida mavjud bulgan lirik falsafiy poema

Marsiya-yigʻi qoʻshigʻi

Madh- maqtoʻv qoʻshigʻi

Matra-Xindiston musiqasidagi asosiy vaqt oʻlchovi

Magʻrib – gʻarb, Arab magʻribi, Afrika shimoli- gʻarbida joylashgan davlatlar (Marokash,Jazoir, Tunis, Liviya)

Muvashshax - Oʻrta asr arab vokal poemasi, andalus musika anʼanasi asosida paydo bulgan

Naux Oʻrta asr arab yigʻi qoʻshigʻi,

Nouba, nuba - doira, ketma- ketlik, kup qismli turkumiy asar, oʻrta asr arab magʻrib musiqasida rivojlangan vokal-cholgʻu asar

Rebab - bir torli arab cholgʻusi, skripka cholgusiga asos solgan cholgʻu

Raga - xind mumtoz musiqasining asosiy janrlaridan, sanskrit tilida rang, tus, bueqni anglatadi

Rupak - tablaning yettilik usullaridan biri

Sandhi prakash raga - raganing kun va tun bilan bogliq turi

Sitar – torli mizrobli xind cholgʻuchi

Taar - zarbli arab cholgʻusi

Tarona – ritmik vokal janr

Taxrir – Iroq maqamining birinchi qismi

Ud - torli arab cholgʻusi

Urjuza – arablarning kadimiy xarbiy qoʻshigʻi

Tin-tal- Hind musiqasida 16 usul xisobi (4-4-4-4)

Hida-tuya podachilari qoʻshigʻi, qadimiy arab qoʻshiqlardan biri

Xabab-otchilar qoʻshigʻi.

Xija-hajviy qoʻshiqlar.

Xusayni adjam – oʻn ikki maqom sistemasidagi maqamning nomi

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatasining qo‘shma majlisidagi nutq. – T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017. – 32 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruza. 2016-yil 7-dekabr. – T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017. – 32 b.
4. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. (elektron versiyasi)
5. Аммар, Фаррух Хасан. Ладовые принципы арабской музыки. – М.1984.
6. Аллендер И.З. Музыкальные инструменты Индии. – М., 1979.
7. Alexendre T., Wahba E. The folk music of Egypt. – Cairo,1968.
8. Al-Isfahaniy. Al-Ahany. – Cairo,1935.
9. Ал-Саид Махамед Авад Хавас. Современная арабская народная песня. – М.;1970.
10. Аманмурадова С. Умм Кульсум – великая певица Арабского Востока. – Т., 2002.
11. Асим аль-Халифа. Музыкальная культура Судана в системе музыкальных традиций Ближнего и Среднего Востока Традиции музыкальных культур народов Ближнего Среднего Востока и современность. – М.;1987.

12. Беляев В. Турецкая музыка (О музыкальном фольклоре древней письменности). – М., 1967.
13. Barkashli Mahdiy. Eron musiqasi haqida ma'ruzalar. O'zDK kutubhonasi (qo'lyozma).
14. Барбад: эпоха и традиции культуры. – Душанбе: Ирфон 1989 .
15. Башир Хадж Али. Алжирская музыка сегодня. Музыка народов Азии и Африки, Вып. 2. – М.;1973.
16. Беляев В. Персидские тэснифы – М.;1964.
17. Bhatkhande Vishnu Narayan. Hindustani Sangeet Paddhati.Hathras. 1976.
18. Вавилов В.И.Симантовский. Сирийская музыка – М.; 1975 г.
19. Виноградов В. Классические традиции иранской музыки. – М., 1982.
20. Виноградов В.С. Индийская рага. – М., 1989.
21. Gettad M. Classical music of Maghreb. – Paris,1980 (french)
22. Грубер Р.И. Музыкальная культура арабов. // Всеобщая история музыки. – М.;1965.
23. Darmeteter J. Afghan folk songs. – Paris,1980.
24. D'Erlanger R. La musique Arabe. – Paris,1930-1959,vol.I-VI
25. During J. La musique iranienne tradition etevolution. – Paris,1984
26. Эл. Саид Мухаммад Авад Хавас. Современная арабская народная песня. М. 1970.
27. El-Kholy S. The function of music in Islamic culture in the period to 1100 A.D. – Cairo, 1984.
28. Elsner J.Zum Problem des Maqam Sonderdruch aus Acfa Musicologia, vol. 47, fasc. 11.
29. Еолян И. Очерки арабской музыки. – М.; 1977.
30. Еолян И. Традиционная музыка арабского Востока. – М.;1990.

31. Jenevyev Durnon. An'anaviy musiqa va musiqa cholg'ularini to'plash bo'yicha qo'llanma. Yunesko. – T.;2003.
32. Жумаева Н.Т “Наука о музыке в трудах среднеазиатских ученых XI-XV вв” в сб. Проблемы музыкальной науки Узбекистана. – Т.;1973.
33. Zonis E. Persian classical music. – Paris,1973.
34. Inayat Ilahi Malik. Indian Classic music. – Delhi,1981.
35. История древнего Востока. – М.; 2001.
36. История искусства. – М.;1998.
37. История музыки Средней Азии и Казахстана. – М.;1995.
38. Карл Л.Сигнелл. Макам. Турк касбий мусиқаси оҳанг-андозалари (модель) – Вашингтон-Сиэтл. 1977 (инглиз тилида).
39. Конрад Н. Запад и Восток. – М., 1972.
40. Кузнецов К.А. Арабская музыка. Очерки по истории и теории музыки. – Л.; 1940.
41. Культура и искусство народов Средней Азии. – М.;1979.
42. Леви-Провансаль Э. Арабская культура в Испании. – М.;1967.
43. Levin T. The Hundred Thousand Fools Of God.Musical Travels in Central Asia. Indiana University Press.1996
44. Луконин В.Г.Искусство древнего Ирана – М.; 1977.
45. Matyakubov O. Og'zaki an'anadagi professional musiqa asoslariga kirish. T., 1983.
46. Матякубов О. Узбекская классическая музыка. I том с.38.
47. Маматкулова Н. Турк мумтоз мусиқасига бир назар. – Т.,1998.
48. Менон Н. Звуки индийской музыки. Путь к раге. – М., 1982.
49. Менон Н. Индийская музыка сегодня. Музыка народао Азии и Африки. Вып.1. 1969.

50. Минковская Э.Е. Египетская религия в Куше. // В книге: Религии древнего Египета. – М.;1976.
51. Mirhaydarova Z.M. Jahon xalqlari musiqa san'atining rivojlanish jarayoni – Т ., 2009.
52. Михайлов Ж.Е.Васильченко. Традиционная музыка Афганистана пластинкасига ёзган аннотацияси.
53. Mihaylov J. Ustoz Muhammad Husayn Sarohang. Plastinkasiga yozgan annotatsiyasi.
54. Моисеева М. Индия далёкая и близкая . // Музыка и время. – М., 2007,
55. Морозова Т. Рабиндранат Тагор и традиции индийской музыкальной культуры. Рага в творчестве Тагора – Традиции музыкальных культур-народов Ближнего, Среднего Востока и современность. – М., 1987.
56. Музыкальная энциклопедия. Алжирская музыка 1т. – М., 1973.
57. Музыкальная энциклопедия. Арабская музыка 1т. – М., 1973.
58. Музыкальная энциклопедия. Египетская музыка II т. – М., 1974
59. Музыкальная энциклопедия. Индийская музыка II т. – М., 1974
60. Музыкальная энциклопедия. Иранская музыка II т. – М., 1974
61. Музыкальная энциклопедия. – М.,1980. 1-том.
62. Музыкальная энциклопедия. Марокканская музыка III т. – М., 1976
63. Музыкальная энциклопедия. Сирийская музыка V т. – М., 1981
64. Музыкальная энциклопедия. Тунисская музыка V т. – М., 1981

65. Музыкальная энциклопедия. Турецкая музыка V т. – М., 1981
66. Музыкальная энциклопедия. Турецкая музыка. V т. – М., 1981.
67. Музыкальный энциклопедический словарь. – М., 1991.
68. Музыка народов Азии и Африки. Вып. 1. М., 1973. Вып.2. М., 1980. Вып.3. М., 1981. Вып.4. М., 1984. Вып. 5. М., 1985.
69. Navoiy A. Holati Pahlavon Muhammad. – Т.; 1966.
70. Насуллаев З. Сведения о музыке в произведениях А.Х. Дехлави. – Т.; 2008.
71. Насуллаев З. Традиция и современность в музыкальной культуре Пакистана. Maqolalar to‘plami, Yilnoma. – Т.; 2009.
72. Низамов А. Нубы стран Магриба и их связи с Шашмакомом. УзДК. – Т.; 1976. Диплом иши.
73. Nosirov M. Pokiston musiqa madaniyati (qo‘yozma), O‘zDK. – Т; 2001.
74. Nizomiddinov N..Hind mumtoz musiqasi va milliy cholg‘ulari. – Т.; 2008.
75. Nizomiy A. Tojik musiqa tarixi. Dushanbe “Iste’dod” 2018. 122-150 betlar.
76. О музыкальных инструментах Судана. Вопросы теории музыки и исполнительства на современном этапе. – Т.; 1983.
77. Oripov Z. Sharq musiqiy manbaashunosligi (X-XI asrlar). – Т.; 2008.
78. Oripov Z. Ibn Zaylaning “Kitab-ul-kafiy-l-fil-musiqa risolasidagi musiqashunoslik atamalari”. – Т.; 2008.
79. Ozkan Ismail Hakki. Turk musikisi nazariyati ve usulleri. – Istanbul, 1987
80. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Т.; 2000 y. Tom 1.
81. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Т.; 2002 y. Tom 3.
82. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Т.; 2003 y. Tom 5.

83. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.; 2004 y. Том 8.
84. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.; 2005 y. Том 10.
85. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусство Средней Азии. – М.; 1982.
86. Раджабов А. Уникальный источник музыкальной культуры народов Востока. Профессиональная музыка устной традиции народов Ближнего, Среднего Востока и современность. – Т.; 1981.
87. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – T.; 1963.
88. Ranade Y. Hindustani music, Bombay, 1971.
89. Рагхава Р.Менон. Звуки индийской музыки. – М., 1982.
90. Рави Шанкар. Унаследованной мной. // Музыка народов Азии и Африки. – М., 1984. Вып. 4.
91. Рустам Заде Д. Турецкая музыка Автореферат. – М., 1980.
92. Салахиддин Хасанин. Песенная культура аш-Шагия. Автореферат. – Т.; 1987.
93. Салахиддин Хасанин. Ритмика песен суданского племени аш-Шагия. Проблема музыкальных культур народов Востока. – Т.; 1985.
94. Сахаб Салим Мусса. Музыкальное искусство Ливана. Традиции музыкальных культур народов Ближнего, Среднего Востока и современность. – М.; 1987.
95. Синявер Л. Индийская музыка. – М.; 1958.
96. Смирнов С.Р. Образование и пути развития северо-суданской музыки. – М.; 1977.
97. Танч Дженгиз. Традиционная и современная музыка в Турции. Традиции музыкальных культур народов Ближнего Среднего Востока и современность. – М.; 1987.
98. Тума, Хабиб. Макам как импровизационная форма (Музыка народов Азии и Африки, вып. 3. М., 1980.
99. Тума Хабиб. Макам как явление. // Профессиональная

- музыка устной традиции народов Ближнего и Среднего Востока и современность. – Т.; 1981.
100. Тума Хабиб. Об арабской музыке. // Традиции музыкальных культур народов Ближнего Среднего Востока и современность. – М.; 1987.
 101. Touma H- Maqam a form of improvisation. The world of music.1970,vol.12,№3
 102. Turk Musicisi Ansiklopediasi,ed. By Vilmas Oztuna . – Istanbul, Milli Egitim Basemevi. 1969-1971.
 103. Unger Utem. Turk musiqasi hususiyatlari. Nafosat jurnali. – Т.; 1993. 3-4 son.
 104. Ustod Madadiy. Afg'on xalq musiqa an'analari. Samarqand III simpoziumi ma'ruzasi. 1988.
 105. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Т.; 1993.
 106. Хасан Салахиддин Мухаммад. Песенная культура аш-Шагия. Автореферат. – Т., 1986.
 107. Хабиб Наваби Сангирах-е Устад-е Қосим Афғони. – Қобул, 1957.
 108. Чайтанья Б. Дева. Индийская музыка. – М.; 1980.
 109. Черкасова Н. Об одном аспекте теории индийско раги как явления монодической культуры Традиции музыкальных культур народов Ближнего, Среднего Востока и современность. – М.; 1987.
 110. Шанкар Р. Музыка народов Азии и Африки. Вып. 4. – М.; 1984
 111. Шанкар Р. Тала хлопки в ладоши. // Музыка народов Азии и Африки. Вып. 5. – М.; 1987.
 112. Шоттен А.Обзор марокканской музыки. – М.;1967.
 113. Эльснер Ю. Западно-Восточные связи классической Алжирской музыки. – М.; 1987.
 114. Elsner J. Die Musikkultur Agupytens . – “Musik und Gessel schatf”, 1968, №6.

115. Elsner J. Die Zum Problem des Magam Sonderdruck aus Acfa Musicologia vol.47, fasc 11.
116. Qodirov P. Jahon mamlakatlari. – T.; 2009,
117. G‘ofurbekov T. Saylanma. – T.; 2009,

Internet saytlari

1. <http://www.youtube.com>
2. <http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musiq>
3. [www musika uz](http://www.musika.uz)

MUNDARIJA

Soʻz boshi		3
1-DARS:	Kirish. Sharq xalqlari musiqa tarixi	7
2-DARS:	Arab musiqa madaniyati	16
	Magʻrib musiqa madaniyati	26
3-4 DARSLAR:	Jazoir, Tunis va Marokash musiqa madaniyati	31
	Tunis musiqa madaniyati	35
	Marokash musiqa madaniyati	40
5-6 DARSLAR:	Arab musiqasi. Mashriq. Misr. Sudan musiqasi	45
	Misr musiqa madaniyati. Umm Kulsum	46
	Sudan musiqa madaniyati	55
7-DARS:	Iroq musiqa madaniyati	63
8-DARS:	Suriya musiqa madaniyati	69
9-10- DARSLAR:	Turk musiqa madaniyati. Turk maqomlari va cholgʻulari	77
11-12- DARSLAR:	Eron musiqa madaniyati	91
13-14- DARSLAR:	Afgʻoniston musiqa madaniyati	111
15-16- DARSLAR:	Hind musiqa madaniyati. hind ragalari va cholgʻulari	124
17-18 DARSLAR:	Pokiston musiqa madaniyati	140
Testlar		149
Xulosa		166
Glossariy		168
Adabiyotlar		171

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

IRODA GANIYEVA

SHARQ XALQLARI

MUSIQA TARIXI